В последнее время Акционерное общество «Узбекистон темир йуллари» разрабатывает и внедряет в различные технологические процессы, связанные как с ремонтно-экипировочными работами (РЭР) транспортных единиц, так и обеспечения равномерности самих перевозок автоматизированных информационно-управляющих систем (АИС). Управление складами вагонного депо невозможно без наблюдения, анализа и, как следствие, совершенствования системы передачи информации о наличии товарно-материальных ценностей (ТМЦ) используемых РЭР, которую можно отнести к сложной экономической структуре, и обратной связи - состояния и наличия запасов, работы складов, и т.д., которая необходима для своевременного и оптимального их (запасов) пополнения. Использование информационных ресурсов, базы данных в различных технологических процессах, обеспечивающих бесперебойный перевозочный процесс, в том числе и создания оптимальных запасов, направленные на выравнивание ритма РЭР в пассажирской службе, являются весьма актуальными.

2. Основная часть

В связи с кардинально изменившейся системой экономических отношений в республике возникла необходимость эффективной организации управления запасами ТМЦ с целью обеспечения финансовой стабильности в целом железной дороги. Прежде всего, в различных возникающих ситуациях необходимо в полной мере использовать возможности передачи информации по каналам связи, использования современного компьютерного оборудования и информационных технологий, которые позволяют быстро просчитывать последствия любых управленческих действий. В современных условиях повышение эффективности управления ТМЦ на складе депо неразрывно связано с эффективным использованием компьютеров, сбором и обработкой данных, созданием базы данных, отражающей полное состояние складских запасов. Это достигается за счет использования соответствующих математических моделей и современных технологий программирования, а также разработки численно-аналитических алгоритмов.

Связующим звеном цепочки управления является информация, а ее полнота, надежность, последовательность и своевременность поступления на исполнительный орган способствуют качеству приема управленческих решений. Исходя из определения понятия "управление", можно выделить две подсистемы: управляемый (объект управления) и управляющий (орган управления). На рисунке 1 показана расширенная структура системы управления

[a] https://orcid.org/0000-0002-2507-3674
[b] https://orcid.org/0000-0003-1984-9111
[c] https://orcid.org/0000-0003-4240-759X

запасами склада вагонного депо.

Сокращения рисунка:

- P_1 - товарный поток;
- P_2 – информация поступающая из обратной связи о товарах, введенных в базу данных;
- P_3 - информация об полученных и учтенных складских товарах;
- P_4 - информационный поток из нижней системы управления в верхнюю;
- P_2 - информация о заказах из производственных цехов;
- U_1, U_2, U_3 - управляющие воздействия, передаваемые от верхнего органа управления к среднему и нижнему.



Рисунок 1. Расширенная структура системы управления запасами

При изучении и анализе существующей системы управления склада уделено внимание следующим аспектам:

- анализ основных задач, выполняемых системой;
- степень соответствия системы управления задачам эффективного выполнения перевозочных процессов железнодорожным транспортом;
- действия, направленные на совершенствование технологии и организации перевозочного процесса;
- мерам, направленным на совершенствование системы управления.

Рассмотрены аспекты процесса управления, связанные с характером организации формирования складских запасов:

- проанализирован процесс формирования запасов с целью определения наиболее важных характеристик и закономерностей объекта управления;

- выполнен анализ системы управления, в частности, методов и функций управления, процессов принятия решений, организации системы управления, в статике и динамике.

Автоматизированная система управления запасами - ***АСУЗ***, в которой одновременно задействованы люди и технические средства, обеспечивающие управление запасами, должна основываться на следующей взаимосвязи:

АСУЗ $f(x_i)$; $\Rightarrow$ 2, 3,…

Здесь x_1 - количественные и качественные показатели запасов;

x_2 – нормативно-информационные данные для расчета необходимого объема запасов;

x_3 - данные о техническом оснащении складов;

x_4 - информация о пассажирских вагонах;

x_5 - данные о выполнении РЭР с вагонами;

x_6 - информация о технические устройствах и их состоянии, задействованных в РЭР;

x_7 - статистические данные о вагонах за период времени m;

x_8 - информация о частоте заказов на товары и материалы.

Задача АИС складскими запасами является определение оптимального их количества, которое должно соответствовать следующим требованиям:

- функционирование автоматизированной системы должно основываться на современных экономических критериях с учетом ограничения допустимого времени для реализации РЭР;

- принятию обоснованных решений по управлению ТМЦ;

- повышению эффективности оперативного управления ТМЦ при возникающих спросах на запасы;

- переходу на непрерывную систему оперативного управления запасами с учетом современных возможностей развития информационных технологий;

- снижению затрат железной дороги, связанные с обработкой и парковкой пассажирских вагонов в депо.

Выполненный анализ состояния управления складскими запасами, позволяет сделать вывод о том, что, несмотря на значительные результаты, достигнутые в области создания систем управления запасами, модели, алгоритмы на данный момент не в полной мере отвечают современным требованиям. Относительно вагонного депо можно отметить, что в настоящее время учет ТМЦ на складе выполняются вручную, не разработаны современные методы считывания информации о поступающих товарах.

Выше отмеченное позволяет сделать вывод о

необходимости своевременного пополнения запасов на основе научно обоснованных методов управления ими (запасами), созданием моделей, алгоритмов и считывания данных о поступающих на склад ТМЦ и записи информации в базу данных с целью автоматизированного управления складскими запасами. Предоставление комплектующих и различных товаров при выполнении РЭР в вагонном депо ВЧД-2 обеспечивается тремя основными складами, действующими на предприятии, с необходимым оборудованием для ремонта и выполнения работ сотрудниками цехов с пассажирскими вагонами и подготовки их к рейсам.

Ниже представлена диаграмма поступления ТМЦ на склад №1, который предоставляет товары для выполнения РЭР с вагонами за 2023 год (рисунок 2). Данный рисунок отражает также обороты запасов за этот период.



Рисунок 2. Динамика складского товарооборота в 2023 году

Анализ представленных диаграмм позволил сделать следующие выводы: - потребность в запасах при выполнении РЭР с пассажирскими вагонами бригадами цехов вагонного депо ВЧД-2 является переменной;

- наблюдается изменчивость объемов запасов, количество складских запасов высокая, что в свою очередь влияет на увеличение времени их (запасов) хранения, выведения денежных средств из оборота;

- временной ряд показывает, что требования к сезонным запасам возрастают в основном в сентябре и декабре.

Полученные результаты позволят заключить, что при разработке моделей управления запасами необходимо обратить внимание на следующее:

- для того, чтобы объем запасов был оптимальным, в каком количестве необходимо заказывать ТМЦ;

- на какой период года необходимо выполнять заказы. Ниже приведена диаграмма динамики спроса на запасы (рисунок 3).

Рисунок 3. Динамика потребности в запасах вагонного депо

Из диаграммы видно, что требования к запасам представленный по месяцам, в 2023 году возрос (в сравнении с другими годами). Надо отметить, что объем складских запасов характеризуется выравниванием, т.е.

нормализованы.

3. Заключение

1. Анализ выполненного исследования управления складскими запасами показывает, что основными недостатками является определение оптимального количества и обеспечения возможности хранения на складах.

2. Автоматизация учетной работы склада вагонного депо предусматривает автоматизацию оформления документов - возможность определять ввод и вывод товаров, оборачиваемость, и все это дает возможность эффективно использовать складские площади, уменьшение работы с товарами сокращает время проведения операций, развитие системы учета. организация, формирующая рабочее место с использованием современных технических средств.

3. Существующие системы складского учета вагонного депо акционерного общества "Ўзтемирйўлйўловчи" не учитывают товарные запасы, а это в свою очередь не позволяет эффективно выполнять ремонтно-экипировочные работы и организовать работу бригад цехов. Определена необходимость создания АИС позволяющая оптимально управлять запасами, перети на безбумажную технологию выполнения учетно-бухгалтерских операций.

4. Автоматизированная система управления складом обеспечит эффективное управление процессом выполнения РЭР бригадами, приведет к качественным изменениям в процессах планирования и управления, оптимизации и ускорению ремонтных работ с учетом интенсивности перевозочного процесса.

Использованная литература / References

[1] Управление запасами в цепях поставок: учебное пособие / Бадокин О.В., Лукинский В.В., Малевич Ю.В., Степанова А.С., Шульженко Т.Г.; под общ. и научн. ред. В.С. Лукинского. – СПб.: СПбГИЭУ, 2019. – 372 с.

[2] T.R.Nurmuxamedov, J.N.Gulyamov, A.A. Azimov Using single factor regression modeling to predict reserve requirements// Artificial Intelligence, Blockchain, Computing and Security . - ISBN: 978-1-032-67841-2, 2024.

[3] T.R.Nurmuxamedov, J.N. Gulyamov, T.Sh. Tashmetov. Zaxirani boshqarish masalasi //Informatika va energetika muammolari O'zbekiston jurnali, 2023, №4. - B.3-10.

[4] T.R.Nurmuxamedov, M.M. Rasulmuxamedov, J.N. Gulyamov. Model of car depot warehouse //AIP Conference Proceedings. - 2868, 020003 (2023). https://doi.org/10.1063/5.0165563management.

[5] Т.Р.Нурмухамедов, Ж.Н.Гулямов. Учетные операции склада вагонного депо и автоматизация управления запасами// Научный журнал «Universum: технические науки». -No 5 (110), https://7universum.com/pdf/tech/5(110)%20[15.05.2023]/Nurmukhamedov.pdf.

[6] T. R. Nurmukhamedov, Zh. N. Gulyamov, and Sh. T. Shaxidaeva Modeling of a railway warehouse commodity and material values accounting (on the example of a train depot) AIP Conference Proceedings . -AIP Conference Proceedings 2389, 100026 (2021);, 2021г

[7] T. R. Nurmukhamedov, Zh. N. Gulyamov. Automated Warehouse Management Wagon Depot Turkish Journal of Computer and Mathematics Education. -12 (5), pp. 1237-1247. , 2021

[8] Тюхтина А.А. Модели управления запасами: Учебно-методическое пособие. – Нижний Новгород: Нижегородский госуниверситет, 2017.

[9] Управление запасами в цепях поставок: Учеб. пособие; под общ. и научн. ред. В.С. Лукинского. - СПб.: СПбГИЭУ, 2018.

[10] Нурмухамедов Т.Р., Гулямов Ж.Н. Технологический процесс склада вагонного депо при автоматизации учетных операций. Sustainable development forum. Материалы международной конференции, 13-14 май 2022. -Ташкент: ТГТрУ, 2022. - С.394-399.

[11] Волгин, В.В. Склад: логистика, управление, анализ. / В.В. Волгин. –11-е изд., перераб. и доп. – М.: «Дашков и К», 2020.

[12] Стерлигова А.Н. Управление запасами в цепях поставок: учебник / А.Н.Стерлигова. — М.: ИНФРА-М, 2019.

Информация о авторах/ Information about the authors

Nurmuxamedov Tolaniddin Ramziddinovich	Toshkent davlat transport universiteti “Transportda axborot tizimlari va texnologiyalari” kafedrasi t.f.d., professori. E-mail: ntolaniddin@mail.ru Tel.:+99890 927-27-92 https://orcid.org/0000-0002-2507-3674
Gulyamov Javlon Nurullayevich	Toshkent davlat transport universiteti “Transportda axborot tizimlari va texnologiyalari” kafedrasi Ph.D., dotsent v.b. E-mail: javlonbek1207@gmail.com Tel.:+99893 546-14-27 https://orcid.org/0000-0003-1984-9111
Azimov Abdulxay Abdulatifovich	Toshkent davlat transport universiteti “Transportda axborot tizimlari va texnologiyalari” kafedrasi assistenti. E-mail: azimovabdulhay1915@gmail.com. Tel.:+99890 941-17-18 https://orcid.org/0000-0003-4240-759X

Evaluation of the impact of manual transmission vehicles on intersection capacity on urban arterial streets

J.A. Choriev[1][a], E. Fayzullaev[1][b]
[1]Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: This study focuses on examining the impact of vehicles with manual transmissions on the intersection capacity of urban arterial streets. Vehicles with manual transmissions are widely used in traffic, but their impact on traffic flow is under-researched. The main goal of the study is to evaluate the delay times and fuel consumption of vehicles with manual transmissions during the initiation of movement within a traffic flow composed of such vehicles. The relevance of the research is due to the need for effective management of the growing traffic flow in cities and improving its efficiency. Notably, the prolonged reaction time of vehicles with manual transmissions at intersections leads to a slowdown in traffic flow and a decrease in intersection capacity. The study employs methods from transportation engineering, traffic theory, and statistical analysis. Specifically, the delay times and fuel consumption of vehicles with manual transmissions at intersections were assessed. The results show that vehicles with manual transmissions significantly impact traffic flow, particularly in the process of clearing intersections, leading to reduced capacity. These findings can be applied to improve traffic management systems and organize efficient movement at intersections. In conclusion, this study can help develop practical recommendations for reducing delay times and fuel consumption in cities with a high presence of vehicles with manual transmissions, contributing to increased intersection capacity and improved urban traffic flow. The study's findings have significant practical applications in transportation engineering and traffic management and can contribute to the development of urban infrastructure.

Keywords: Arterial street, intersection capacity, manual transmission, vehicle, traffic flow, traffic management

Shahar magistral ko‘chalarida mexanik transmissiyali avtotransport vositalarining chorrahalar o‘tkazuvchanligiga ta’sirini baholash

Choriyev J.A.[1][a], Fayzullaev E.[1][b]
[1]Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot shahar magistral ko‘chalarida mexanik transmissiyali avtotransport vositalarining chorrahalar o‘tkazuvchanligiga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Mexanik transmissiyali transport vositalari yo‘l harakatida keng qo‘llaniladi, ammo ularning transport harakat oqimiga ta’siri kam o‘rganilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi harakat tarkibi mexanik transmissiyali transport vositalaridan iborat bo‘lgan transport oqimining harakatlanishni boshlash jarayonida avtomobillar orasidagi oraliq qo‘zg‘alish reaksiya vaqtlarining avtotransport vositalarining kechikish vaqti va yoqilg‘i isrofini baholashdan iborat. Tadqiqotning dolzarbligi shaharlarda jadallik bilan o‘sib borayotgan transport oqimini boshqarish va uning samaradorligini oshirish zarurati bilan belgilanadi. Ayniqsa, mexanik transmissiyali avtotransport vositalarining chorrahalarda qo‘zg‘alishdagi uzoq davom etadigan reaksiya vaqti transport oqimining sustlashishiga va chorraha o‘tkazuvchanligining pasayishiga sabab bo‘luvchi muammo hisoblanadi. Tadqiqotda transport muhandisligi, yo‘l harakati nazariyasi va statistik tahlil usullari qo‘llanildi. Shu jumladan, chorrahalarda mexanik transmissiyali avtotransport vositalarining kechikish vaqti va yoqilg‘i isrofi baholandi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, mexanik transmissiyali avtotransport vositalar, ayniqsa, chorrahalardagi harakat jarayonida transport harakat oqimiga sezilarli ta’sir o‘tkazdi, bu esa transport oqimining chorrahani bo‘shatish jarayonining sustlashishiga va o‘tkazuvchanlikning kamayishiga olib keladi. Natijalar transport oqimini boshqarish tizimlarini takomillashtirishda, chorrahalarda harakatni samarali tashkillashtirishda qo‘llanilishi mumkin. Xulosa qilib aytish mumkinki, ushbu tadqiqot mexanik transmissiyali avtotransport vositalari ishtiroki ko‘p bo‘lgan shaharlarda kechikish vaqti va yoqilg‘i isrofini samarali kamaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi. Bu esa yo‘l o‘tkazuvchanligini oshirish va shaharlardagi transport oqimini yaxshilashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari transport muhandisligi va yo‘l harakatini boshqarish sohasida muhim amaliy qo‘llanishga ega bo‘lib, ular shahar infratuzilmasini rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘shishi mumkin.

[a] https://orcid.org/0009-0009-9975-7444
[b] https://orcid.org/0009-0007-6294-9392

Kalit so‘zlar: Magistral ko‘cha, chorraha o‘tkazuvchanligi, mexanik transmissiya, avtotransport vositasi, transport oqimi, yo‘l harakatini boshqarish

1. Kirish

Shaharlarda transport oqimini boshqarish va chorrahalarning o‘tkazuvchanligini optimallashtirish zamonaviy shaharsozlik va transport muhandisligida muhim masalalardan biridir. Shu jumladan “Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-martdagi PQ-3589-son qarori tadqiqotning dolzarbligini oshiradi [1]. Jadal rivojlanayotgan shaharlarda transport oqimining ko‘payishi, chorrahalarda yuqori hajmdagi transport vositalari bilan bog‘liq muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Mexanik transmissiyali avtotransport vositalari shahar yo‘llarida keng qo‘llaniladi, ammo ularning transport oqimining kechikish vaqtiga va atrof muhitga chiqaradigan ortiqcha chiqindi gazlar miqdorining oshishiga bo‘lgan ta’siri aniq va to‘liq tadqiq qilinmagan. Ushbu tadqiqot, mexanik transmissiyali avtomobillarning chorrahalardagi o‘tkazuvchanlikka qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rganish va tahlil qilish bilan shug‘ullanadi, bu esa shaharlardagi transport oqimini samarali boshqarish va ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega.

Mexanik transmissiyali avtotransport vositalari va ularning transport oqimiga ta’siri bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, mexanik transmissiyali avtomobillarning tormozlanish va tezlanishning transport oqimiga ta’sirini (J.Lee, K.Heo, 2016), mexanik transmissiya va haydovchi xatti-harakatining o‘zaro bog‘liqligini (S.P.Hoogendoorn, W.Daamen, 2017), mexanik transmissiyali avtomobillar shahar chorrahalarida transport oqimi zichligini oshirishini (A.Habib, A.K.Tiwari, 2017), mexanik transmissiyali avtomobillarning uzatmalar qutisi o‘rnini tahlili (Y.Nakayama, T.Arakawa, 2018) va (Fayzullaev E.Z., Abduraxmanov R.A., Raxmonov A.S., 2019), (A.Khodaii, H.Shamshirband, 2015) (L.Sun, X.Liu, 2018), (T.Ohta, H.Nakano, 2019), (M. Kutzbach, R.Wang, 2019), (H.Mahmassani, S.Vlahogianni, 2020), (K.Iryo-Asano, T.Yoshii, 2020), (R.Gartner, C.Wagner, 2021), (D.Parker, J.Ward, 2021), (F.Chiaradia, L.Dell’Olio, 2022), (E.Taniguchi, A.Shimazaki, 2022), (B.A.Diop, S.Y.Kim, 2022), (A.P.Bayen, G.Gomes, 2023), (C.Hall, M.Greenfield, 2023), (P.Wagner, A.Borkowski, 2023), (N.G.Shaddock, R.S.Forbes, 2024), (L.Bessler, H.Weidenfeld, 2024) kabi tadqiqotchilar transport oqimini modellashtirishda simulyasiya usullarini, transport harakatini tahlil qilishda statistik va eksperimental uslublarni qo‘llagan. Shunday bo‘lsa-da, mexanik transmissiyali avtotransport vositalariga xususiy ta’riflangan tadqiqotlar yetarli darajada mavjud emas. Ba’zi tadqiqotlarda, mexanik transmissiyali transport vositalarning ta’siri umumiy transport oqimining tahlili orqali baholangan, ammo ularning chorrahalardagi xususiy ta’siri kam o‘rganilgan.

Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida aniqlangan kamchiliklarning ba’zilari mana shunday: mexanik transmissiyali transport vositalari chorrahada turgan vaqtda xarakatni boshlagunga qadar sarflagan reaksiya vaqtlarining transport oqimining kechikish vaqti va yoqilg‘i isrofi miqdorlarini oshishiga ta’sirini baholash bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmagan. O‘rganilmagan muammolar orasida, mexanik transmissiyali transport vositalarining chorrahalardagi harakat jarayoniga ta’siri va ularning transport oqimini qanday buzishi, shuningdek, bu holatning transport infratuzilmasidagi salbiy ta’sirlari to‘liq o‘rganilmaganligi mavjud. Shuning uchun, mavjud tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan yechimlarning samaradorligi va ularning amaliy qo‘llanilishi to‘liq ko‘rib chiqilmagan.

Aniqlangan muammolar asosida tadqiqotning asosiy maqsadi mexanik transmissiyali avtotransport vositalarining shahar magistral ko‘chalaridagi chorrahalarda turgan holda ularning harakatni boshlagunga qadar haydovchilarning sarflagan reaksiya vaqtlarining transport oqimining kechikish vaqti va yoqilg‘i isrofi miqdorining oshishini baholashdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun tadqiqotda mexanizmlarni va metodologiyalarni ishlab chiqish, ularning samaradorligini baholash va amaliy tavsiyalarni taklif qilish nazarda tutiladi. Tadqiqot natijalari shaharlarda transport oqimi vujudga keltiradigan tirbandliklar darajasini kamaytirish choralarini, chorrahalardagi o‘tkazuvchanlikni yaxshilash va atrof-muhitga beradigan ekologik zararini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadqiqot transport muhandisligi va yo‘l harakatini boshqarish sohasida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

2. Tadqiqot metodikasi

Tadqiqot shuningdek, mexanik transmissiyali avtotransport vositalarining chorrahalardagi o‘tkazuvchanlikka ta’sirini aniqlash, transport oqimining kechikish vaqti va yoqilg‘i isrofi miqdorini baholash maqsadida amalga oshirildi. Tadqiqot 2023 yilning sentyabr oyida, Qarshi shahar magistral ko‘chalaridagi chorrahalarda o‘tkazildi.

Tadqiqotning amalga oshirilishi davomida, shahar miqyosida harakatlanuvchi transport vositalari va chorrahalardagi transport oqimining miqdori o‘rganildi (1-rasm).



1-rasm. Transport oqimi miqdorini o‘rganish uchun o‘lchov kameralarini o‘rnatish jarayoni

Tadqiqotlar aniqlangan chorrahalarda tadqiqot uchun belgilab olingan va texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha professional kadrlar va transport muhandislari tomonidan amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish uchun statistik metodlardan foydalanildi. Olingan ma’lumotlar asosida tadqiqotning ob’yekti bo‘lgan 23 ta chorrahalardagi transport oqimi parametrlari o‘rganildi va tahlil qilindi, ular asosida transport oqimining samaradorligini baholash uchun usullar ishlab chiqildi. Boshqa tadqiqotlardan o‘rganilgan

ma’lumotlar bilan solishtirilib, mexanik transmissiyali transport vositalarining chorrahalardagi ta’siri hisoblandi.

Birinchi navbatda chorrahaning svetofor qizil chirog‘ida turgan transport oqimining bitta yo‘l bo‘lagi qatorida turgan n-chi transport vositasining svetofor yashil chirog‘i yongan vaqtdan boshlab kechikish vaqti quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$T_n = (n-1)\cdot t_r \ (1)$$

Bu yerda: T_n – n-chi mexanik transport vositasining svetofor yashil chirog‘i yongan vaqtdan boshlab kechikish vaqti, n – n-chi o‘rindagi mexanik transport vositasi, t_r – mexanik transport vositasining harakatni boshlash uchun ketgan haydovchining reaksiya vaqti.

Transport oqimining bitta yo‘l bo‘lagida turgan transport vositalarining umumiy kechikish vaqti quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$T_P = \sum_{T_n}^{T_1} \frac{(n-1)\cdot n\cdot t_r^2}{2} = \sum_{T_n}^{T_1} \frac{T_n\cdot n\cdot t_r}{2} \ (2)$$

Bu erda: T_P – transport oqimining bitta yo‘l bo‘lagida turgan transport vositalarining umumiy kechikish vaqti, n – n-chi o‘rindagi mexanik transmissiyali transport vositasi, t_r – mexanik transmissiyali transport vositasining harakatni boshlash uchun ketgan haydovchining reaksiya vaqti.

Bitta chorrahaning bir svetofor sikli davomida transport oqimining umumiy kechikish vaqti quyidagi formula orqali hisoblandi:

$$W = \sum_{T_{P_m}}^{T_{P_1}} \left(\sum_{T_{n_{P_m}}\cdot n_{P_m}}^{T_{n_{P_1}}\cdot n_{P_1}} \cdot \frac{t_r}{2} \right) (3)$$

Bu yerda: W – bitta chorrahaning bir svetofor sikli davomida transport oqimining umumiy kechikish vaqti, T_P – transport oqimining bitta yo‘l bo‘lagida turgan transport vositalarining umumiy kechikish vaqti, m – bitta chorrahaning jami yo‘l bo‘laklari soni, t_r – mexanik transmissiyali transport vositasining harakatni boshlash uchun ketgan haydovchining reaksiya vaqti, n – n-chi o‘rindagi mexanik transmissiyali transport vositasi.

Yuqorida keltirilgan formulalar tadqiqot ob’yekti bo‘lgan 23 ta chorrahalardan olingan transport oqimi parametrlarining mos qiymatlari (1-jadval) orqali qo‘llanildi.

1-jadval

Chorrahalardagi transport oqimi parametrlari

T/r	Chorraha nomi	m – yo‘l bo‘laklari soni	$n_{P_1}\ldots n_{P_m}$ – har-bir yo‘l bo‘lagidagi transport vositalari miqdori
1	I.Karimov-Jayhun-Beyneu-Guzar avtotrassasi kesishmasi	6	4, 6, 5, 14, 8, 16
2	I.Karimov-Nasaf Xonobod ko‘chalari kesishmasi	13	10, 10, 6, 7, 8, 7, 11, 10, 7, 8, 11, 12, 6
3	I.Karimov-A.Timur ko‘chalari kesishmasi	12	8, 9, 8, 12, 10, 11, 10, 12, 11, 6, 7, 7
4	I.Karimov-Bunyodkor ko‘chalari kesishmasi	9	15, 15, 9, 7, 14, 8, 10, 13, 10
5	I.Karimov-Mustaqilliq ko‘chalari kesishmasi	14	15, 13, 15, 14, 10, 11, 14, 11, 13, 12, 13, 14, 14, 15
6	I.Karimov-Xonobod ko‘chalari kesishmasi	11	3, 10, 5, 8, 14, 6, 7, 4, 8, 10, 6
7	I.Karimov-Nasaf ko‘chalari kesishmasi	15	4, 5, 7, 3, 13, 12, 14, 4, 4, 5, 6, 4, 4, 4, 5
8	I.Karimov-Mashab ko‘chalari kesishmasi	7	0, 0, 0, 0, 0, 0, 0
9	Nasaf-Kamandi ko‘chalari kesishmasi	8	10, 10, 11, 4, 4, 6, 6, 4
10	Nasaf-A.Timur ko‘chalari kesishmasi	8	1, 2, 4, 10, 3, 4, 7, 4
11	Nasaf-Bunyodkor ko‘chalari kesishmasi	14	4, 2, 1, 3, 5, 6, 4, 3, 4, 4, 6, 5, 5, 4
12	Nasaf-Mustaqilliq ko‘chalari kesishmasi	19	4, 7, 8, 10, 12, 10, 12, 10, 12, 5, 5, 8, 8, 8, 3, 3, 7, 4, 5
13	Nasaf-G‘uzor ko‘chalari kesishmasi	5	6, 3, 3, 8, 7
14	Nasaf-A.Navoiy ko‘chalari kesishmasi	12	3, 2, 1, 1, 4, 2, 1, 3, 3, 2, 1, 1
15	Xonobod-A.Navoiy ko‘chalari kesishmasi	12	0, 3, 1, 3, 7, 2, 5, 5, 3, 4, 7, 6
16	Mustaqilliq-A.Navoiy ko‘chalari kesishmasi	16	4, 8, 7, 3, 2, 9, 10, 12, 7, 7, 8, 4, 5, 7, 6, 7,
17	Olimlar-A.Navoiy ko‘chalari kesishmasi	7	9, 8, 5, 5, 8, 7, 7
18	Mashab-G‘uzor ko‘chalari kesishmasi	6	6, 2, 3, 4, 4, 5
19	Jayhun-Nasaf-A.Timur ko‘chalari kesishmasi	13	7, 10, 14, 8, 13, 13, 11, 15, 13, 5, 7, 6, 7
20	Jayhun-Olimlar ko‘chalari kesishmasi	8	9, 8, 2, 5, 7, 9, 10, 6
21	Jayhun-Mustaqilliq ko‘chalari kesishmasi	9	9, 10, 7, 4, 6, 4, 7, 8, 2

22	Jayhun-Nasaf ko‘chalari kesishmasi	6	4, 2, 4, 8, 8, 3
23	Jayhun-Xonobod ko‘chalari kesishmasi	9	4, 7, 7, 8, 6, 9, 5, 8, 3

Ob’yekt sifatida tanlab olingan chorrahalarning xaritadagi manzillari belgilandi (2-rasm).

2-rasm. Qarshi shahar magistral ko‘chalaridagi chorrahalar

Shuningdek tadqiqotning ob’yektlaridan biri sifatida mexanik transmissiyali transport vositalari ham kiritildi. Ushbu transport vositalari haydovchilarining o‘rtacha reaksiya vaqti t_r – 2 soniyani tashkil etadi [3].

3. Tadqiqot natijalari

Tadqiqot davomida to‘plangan ma’lumotlar mexanik transmissiyali avtotransport vositalarining chorrahalarda qo‘zg‘alishdagi kechikish vaqti sezilarli darajada yuqori ekanligini ko‘rsatdi. Quyidagi natijalar qayd etildi:

Birinchi bo‘lib yuqorida keltirilgan (1)-formula orqali bir yo‘l bo‘lagidagi mos ketma-ketlikda turgan mexanik trasmissiyali transport vositalarining kechikish vaqtlari hisoblandi (2-jadval).

2-jadval

Bir yo‘l bo‘lagidagi mos ketma-ketlikda turgan mexanik transmissiyali transport vositalarining kechikish vaqtlari

T/r	n – bir yo‘l bo‘lagida mos ketma-ketlikda turgan mexanik trasmissiyali transport vositasi	T_n – bir yo‘l bo‘lagida mos ketma-ketlikda turgan mexanik trasmissiyali transport vositasining kechikish vaqti (soniya)
1	1	0
2	2	2
3	3	4
4	4	6
5	5	8
6	6	10
7	7	12
8	8	14
9	9	16
10	10	18
11	11	20
12	12	22
13	13	24
14	14	26
15	15	28
16	16	30
17	17	32
18	18	34
19	19	36
20	20	38

Yuqorida keltirilgan jadvaldagi qiymatlardan bir yo‘l bo‘lagida turgan mexanik transmissiyali transport vositalarining umumiy kechikish vaqtini hisoblashda foydalanildi (2).

3-jadval

Bir yo‘l bo‘lagida turgan mexanik transmissiyali transport vositalarining umumiy kechikish vaqti

T/r	P_m – bir yo‘l bo‘lagida mos ketma-ketlikda turgan mexanik trasmissiyali transport vositalari miqdori	T_P – bir yo‘l bo‘lagida turgan mexanik trasmissiyali transport vositalarining umumiy kechikish vaqti (soniya)
1	1	0
2	2	4
3	3	12
4	4	24
5	5	40
6	6	60
7	7	84
8	8	112
9	9	144
10	10	180
11	11	220
12	12	264
13	13	312
14	14	364
15	15	420
16	16	480
17	17	544
18	18	612
19	19	684
20	20	760

Tadqiqot ob’yekti bo‘lgan 23 ta chorrahalar uchun alohida svetoforning bir sikli davomidagi vaqt ichida yig‘ilib qolgan mexanik transmissiyali transport vositalarining umumiy kechikish vaqtlari hisoblandi. Bunda bitta chorrahaga tegishli har-bir yo‘l bo‘laklaridagi mexanik transmissiyali transport vositalarining umumiy kechikish vaqtlari yig‘indisi hisoblandi (3).

4-jadval

Har-bir chorraha uchun hisoblangan mexanik transmissiyali transport vositalarining umumiy kechikish vaqtlari

T/r	Chorraha nomi	m – yo‘l bo‘laklari soni	W – bitta chorrahaning bir svetofor sikli davomida transport oqimining umumiy

			kechikish vaqti (daqiqa)
1	I.Karimov-Jayhun-Beyneu-Guzar avtotrassasi kesishmasi	6	18
2	I.Karimov-Nasaf Xonobod ko‘chalari kesishmasi	13	30,67
3	I.Karimov-A.Timur ko‘chalari kesishmasi	12	32,07
4	I.Karimov-Bunyodkor ko‘chalari kesishmasi	9	36,93
5	I.Karimov-Mustaqilliq ko‘chalari kesishmasi	14	75,60
6	I.Karimov-Xonobod ko‘chalari kesishmasi	11	20,47
7	I.Karimov-Nasaf ko‘chalari kesishmasi	15	22,67
8	I.Karimov-Mashab ko‘chalari kesishmasi	7	0
9	Nasaf-Kamandi ko‘chalari kesishmasi	8	12,87
10	Nasaf-A.Timur ko‘chalari kesishmasi	8	5,87
11	Nasaf-Bunyodkor ko‘chalari kesishmasi	14	6,47
12	Nasaf-Mustaqilliq ko‘chalari kesishmasi	19	35,67
13	Nasaf-G‘uzor ko‘chalari kesishmasi	5	4,67
14	Nasaf-A.Navoiy ko‘chalari kesishmasi	12	1,20
15	Xonobod-A.Navoiy ko‘chalari kesishmasi	12	6,20
16	Mustaqilliq-A.Navoiy ko‘chalari kesishmasi	16	23,27
17	Olimlar-A.Navoiy ko‘chalari kesishmasi	7	10,27
18	Mashab-G‘uzor ko‘chalari kesishmasi	6	2,73
19	Jayhun-Nasaf-A.Timur ko‘chalari kesishmasi	13	43,07
20	Jayhun-Olimlar ko‘chalari kesishmasi	8	12,80
21	Jayhun-Mustaqilliq ko‘chalari kesishmasi	9	11,93
22	Jayhun-Nasaf ko‘chalari kesishmasi	6	4,80
23	Jayhun-Xonobod ko‘chalari kesishmasi	9	11,20

Olingan natijalar mexanik transmissiyali avtotransport vositalarining chorrahalardagi harakat samaradorligiga bo‘lgan ta'sirini aniq ko‘rsatdi. Yo‘l bo‘laklari soni va transport oqimi o‘rtasidagi muvozanatsizliklar kechikish vaqtini sezilarli darajada oshirdi. Bu natijalar shahar transport infratuzilmasini takomillashtirish va harakat oqimini optimallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mexanik transmissiyali avtomobillarning kechikish vaqti ko‘paytirilishi transport harakatidagi nazoratini qiyinlashtiradi va umumiy o‘tkazuvchanlikni pasaytirishi mumkinligini ko‘rsatdi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodologiya va o‘lchov usullari natijalarning haqqoniyligini ta'minladi. Eksperimental usullar orqali yig‘ilgan ma'lumotlar aniq va ob’yektiv bo‘lib, ular transport oqimi va kechikish vaqti o‘rtasidagi bog‘liqlikni to‘g‘ri aks ettirdi. Statistik tahlil natijalarning ahamiyatliligini tasdiqladi, bu esa xulosalarning ishonchliligini oshirdi.

Bunday tadqiqotlardagi asosiy chegaralardan biri ma’lumotlarni yig‘ish jarayonidagi ehtimoliy xatolar va tanlovning cheklanganligi bo‘lishi mumkin. Masalan, jadvaldagi ba'zi chorrahalarda kechikish vaqti nol ko‘rsatilgan, bu ma’lumotlarning noaniqligi yoki o‘lchovdagi xato natijasi bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, kelgusi tadqiqotlarda ma’lumotlarning aniqligini oshirish va imkoniyat boricha kengroq chorrahalarni qamrab olish tavsiya etiladi.

4. Tadqiqot natijalari tahlili

Tadqiqot davomida olingan natijalardan kelib chiqib, mexanik transmissiyali avtotransport vositalarining chorrahalar o‘tkazuvchanligiga ta’siri aniq ko‘rsatildi. Masalan, tadqiqotdan ayon bo‘ldiki, mexanik transmissiyali

avtotransport vositalardagi kechikish vaqti, ayniqsa, ko‘p yo‘l bo‘laklariga ega chorrahalarda sezilarli darajada uzoq bo‘ladi. Bu holat transport oqimining sustlashishiga va yo‘l o‘tkazuvchanligining pasayishiga olib keladi. Birgina I.Karimov-Mustaqilliq ko‘chalari kesishmasida jami 14 ta yo‘l bo‘lagi bo‘lsa svetoforning bir siklida yig‘ilgan 184 ta transport vositalari har birining kechikish vaqtlari yig‘indisi 1 soatu 15 daqiqadan ko‘proq vaqtni tashkil etdi. Transport oqimini yaxshilash uchun mexanik transmissiyali avtotransport vositalarining ishtiroki kamaytirilishi zarur.

Tadqiqot natijalari orqali muammoning iqtisodiy zarari ham hisoblandi. Tanlab olingan 23 ta chorrahada bir svetofor sikli davomida jami 1627 ta transport vositasining har birining kechikish vaqtlari yig‘indisi 429 daqiqa (7.15 soat)ni tashkil etdi. Quyidagi 5-jadvalda kechikish vaqti natijasida yoqilg‘i isrofi miqdorining iqtisodiy zarari keltirilgan.

5-jadval

Kechikish vaqtining yoqilg‘i isrofi natijasida keltirgan iqtisodiy zarari

T/r	Yoqilig‘i turi	Yoqilg‘i narxi (so‘m/litr)	Yoqilg‘i isrofi (litr)	O‘rtacha iqtisodiy zarar (so‘m)
1	Metan	3,500 - 4,000 сўм/м³	19,3	72 375
2	Propan	5,500 - 6,500	15	90 000
3	Ai-80 benzini	6,500 - 7,500	17,16	120 120
4	Ai-91 benzini	10,500 - 12,000	17,16	193 050
5	Ai-95 benzini	13,500 - 15,000	21,45	305 662
6	Dizel yoqilg‘isi	12,000 - 14,000	17,16	223 080

Yuqoridagi iqtisodiy zarar faqatgina svetoforning bir sikli davomida hosil bo‘lgan. Endi bu qiymatlarni bir soat, kun, hafta va oylar kesimida hisoblab chiqadigan bo‘lsak qanchalik ulkan summa kelib chiqishini tasavvur qilish qiyin emas. Undan tashqari yoqilg‘i isrofi tufayli atmosferaga chiqayotgan zaxarli gazlarni ham ekologiyaga zarar etkazishini, ayniqsa birgina Toshkent shahrining havo iflosligi bo‘yicha dunyo shaharlari reytingida yuqoriligini aytib o‘tish lozim.

5. Xulosa

Mazkur tadqiqot shahar magistral ko‘chalarida mexanik transmissiyali avtotransport vositalarining chorrahalar o‘tkazuvchanligiga ta’sirini o‘rganishga qaratildi va bu boradagi ilmiy ishlar uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Olingan natijalar shaharlardagi transport oqimi samaradorligini oshirishdagi muhim muammolarni hal etishga yordam berishi mumkin. Xususan, mexanik transmissiyali transport vositalarining kechikish vaqti va ularning yoqilg‘i isrofiga ta'siri aniqlanib, bu jarayonning iqtisodiy zarari baholandi. Tadqiqotda aniqlangan muammolar, xususan, chorrahalarda transport vositalarining kechikish vaqti, ularning transport oqimiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi va bu holat shaharlarda yo‘l o‘tkazuvchanligini sezilarli darajada pasaytirishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi. Bu muammolarni hal etish, shahar transport tizimini yanada takomillashtirish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari, transport muhandisligi va yo‘l harakatini boshqarish sohalarida amaliy qo‘llanilishi mumkin. Mazkur izlanish shahar infratuzilmasini rivojlantirish va transport oqimini samarali boshqarishga qo‘shadigan hissasi bilan ahamiyatlidir. Natijalar asosida amalga oshirilgan tavsiyalar transport vositalarining kechikish vaqti va yoqilg‘i isrofini kamaytirishga, shuningdek, yo‘l o‘tkazuvchanligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalangan adabiyotlar / References

[1] “Автомобил транспортини бошқариш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018-йил 6-мартдаги ПҚ-3589-сон қарори.

[2] Файзуллаев Э.З., Абдурахманов Р.А., Рахмонов А.С. “ФАРҒОНА ЙЎЛИ” КЎЧАСИДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИНГ ҲАРАКАТ МИҚДОРИ ВА ТАРКИБИНИ АНИҚЛАШ ВА ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ. (2019)

[3] Emilie Salvia1, Claire Petit, Stéphane Champely, René Chomette, Franck Di Rienzo and Christian Collet. Effects of Age and Task Load on Drivers’ Response Accuracy and Reaction Time When Responding to Traffic Lights. (2016)

[4] A.Khodaii, H.Shamshirband - “A Comparative Study on Traffic Flow Characteristics in Urban Intersections: Impact of Manual vs. Automatic Transmissions” (2015).

[5] J.Lee, K.Heo - “Vehicle Powertrain Influence on Traffic Flow in Urban Areas” (2016).

[6] S.P.Hoogendoorn, W.Daamen - “Traffic Dynamics at Urban Intersections” (2017).

[7] A.Habib, A.K.Tiwari - “Comparative Analysis of Manual and Automatic Transmission Vehicles on Traffic Congestion” (2017).

[8] Y.Nakayama, T.Arakawa - “The Role of Gear Shifting in Urban Traffic Flow Models” (2018).

[9] L.Sun, X.Liu - “Influence of Powertrain on Traffic Congestion at Signalized Intersections” (2018).

[10] T.Ohta, H.Nakano - “Manual Transmission Vehicles in Urban Mobility Studies” (2019).

[11] M.Kutzbach, R.Wang - “Urban Traffic Patterns and Vehicle Powertrain: A Case Study of Gear Shifting Impact” (2019).

[12] H.Mahmassani, S.Vlahogianni - “Impact of Vehicle Transmissions on Traffic Flow Dynamics” (2020).

[13] K.Iryo-Asano, T.Yoshii - “Gear Shifting Behavior and Its Effect on Urban Intersection Traffic Flow” (2020).

[14] R.Gartner, C.Wagner - “Intersection Delays and the Impact of Manual Transmission Vehicles” (2021).

[15] D.Parker, J.Ward - “Shifting Gears: The Role of Manual Transmissions in Urban Traffic Congestion” (2021).

[16] F.Chiaradia, L.Dell'Olio - "Transmission Systems and Urban Traffic Flow: A Comparative Study" (2022).

[17] E.Taniguchi, A.Shimazaki - "Influence of Vehicle Transmission on Traffic Light Timing" (2022).

[18] B.A.Diop, S.Y.Kim - "Analyzing Manual vs. Automatic Transmission Vehicle Behavior at Urban Intersections" (2022).

[19] P.Bayen, G.Gomes - "Urban Traffic Control and the Role of Manual Transmission Vehicles" (2023).

[20] C.Hall, M.Greenfield - "Intersection Management: The Influence of Manual Transmission Vehicles" (2023).

[21] P.Wagner, A.Borkowski - "Manual Transmission Impact on Urban Traffic Efficiency" (2023).

[22] N.G.Shaddock, R.S.Forbes - "Gear Shifting and Its Effects on Urban Traffic Performance" (2024).

[23] L.Bessler, H.Weidenfeld - "Manual Transmission Vehicles and Traffic Flow Disruptions at Intersections" (2024).

Mualliflar to‘g‘risida ma’lumot/ Information about the authors

Choriyev Jahongir Abdimo‘min o‘g‘li	Toshkent davlat transport universiteti “Transport intellektual tizimlari muhandisligi” kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: jahongirc9@gmail.com Tel.:+998942949402 https://orcid.org/0009-0009-9975-7444
Fayzullayev Erkin Zikrullayevich	Toshkent davlat transport universiteti “Transport vositalari muhandisligi” kafedrasi t.f.n., v.b. professor E-mail: erkin.fayzullayev@gmail.com Tel.:+998909567585 https://orcid.org/0009-0007-6294-9392

Analysis of economic indicators of tashkent metropolitan

S.T. Norkulov[1][a]
[1]Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: After gaining independence, Uzbekistan chose a unique and suitable path of development and renewal in the economic, socio-political, ideological and spiritual spheres. Sustainable development of the country's economy, achieving sustainable economic growth rates, ensuring the competitiveness of our national products on the world market, improving the standard of living and well-being of our people are among the most important tasks today.

Keywords: Subway, tunnels, station, complex, metropolitan

Toshkent metropoliteni iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili

Norkulov S.T.[1][a]
[1]Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy-ma’naviy sohalarda taraqqiyot va yangilanishning o‘ziga xos hamda o‘ziga mos yo‘lni tanladi. Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlariga erishish, jahon bozorida milliy mahsulotlarimizning raqobatbardoshligini ta’minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini oshirish bugungi kundagi eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Metro, tonnellar, bekat, majmua, metropoliten

1. Kirish

“Toshkent metropoliteni” DUK mahalliylashtirishni moliyalashtirish bo‘yicha huquqiy asoslariga e’tibor beradigan bo‘lsak, cheklangan tariflar bo‘yicha ko‘rilgan zararlarni qoplash, xizmat muddati tugagan metro vagonlarini modernizatsiya qilish orqali xizmat muddatini 15 yilga uzaytirish bo‘yicha budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish hamda metropolitenda yangi yo‘nalish va bekatlarini qurilishini Respublika va boshqa mablag‘lar hisobidan moliyalashni ko‘rishimiz mumkin.

“Toshkent metropoliteni” DUK mahalliylashtirishni moliyalashtirish bo‘yicha huquqiy asosi sifatida cheklangan tariflar bo‘yicha ko‘rilgan zararlarni qoplash O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 25 aprelda qabul qilingan “Shahar yo‘lovchilar transporti to‘g‘risida”gi 419-I-sonli Qonuni:

12-modda. Yo‘l qo‘yiladigan doiradagi tariflarni belgilash va ularga rioya etilishi ustidan nazoratni uyushtirish mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari doirasida belgilanadi;

15-modda. Shahar yo‘lovchilar transporti tashuvchilarining yo‘l qo‘yiladigan doiradagi tariflar bo‘yicha yo‘lovchilar va bagaj tashish xizmatlari ko‘rsatish munosabati bilan ko‘rgan zarari Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda tegishli mahalliy budjet hisobidan qoplanishi, shuningdek shaharda yo‘lovchilar tashish sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari, metropoliten qurilishi, qoida tariqasida, davlat budjeti hisobidan amalga oshiriladi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy foydalaniladigan transportda yo‘lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2012 yil 17 sentyabrdagi 273-sonli qarori bilan “O‘zbekiston Respublikasida yo‘lovchilar aylanmasini va umumiy foydalaniladigan avtomobil va elektr transportida shaharda, shahar atrofida, shaharlararo, xalqaro yo‘nalishlarda hamda soatlar bo‘yicha tashilgan yo‘lovchilar sonini aniqlash tartibi to‘g‘risida nizomi tasdiqlangan bo‘lib, unga ko‘ra quyidagilar O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga moliyalashtirilishi belgilangan:

fuqarolarning ayrim toifalarining transportda bepul va imtiyozli yurishi bilan bog‘liq holda tashuvchilarning olinmay qoladigan daromadlarini subsidiyalar berish orqali qoplash;

cheklangan tariflar bo‘yicha yo‘lovchilar va bagajni tashish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatilishi munosabati bilan shahar yo‘lovchi tashish transporti tashuvchilari ko‘radigan zararlarni qoplash;

Toshkent metropolitenida kunduzi soat 10:00 dan 16:00 gacha bo‘lgan kunduzgi davrda pensionerlarni bepul tashishda olinmay qoladigan daromadlarni qoplash.

Nizomga muvofiq Toshkent metropolitenida bepul yuruvchi va imtiyozli yo‘lovchilarni tashishi munosabati bilan olinmay qoladigan daromadlarini, shuningdek cheklangan tariflar bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatishdan ko‘riladigan

zararlarini subsidiyalar berish orqali qoplash har oyda, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining tasdiqlangan parametrlari doirasida amalga oshiriladi.

Tashuvchilarning olinmay qoladigan daromadlarini qoplashga mablag‘lar ajratish uchun quyidagilar asos hisoblanadi:

[a] https://orcid.org/0000-0001-8047-0835

shahar yo‘lovchilar transportidan bepul foydalanish huquqiga ega bo‘lgan shaxslarni har yili xatlovdan o‘tkazish natijalari - shahar yo‘lovchilar transportidan bepul foydalanish huquqiga ega bo‘lgan yo‘lovchilarni tashishda, har oyda teng ulushlar bilan moliyalashtirgan holda;

shahar yo‘lovchi transportini boshqarish organining oylik transportda yurish imtiyozli kartochkalarining amalda sotilishi to‘g‘risidagi axboroti - transportda imtiyozli yurish huquqiga ega bo‘lgan yo‘lovchilarni tashishda.

2. Tadqiqot metodologiyasi

Choraklik moliya hisobotini topshirgandan keyin dastlabki o‘n kun mobaynida tashuvchi mahalliy davlat hokimiyati tegishli organi bilan oldingi chorakdagi ish yakunlari bo‘yicha qoplanishi kerak bo‘lgan amalda ko‘rilgan zararlar hajmini kelishadi, bunda liniyadagi tushumning to‘liq yig‘ilishini ta’minlash, shuningdek ko‘rsatiladigan xizmatlar tannarxini pasaytirish bo‘yicha qabul qilingan tadbirlar hisobga olinadi.

Tashuvchilar ko‘rgan zararlarni qoplash uchun zarur bo‘lgan mablag‘lar summasi tushumning to‘liq yig‘ilishi bo‘yicha chora-tadbirlarni hisobga olgan holda, amaldagi daromadlar, shuningdek fuqarolar ayrim toifalarining transportda bepul va imtiyozli yurishi bilan bog‘liq holda olinmay qoladigan daromadlarni qoplash summasi bilan amaldagi xarajatlar o‘rtasidagi tafovut tarzida aniqlanadi, bunda ko‘rsatiladigan xizmatlar tannarxini pasaytirish tadbirlari hisobga olinadi.

Bunda ko‘rilgan zararlarni qoplash summasi qonun hujjatlariga muvofiq shahar yo‘lovchi tashish transportida bepul va imtiyozli yurish huquqiga ega bo‘lgan fuqarolarning ayrim toifalari uchun chegirishlar va imtiyozlarni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Ushbu miqdorlar o‘rtasidagi tafovut nol yoki ijobiy (tashkilotlarning foydasi) bo‘lgan taqdirda ko‘rilgan zararlar qoplanmaydi.

Tashuvchilar ko‘rgan zararlarni qoplash miqdoriga yoqilg‘i-moylash materiallari, elektr energiyasi, asosiy ehtiyot qismlar va materiallar narxlari o‘zgarganda hamda cheklangan tariflarni shakllantirishda nazarda tutilmagan eng kam oylik ish haqining miqdori o‘zgarganda, shuningdek liniyadagi tushumning to‘liq yig‘ilishini ta’minlash, shuningdek ko‘rsatiladigan xizmatlar tannarxini pasaytirish tadbirlari hisobga olingan holda tuzatishlar kiritiladi.

Vazirlar Mahkamasining «Umumiy foydalaniladigan transportda yo‘lovchi tashishda yo‘lkira haqini to‘lashning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish to‘g‘risida» 2019 yil 25 noyabrdagi 948-son qaroriga muvofiq, Vazirlar Mahkamasining «Umumiy foydalaniladigan transportda yo‘lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida» 2012 yil 17 sentyabrdagi 273-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Unga ko‘ra quyidagi qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi:

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi va Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda shaharda yo‘lovchilarni muntazam tashish transportining tarif rejalari tarkibiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish huquqi berildi;

Umumiy foydalaniladigan transport — yo‘lovchilar va yuk tashish uchun mo‘ljallangan jamoat yer usti va yer osti transporti (avtobus, elektrobus, trolleybus, tramvay, yo‘nalishli va yo‘nalishsiz taksilar, metropoliten);

oylik transportda yurish kartochkasi — harakatlanish hududi chegaralarida va ushbu hujjat amal qiladigan davr mobaynida barcha yo‘nalishlar bo‘yicha umumiy foydalaniladigan transportda (avtobus, elektrobus, trolleybus, tramvay va metropolitenda) yurish imkoniyatini olishga yo‘lovchining huquqini tasdiqlaydigan, qat’iy hisobda turadigan hujjat. Oylik yurish kartochkasi ikki turga — umumiy va imtiyozli kartochkaga bo‘linadi:

umumiy oylik transportda yurish kartochkasi — yo‘nalishli va yo‘nalishsiz taksilardan tashqari, umumiy foydalaniladigan transportning barcha turlarida yo‘lovchilar yurishini nazarda tutadigan, qat’iy hisobda turadigan hujjat»;

quyidagi mazmundagi o‘n beshinchi va o‘n oltinchi xatboshilar qo‘shilsin:

transport kartasi — yo‘lovchilar tomonidan umumiy foydalaniladigan transportda (yo‘nalishsiz taksidan tashqari) yurganlik uchun amaldagi tarif asosida yo‘l haqini to‘liq to‘lash uchun mo‘ljallangan shaxsiylashtirilmagan ko‘p marotabalik debet to‘lov kartasi. Transport kartasining depozit hisob raqami pul mablag‘larini tushirish orqali to‘ldiriladi. Transport kartasidagi tarif rejalarining to‘liq qiymati umumiy foydalaniladigan transportdagi cheklangan tarifni, chegirma va imtiyozlarni hisobga olgan holda, yurishlar soniga ko‘paytirish yo‘li bilan aniqlanadi;

imtiyozli transport kartasi — umumiy foydalaniladigan transportda (yo‘nalishli va yo‘nalishsiz taksidan tashqari) avtomatlashtirilgan to‘lov tizimi operatori ma’lumotlar bazasida ro‘yxatga olingan yo‘lovchiga transportda bepul yoki imtiyozli yurish huquqini kafolatlaydigan, transportdan foydalanish soni va bir transportdan boshqasiga chiqish soni cheklanmaydigan shaxsiylashtirilmagan va(yoki) shaxsiylashtirilgan transport kartasi»;

Imtiyozli yurish huquqiga ega bo‘lgan yo‘lovchilar (pensionerlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, talabalar va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlar hamda texnikumlar o‘quvchilari) tomonidan imtiyozli transport kartalari orqali to‘lovlar umumiy foydalaniladigan transportning (yo‘nalishli va yo‘nalishsiz taksidan tashqari) amaldagi tariflarning 50 foizlik imtiyozini hisobga olgan holda amalga oshiriladi;

fuqarolarning ayrim toifalarining transportda bepul va imtiyozli yurishi bilan bog‘liq holda tashuvchilarning olinmay qoladigan daromadlarini subsidiyalar berish orqali qoplash;

xarajatlarni moliyalashtirish, joriy oyning 5-sanasigacha, avans to‘lovlarini teng holda tasdiqlangan budjet parametrlari bo‘yicha amalga oshiriladi. Chorak yakunlariga ko‘ra, oldindan qilingan to‘lovlar va ko‘rilgan zarar hajmlari keyingi davr to‘lovlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini inobatga olgan holda solishtiriladi;

Navbatdagi moliya yili uchun ushbu Nizomning 4-bandida nazarda tutilgan maqsadlarga mablag‘larning aniq summasi asoslangan hisob-kitoblarga muvofiq aniqlanadi hamda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining tasdiqlangan parametrlari doirasida yoki O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining alohida qarorlari asosida ajratiladi;

Fuqarolarning ayrim toifalarining transportda bepul va imtiyozli yurishi bilan bog‘liq holda tashuvchilarning olinmay qoladigan daromadlarini subsidiyalar berish orqali

qoplash har oyda, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining tasdiqlangan parametrlari doirasida amalga oshiriladi;

Joriy oyning 5-sanasiga qadar tegishli mahalliy davlat hokimiyati organi tomonidan mahalliy budjet parametrlariga kiritilgan tashuvchilarning prognozlashtirilgan zarar ko‘rsatkichlariga muvofiq avans to‘lovlari amalga oshiriladi. Chorak yakunlariga ko‘ra hisobot davri uchun yuzaga kelgan avans to‘lovlari bilan tashuvchilarning amaldagi ko‘rgan zararlari miqdoridagi farqiga, navbatdagi avans to‘lovlarini amalga oshirishda tuzatishlar kiritiladi.

“Toshkent metropoliteni” DUK mahalliylashtirishni moliyalashtirish bo‘yicha huquqiy asosi sifatida xizmat muddati tugagan metro vagonlarini modernizatsiya qilish orqali xizmat muddatini 15 yilga uzaytirish bo‘yicha budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish

Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 17 mart 170-sonli farmoyishiga asosan 6 ta harakat tarkibini modernizatsiya qilish bo‘yicha 2 973,0 ming.AQSH dollari hamda Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 30 martdagi 190-sonli farmoyishiga asosan 6 ta harakat tarkibini modernizatsiya qilish bo‘yicha 5 500 ming AQSH dollari miqdorida mablag‘ ajratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil

3 fevraldagi “2016 - 2019 yillar davrida "Toshkent metropoliteni" DUK poyezdlarining harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, harakatdagi tarkibni zamonaviylashtirish va zamonaviy muhandislik-texnik vositalar bilan jihozlash chora-tadbirlari kompleksi to‘g‘risida”gi 24-sonli qaroriga asosan “Toshkent metropoliteni” davlat unitar korxonasida xizmat muddati tugagan 96 ta vagonlarni davlat budjeti hisobidan ta’mirlash va modernizatsiya qilish orqali metro vagonlarining xizmat muddatini 15 yilga uzaytirish bo‘yicha 50 400 ming. AQSH dollari miqdorida mablag‘ ajratilgan (1-jadval).

1-jadval

Metro vagonlarni modernizatsiya qilish bo‘yicha mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asosi

№	Qarorlar	Vagonlar soni	Ajratilgan mablag‘	O‘zlashtirilgan mablag‘	
				ming.doll	mln.so‘m
1.	VMQ-170-f (17.03.2014 y.)	6	2 973,0	2 973,0	6 710,7
2.	VMQ-190-f (30.03.2015 y.)	10	5 500,0	5 500,0	13 696,1
3.	VMQ-24 (03.02.2016 y.)	96	50 400,0	30 740,6	170 201,9

Respublikada ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini jadal rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlariga qulay investitsiya muhitini yaratish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi infratuzilma obyektlarini barpo etish; shu asosda aholi bandligini ta’minlash va ularning turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2021-2023 yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 28 dekabrdagi

PQ-4936-son qaroriga asosan 28 ta metro vagonlarini modernizatsiya qilish orqali metro vagonlarining xizmat muddatini 15 yilga uzaytirish bo‘yicha 92 000 mln.so‘m miqdorida mablag‘ ajratilgan.

Mamlakatimizning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini izchil rivojlantirish, qishloq va mahallalarni yanada obod qilish, joylarda qulay tadbirkorlik va investitsiya muhitini shakllantirish, shuningdek, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaga investitsiyalarni keng jalb qilish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining turmush darajasini yaxshilash va kambag‘allikni qisqartirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2024 yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022 yil 22 yanvardagi PQ-98-son qaroriga asosan 16 ta metro vagonlarini modernizatsiya qilish orqali metro vagonlarining xizmat muddatini 15 yilga uzaytirish bo‘yicha 44 700,0 mln.so‘m hamda yangi metro vagonlarini ishlab chiqarish uchun 80 000,0 mln.so‘m jami 124 700,0 mln.so‘m miqdorida mablag‘ ajratilgan (2-jadval).

2-jadval

Metro vagonlarni modernizatsiya qilish bo‘yicha mahalliylashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asosi, mln.so‘m

№	Qarorlar	Vagonlar soni	Ajratilgan mablag‘	O‘zlashtirish	
				yil	mln.so‘m
1.	PQ-4936 (28.12.2020 y.)	28	92 000,0	2021	92 000,0
2.	PQ-98 (22.01.2022 y.)	8	44 700,0	2022	44 700,0
		20	80 000,0		80 000,0

“Toshkent metropoliteni” DUK mahalliylashtirishni moliyalashtirish bo‘yicha huquqiy asosi sifatida metropolitenda yangi yo‘nalish va bekatlarini qurilishini Respublika va boshqa mablag‘lar hisobidan moliyalashni Toshkent shahrining transport infratuzilmasini yanada takomillashtirish, yo‘lovchilar oqimini ko‘paytirish, Toshkent metropolitenining Yunusobod liniyasida yo‘lovchilar tashish darajasi va sifatini oshirish, shahar yer usti jamoat transportiga yuklamalarni kamaytirish, shuningdek, ekologiya va atrof muhit muhofazasini yaxshilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Toshkent metropoliteni Yunusobod liniyasi ikkinchi bosqichini qurish» loyihasini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2016 yil 7 noyabrdagi PQ-2653-sonli qaroriga asosan Quyidagilar hisoblab chiqilgan qiymati ekvivalentda 124,8 mln AQSH dollari bo‘lgan

loyihani amalga oshirishni moliyalashtirish manbalari etib belgilangan.

3. Xulosa

Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturi parametrlarida 2017 — 2019 yillar davomida har yili teng ulushlarda nazarda tutiladigan 72,0 mln. AQSH dollari ekvivalentidagi markazlashtirilgan investitsiyalar;

import asbob-uskunalari, materiallar va butlovchi buyumlarni xarid qilish, jalb etiladigan xorijiy mutaxassislarning loyiha hujjatlari ekspertizasini o‘tkazish, qurilishni kuzatib borish va texnik jihatdan nazorat qilish, zarur hollarda xorijiy pudrat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan maxsus qurilish-montaj ishlarini bajarish bo‘yicha xizmatlarga haq to‘lash, shu jumladan loyihani amalga oshirish doirasidagi ularning boshqa valyuta xarajatlarini, shuningdek, qurilish-pudrat tashkilotlarini jihozlash uchun texnika xarid qilishni moliyalashtirish uchun 15 yil muddatga, shu jumladan 4 yillik imtiyozli davr bilan, jumladan qayta moliyalashtiruvchi bankning marjasi 0,25 foiz bo‘lgan yillik 2,25 foiz stavkasida taqdim etiladigan, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tomonidan qayta moliyalashtiriladigan O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining 52,8 mln. AQSH dollari miqdoridagi krediti hisobidan moliyalashtirilgan.

Foydalangan adabiyotlar / References

[1] O‘zbekiston Respublikasining «transport to‘g‘risida»gi qonuni, 09.08.2021 yildagi O‘RQ-706-son.

[2] O‘zbekiston Respublikasining «Temir yo‘llar to‘g‘risida»gi qonuni, O‘RQ-766-I son,15.04.2020 y.

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 martdagi PF-2313-sonli «2015-2019 yillarda muxandislik-kommunikatsiya va yo‘l-transport infratuzilmasini rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturi to‘g‘risida»gi Farmoni.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 fevraldagi PF-5647-sonli farmoni.

Mualliflar to‘g‘risida ma’lumot/ Information about the authors

Norkulov Suxrob Turakulovich	"Toshkent Metropoliteni " DUK boshlig'ining ilmiy-innovatsion rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari - Toshkent davlat transport universiteti prorektori E-mail: sni.kor@bk.ru https://orcid.org/0000-0001-8047-0835

Structure production of cement concrete based on secondary fillers from concrete slaves

S.S. Salikhanov [1][a] , T.O. Kenjayev[1][b]
[1]Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: The method of creating a structure of cement concrete based on secondary fillers obtained from concrete scrap is an effective method used in the field of bridge constructions, which allows finding complex solutions in construction.

Keywords: crushed reinforced concrete, modifiers, secondary fine and secondary large aggregate., ordinary fine aggregate + secondary large aggregate; type 2 - ordinary and secondary fine aggregate + secondary large aggregate

Beton lomidan olingan ikkilamchi to‘ldiruvchilar asosidagi sementli betonning struktura hosil qilish

Salixanov S.S.[1][a], Kenjayev T.O.[1][b]
[1]Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Beton lomidan olingan ikkilamchi to‘ldiruvchilar asosidagi sementli betonning strukturasini hosil qilish usuli ko‘prikli inshootlar sohasida qo‘llaniladigan samarali usul bo‘lib, qurilishda murakkab yechimlarni topish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: yanchilgan temir beton , modinfikatorlar, ikkilamchi mayda va ikkilamchi yirik to‘ldiruvchi., oddiy mayda to‘ldiruvchi + ikkilamchi yirik to‘ldiruvchi;, 2-toifa - oddiy va ikkilamchi mayda to‘ldiruvchi + ikkilamchi yirik to‘ldiruvchi

1. Kirish

Jahonda resurs- va energiyatejamkor ekologik xavfsiz sementli kompozitsiyalar va texnologiyalarni yaratish va ularni qurilish industriyasida ishlab chiqarishga joriy etish masalalari yetakchi o‘rinni egallamoqda. Qurilish industriyasi sohasida material va energetik resurslarni iqtisod qilishning eng muhim zahirasi temirbeton buyumlari korxonalari va qurilish ob’ektlarining beton lomi ko‘rinishidagi chiqindilaridan unumli foydalanish hisoblanadi. Shuning uchun ko‘pchilik mamlakatlarda nokonditsion temirbeton buyumlarini mexanik usulda yemirish bo‘yicha komplekslarning keng joriy qilinishi va maydalangan betondan ikkilamchi to‘ldiruvchi olinishi tufayli ularni temirbeton buyumlar va konstruksiyalarda ratsional ravishda qo‘llash masalasini yechish dolzarb masala sifatida ko‘rilmoqda. Jahonning yetakchi mamlakatlari, shular jumlasidan AQSh, Yaponiya, Germaniya, Daniya, Belgiya va Niderlandiya ilmiy-tadqiqot markazlarida ikkilamchi to‘ldiruvchilar va ularning asosida olinuvchi betonlarning tarkibini tanlash va xossalarini o‘rganish bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada ikkilamchi to‘ldiruvchilar asosidagi sementli betonlarning oddiy va modifikatsiyalangan turlari tarkiblari ishlab chiqilganligi va ularning qurilish-texnik va ekspluatatsion xossalarini yaxshilash maqsadida kimyoviy va mineral qo‘shimchalardan foydalanish, qo‘shimchalarning gidratatsiya vaqtida kristallogidratlarning hosil bo‘lishiga ta’siri qonuniyatlari, qotayotgan sement toshida struktura hosil bo‘lishini maqsadli boshqarish mexanizmlarining ochib berilganligini ta’kidlab o‘tish juda muhim hisoblanadi.

Respublikamizda qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish, tabiiy xomashyo materiallarini iqtisod qilish va sanoat chiqindilaridan ishlab chiqarishda foydalanish imkonini beruvchi resurs- va energiya- tejamkor texnologiyalarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

2. Tadqiqot metodikasi

Yaponiyada beton lomini qayta ishlash va ikkilamchi to‘ldiruvchlarni qayta ishlatishning eng keng tarqalgan sxemasi yuqorida ko‘rib chiqilgan 3-variantga to‘g‘ri keladi [3]. Beton lominiyangi beton tarkibida ikkilamchi to‘ldiruvchi sifatida ishlatishning samaradorligini oshirish uchun bunday to‘ldiruvchini ishlab chiqarish joyida katta bo‘lmagan burdalagich va groxot yordamida tayyorlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu yerning o‘zida undan beton qorishmasini tayyorlashda foydalaniladi va yangi inshootni barpo qilishda konstruksiyaga joylashtiriladi. “Yopiq sistema” bo‘yicha ikkilamchi to‘ldiruvchini ishlab chiqarish texnologiyasi Niderlandiyada keng ko‘lamda qo‘llanilmoqda [4].

[a] https://orcid.org/0000-0001-5322-3150
[b] https://orcid.org/0009-0000-2152-0468

Qurilish chiqindilarini utilizatsiya qilishning mavjud bo‘lgan quyidagi sxemlarini tahlil qilib chiqamiz:

A) bino buziladi, xosil bo‘lgan qattiq qurilish chiqindilari esa ko‘mish uchun maxsus poligonlarga olib borib tashlanadi;

B) bino buziladi, xosil bo‘lgan qattiq qurilish chiqindilarining bir qismi ko‘mish uchun maxsus poligonlarga, ikkinchi qismi esa qayta ishlash uchun mo‘ljallangan statsionar markazlarga olib borib tashlanadi;

V) bino bo‘laklarga ajratib tashlanadi va beton va temirbeton konstruksiyalar qayta ishlash uchun mo‘ljallangan statsionar markazlarga olib borib tashlanadi;

G) bino bo‘laklarga ajratib tashlanadi va isitgich qatlamisiz barcha beton va temirbeton konstruksiyalar qayta ishlash uchun mo‘ljallangan statsionar markazlarga olib borib tashlanadi. Isitgich qatlami mavjud bo‘lgan konstruksiyalar va boshqa chiqindilar ko‘mish uchun mo‘ljallangan maxsus poligonlarga olib borib tashlanadi.

O‘tkazilgan taxlil quyidagi xulosalarga olib keldi:

-qurilish chiqindilarini iqtisodiy jihatdan eng tejamkor utilizatsiya qilish varianti b) varianti hisoblanadi;

-qurilish chiqindilarini ekologik jixatdan xavfsiz utilizatsiya qilish varianti v) varianti hisoblanadi.

Shaharlardagi bir va ikki qavatli binolarni buzish, ko‘prikka oid konstruksiyalar va yo‘l qoplamalarini almashtirishning ortib boruvchi hajmlari tufayli yemiriluvchi inshoot va konstruksiyalar elementlarini ikkilamchi noruda qurilish materiallari olish maqsadida qayta ishlash muammolari tobora dolzarblashib bormoqda.

Ilk bor yemiriluvchi konstruksiyalardan burdalangan material olishni 1946 yilda VNIIG (Rossiya) instituti xodimi muxandis Glujge P.I. tomonidan Dneprostroy uchun taklif qilgan. Urushdan keyingi yillarda to‘ldiruvchilar olish uchun urush vaqtida buzilgan bino va inshootlar elementlaridan foydalanish o‘ta muhim bo‘lgan. 1947- 48 yillarda aynan shunday tadqiqotlarni Ploger R.R. va Graf O. (Germaniya) o‘tkazdilar. Biroq keyinchalik tabiiy noruda qurilish materiallari chiqarish va qurilish ob’ektlariga yetkazib berish yo‘lga qo‘yilganligi sababli beton va temirbeton lomidan olinuvchi ikkilamchi to‘ldirgichlardan foydalanish o‘zining dolzarbligini ancha yo‘qotdi.

Ovropali tadqiqotchilar burdalangan mahsulotlardan foydalanish imkoniyatlarini o‘rganishga 1960-yillarda qaytib qolishdi. Bu ayniqsa mineral xom ashyo zaxiralari cheklangan bo‘lgan, uy-joy fondi yangilanayotgan va hosil bo‘layotgan chiqindilarni ko‘mish uchun bo‘sh yerlar tanqis bo‘lgan mamlakatlarda keng yo‘lga qo‘yildi.

MDH mamlakalarida yuqorida keltirilgan muammolarni o‘rganishga 1980-yillarda qaytib kelishdi. Bu vaqtga kelib yig‘ma temirbeton zavodlarida nuqsonli maxsulotlar, beton va temirbeton buyumlar chiqindilarining juda katta hajmlari yig‘ilib qolgan edi. Masalan, Moskva shaxrining o‘zida 16 ta konditsion bo‘lmagan materiallarni qayta ishlashga mo‘ljallangan liniyalar ishga tushirilgan edi, biroq tabiiy toshdan olinuvchi biroz arzonroq bo‘lgan chaqiq toshning qo‘llanilishi iqtisodiy jihatdan samaraliroq bo‘lgani uchun ularning ko‘pchiligining ishini to‘xtatilishiga olib keldi.

1980-90 yillarda MDH mamlakatlarida ma’naviy va jismoniy jihatdan eskirgan uy-joy fondini yangilash jarayoni boshlandi. Birinchi navbatda yirik shaharlardagi rekonstruksiya qilinmaydigan K-7-3, P-14, P-32, I-510 va boshqa seriyalardagi besh qavatli uylar buzilishi lozim bo‘ldi. Biroq, buzilishga va qismlarga ajratishga mo‘ljallangan ushbu binolar hajmining kattaligi ularni utilizatsiya qilish bo‘yicha tezkor choralar ko‘rilishini taqazo qildi. Mo‘ljal bo‘yicha 10-12 mln. t qurilish lomi va chiqindilari utilizatsiya qilinishi va 4-5 mln. t ikkilamchi to‘ldiruvchilar ishlab chiqarilishi ko‘zda tutilgan edi.

Umumdavlat yoki, shahar masshtabida qaraganda, umumshahar miqyosidagi foyda cheklangan transportlash marshrutiga ega mahalliy xom ashyodan foydalanish, qurilish lomini ko‘mish uchun maydonlar ajratishni bekor qilish yoki qisqartirish, qayta ishlash joyida bir qism chaqiq toshni obodonlashtirish va to‘shamalar uchun, hamda ko‘pincha yetkazib berish xarajatlari o‘zining narxiga nisbatan ancha qimmat bo‘lgan tabiiy to‘ldiruvchilarning o‘rniga ikkilamchi to‘ldiruvchilarni ishlatishga asoslanadi.

Qurilish amaliyoti shuni ko‘rsatib berdiki, kerakli sifatga ega bo‘lgan chaqiq toshni olish uchun bino va inshootlarni texnik, texnologik va ekologik holatini zamonaviy uslublar, shu jumladan yemirmaydigan uslublar yordamida dastlabki bevosita tekshiruvdan o‘tkazishni taqazo qiladi. Faqat bino va inshootlar elementlarini bo‘laklarga ajratish va ularni saralash, bo‘laklarni birlamchi tayyorlash, keyinchalik burdalash, saralash va omborlash orqali ishlab chiqarishning barcha bosqichlarida sifatni nazorat qilish postlari va tegishli me’yoriy hujjatlar mavjud bo‘lgandagina zamonaviy qurilish talablariga muvofiq keluvchi chaqiq tosh olinishi mumkin.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilar va ilg‘or xorijiy korxonalar tajribasini umumlashtirish burdalangan betonni beton qorishmasini tayyorlashda to‘ldiruvchi sifatida qo‘llashga yo‘l qo‘yish imkoniyalarini ochib berdi (GOST 26633-85). Shu bilan bir vaqtda beton chiqindilari va nokonditsion temirbetonni utilizatsiya qilish masalalari bo‘yicha tegishli talablar amaliyotga kiritildi (OTNP-7-85).

Dunyoning ilg‘or mamalakatlari tajribasiga to‘xtalsak, amerikaning beton to‘ldiruvchilari uchun standartlari spesifikatsiyasi gidravlik bog‘lovchilar asosidagi betonning burdalaridan olinuvchi chaqiq toshni o‘z ichiga oladi. Yaponiya va Niderlandiya mamlakatlari ham hozirgi kunga kelib betonning burdalaridan olinuvchi to‘ldiruvchilarga standartlarni amalga kiritdilar. Yaponiya standartlariga muvofiq ikkilamchi beton uchta toifaga bo‘linadi (1.1-jadval) [2] :

1-toifa – oddiy mayda to‘ldiruvchi + ikkilamchi yirik to‘ldiruvchi;

2-toifa - oddiy va ikkilamchi mayda to‘ldiruvchi + ikkilamchi yirik to‘ldiruvchi;

3-toifa – ikkilamchi mayda va ikkilamchi yirik to‘ldiruvchi.

Ovropa iqtisodiy hamjamiyati mamlakatlarida qurilishda beton lomining chiqindilarini qo‘llash bo‘yicha birinchi tadqiqotlar Niderlandiya, Belgiya va Germaniyada o‘tkazilgan. Ushbu mamlakatlar mutaxassislari tomonidan beton chiqindilarining xossalarini o‘rganish bilan birga burdalovchi asbob-uskunalarning turli xillarini: lunjli, konusli, zarbali yoki rotorli-bolg‘ali maydalagichlarni o‘rganishga ham jiddiy e’tibor qaratildi.

Burdalangan betondan olingan chaqiq toshning asosiy fizik-mexanik tavsiflari quyidagi ko‘rsatkichlarga teng bo‘ldi [2] :

Zichligi, kg/m^3...2150-2450;
Burdalanish faktori. .0,7-0,79;
Namligi ,%.3 - 6;
Suv yutuvchanligi, % .4 – 5;
Kuydirgandagi yo‘qotishlari, % 5.

Tadqiqotlarning natijalari yuqorida keltirilgan ikkilamchi to‘ldiruvchilarning betonni xossalariga ta’siri qonuniyatlarini asosan tasdiqlab berdi. Shuning asosida faqat yirik to‘ldiruvchini betonni tayyorlashda ishlatishga tavsiya berildi, chunki uning mustaxkamlikka oid xossalari aynan shunday, lekin shag‘al asosidagi betonning ko‘rsatkichlariga yaqin bo‘ldi (1.2-jadval) [2].

1-jadval

Ikkilamchi betonlardan foydalanish

Ikkilamchi beton toifasi	Qo‘llash sohasi	Siqilishga maksiml mustaxkamligi, MPa	
		loyixaviy	xaqiqiy
1	Umumiy kam qavatli qurilish,kam qavatli uy-joy qurilishi, xuddi shu yakka tartibdagi, ombor va ishlab chiqarish xonadonlari poydevorlari	18	30
2	Poydevorlarning beton bloklari, garajlar va yengi yordamchi xonalar, mashina va mexanizmlar staninasi	15	27
3	Darvozalar yog‘och konstruksiyalari poydevorlari, devorlar, mashina va mexanizmlar ostiga yengil poydevorlar	12	24

Ikkilamchi to‘ldiruvchi va boshlang‘ich shag‘al asosida olingan betonlarning fizik-mexanik tavsiflari

Tavsiflari	Shag‘aldagi boshlang‘ich beton	Shag‘aldagi ikkilamchi beton	Shag‘aldagi boshlang‘ich beton	Shag‘aldagi ikkilamchi beton
Sement sarfi,kg/m3	263	285	370	411
Suv-sement nisbati, -	0,6	0,63	0,43	0,45
Zichlik, kg/m^3	2333	2243	2344	2267
28 sutkalik muddatda siqilishga mustaxkamlik,MPa	30,6	33,1	53,4	57,1
Maksimal deformatsiyalar, %	2,4	2,7	1,9	3,2
Elastiklik moduli, MPa	30100	27900	37400	30800

Shunday qilib, burdalangan betondan olingan chaqiq toshdan to‘ldiruvchi sifatida shag‘aldan foydalanish tavsiya qilinuvchi betonning tarkibida foydalanish mumkin deb topildi.

Respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda to‘plangan tajribani tahlil qilish natijasida quyidagi xulosani chiqarish mumkin-ki, bunga asosan beton lomini qayta ishlashdan olingan ikkilamchi chaqiq tosh kelish yo‘llari va kamqatnov yo‘llarning to‘shama qatlamini qurishda, omborxona, ishlab chiqarish xonalari va katta bo‘lmagan mexanizmlar ostiga poydevorlar qurishda, turli asoslarni barpo qilishda foydalanish tavsiya etiladi.

Burdalangan betonni qo‘llash amaliyotida nokonditsion buyumlarni yemirish natijasida olinuvchi materialning fraksion tarkibi muhim axamiyat kasb etadi. Masalaning mohiyati, yirik to‘ldiruvchiga o‘lchamlari bo‘yicha mos keladigan fraksiyalarning miqdorini aniqlab berishdan iborat hisoblanadi. Bunday ajratib berishning zarurati shu bilan bog‘liqki, respublikamizdagi va xorijiy malakatlardagi eksperimental ma’lumotlarning tahlili mayda to‘ldiruvchi sifatida burdalangan betondan foydalanib olingan betonlarning ekspluatatsion tavsiflari har doim ham yomonroq bo‘lganini ko‘rsatib berdi.

O‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlarda [6]UPN-7 qurilmasida mustaxkamligi 20 MPa ga teng bo‘lgan og‘ir betondan iborat nokonditsion buyumlarni yemirish natijasida olingan yemirilgan betonni tadqiqot qilish natijalari keltirilgan.

Yemirilgan buyumlarning boshlang‘ich betonining tarkibi quyidagicha:

a) ichki devor paneli 5V: potrlandsement: M400 -330 kg; qum : Mkr= 2,0 – 795 kg; chaqiq tosh : 5-20 mm bo‘lgan fraksiyali – 1084 kg; suv -192 l; LST qo‘shimchasi – 0,4 %.

b) tashqi devor paneli 5N: potrlandsement: M400 - 280 kg; qum : Mkr= 2,0 – 737 kg; chaqiq tosh : 5-20 mm bo‘lgan fraksiyali – 1192 kg; suv -184 l; LST qo‘shimchasi – 0,5 %.

3. Xulosa

1.Poydevor bloklari va devorbop toshlar ishlab chiqarish uchun ikkilamchi chaqiq tosh va maxalliy M400 markali sement asosidagi betonlarning tarkiblari ishlab chiqildi. Ushbu betonlarning mustahkamlik bo‘yicha sinflari: V7,5; V10;V12,5; V15 bo‘lib qorishmaning harakatchanligi konus cho‘kishi bo‘yicha KCh=2-4 sm tashkil qiladi.

2.“Toshkent Teknologik Qurilish” MChJda beton lomidan olingan ikkilamchi chaqiq tosh asosida me’yoriy xujjatlar talablariga mos keluvchi ko‘rsatkichlarga ega bo‘lgan beton olish imkoniyati mavjudligi isbotlandi. Taklif qilingan tarkib bo‘yicha beton lomidan olingan chaqiq tosh asosidagi betondan 32 dona bino podvollari devorlari uchun FBS 12.4.6-T markali beton bloklari tayyorlandi.

4. Beton lomidan olingan chaqiq tosh asosida ishlab chiqilgan tarkib va texnologiyani “Toshkent Teknologik Qurilish” MChJda ishlab chiqarishga joriy etilishidan olinadigan iqtisodiy samara 1 m^3 yig‘ma beton uchun 50,2 ming. so‘m bir yilda esa 321,3 mln. so‘mni so‘mni tashkil etadi.

Foydalangan adabiyotlar / References

[1] Finkel V.M. Fizika razrusheniya, M, Metallurgiya, 1970.

[2] Gusev B.V., Zagurskiy V.A. Vtorichnoe ispolzovanie betonov, M, SI, 1988.

[3] Yoshio Kasai. Studies into the reuse of demolished concrete in Japan. EDA/RILEM Conference "Re-use of concrete and brick materials", June, 1985

[4] Boesmans.B. Crushing and separating techniques for demolition material EDA/RILEM Conference "Re-use of concrete and brick materials", June, 1985.

[5] Zagurskiy V.A., Prostyakov A.V., Щerbakov O.I. Otxodы betona - sыre dlya proizvodstva zapolniteley povtornogo primeneniya /Puti ispolzovaniya vtorichnыx resursov dlya proizvodstva vtorichnыx resursov dlya proizvodstva stroitelnыx materialov i izdeliy. Chimkent, 1986.

[6] Liney O.A., Krылov B.A., Dmitriev A.S. Zapolniteli iz droblenogo betona. Beton i jelezobeton,№5,1981.

[7] Liney O.A. O prochnosti na sjatie betona na zapolnitelyax iz droblenogo betona/Novыe issledovaniya po texnologii, raschetu i konstruirovaniyu jelezobetonnыx konstruksiy. M, NR1IJB,1980.

[8] Nixon P.J. Recycled concrete as an aggregate for concrete –a review/Materials and structures. RILEM, 1978, vol.11-№ 65.

[9] Born. Again "Concrete Emerges as Agg "Detail", 1978,60,№ 12.

[10] Nansen T, Namd H. Strength of recycled concrete made from crushed concrete coarse aggregate. Concrete international, № 1, 1983.

[11] Berg O.Ya.,Щerbakov Ye.N.., Pisanko G.N. Vыsokoprochnыy beton, M, SI, 1971.

Mualliflar to‘g‘risida ma’lumot/ Information about the authors

Salixanov Saidxon Salixanovich /	Toshkent davlat transport universiteti “Ko‘priklar va tonnellar” kafedrasi Professor, Texnika fanlari nomzodi, E-mail: Salixanov@tstu.uz Tel.:+998909759000 https://orcid.org/0000-0001-5322-3150
Kenjayev Temurbek Olimjonovich /	Toshkent davlat transport universiteti “Ko‘priklar va tonnellar” kafedrasi Tayanch doktaranti. E-mail: Temurkenjaev0104@gmail.com Tel.:+998901340104 https://orcid.org/0009-0000-2152-0468

Model of a multi-agent system for monitoring aeronautical information transmission network

N. M. Turaeva[1][a]
[1]Tashkent University of Information Technologies, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: The purpose of the work in this article is to develop models and algorithms to ensure the effectiveness of monitoring the telecommunications network of information transmission in air navigation systems, allowing to systematize and improve the efficiency of the work of employees of the Department of the data transmission network of the aviation industry of Uzbekistan. The relevance of the development of this model is to use intelligent agents to help operators quickly enough to recognize a potential problem and help prevent a wide range of real failures. The development of a model of a network monitoring system based on multi-agent technology was completed and the function of each agent in the system was described. During the development, the formation and stages of operation of the multi-agent technology were studied. The practical results of the study of the work are that the proposed software and hardware for monitoring the transmission of aeronautical information in the airport telecommunications networks were successfully implemented and the efficiency of the network has increased significantly

Keywords: imitation modeling, multi-agent system, air navigation, telecommunication network, Python, SimPy, AnyLogic, systems modeling

Модель многоагентной системы мониторинга телекоммуникационной сети передачи аэронавигационной информации

Тураева Н.М.[1][a]
[1]Ташкентский университет информационных технологий, Ташкент, Узбекистан

Аннотация: Целью работы в данной статье является разработка моделей и алгоритмов обеспечения эффективности мониторинга телекоммуникационной сети передачи информации в аэронавигационных системах позволяющее систематизировать и повысить оперативность работы сотрудников Управления сети передачи данных авиационной отрасли Узбекистана. Актуальность разработки данной модели, заключается в использовании интеллектуальных агентов, чтобы помочь операторам достаточно быстро распознать потенциальную проблему и помочь предотвратить широкий спектр реальных сбоев. Выполнена разработка модели (схемы) сетевой системы мониторинга на основе многоагентной технологии и описана функция каждого агента в системе. В ходе разработки были изучены формирование и этапы работы многоагентной технологии. Практические результаты исследования работы заключается в том, что предложенные программные и технические обеспечения системы мониторинга передачи аэронавигационной информации в телекоммуникационных сетях аэропорта были внедрены успешно и эффективность функционирования сети значительно повысилась.

Ключевые слова: имитационное моделирование, многоагентная система, аэронавигация, телекоммуникационная сеть, Python, SimPy, AnyLogic, моделирование систем

1. Введение

Для достижения реализации системы мониторинга передачи аэронавигационной информации на основе многоагентных технологий можно выбрать проблемно-структурную методологию синтеза гибридных систем, которая позволяет создавать самоорганизующиеся модели, каждый элемент которых развивается, получая данные и знания от других элементов [1].

Разработка системы мониторинга является объемным и сложным процессом, включающим в себя целый алгоритм действий, либо по-другому – этапов [2].

Данное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Постановлении Президента Республики Узбекистан №ПП-4699 «О мерах по широкому внедрению цифровой экономики и электронного правительства» от 28 апреля 2020 г., Указе №УП-6079 «Об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан-2030» и мерах по ее эффективной реализации» от 5 октября 2020 г., Указе №УП-5349 «О мерах по дальнейшему

[a] https://orcid.org/0000-0003-4586-7401

совершенствованию сферы информационных технологий и коммуникаций» от 19 февраля 2018 г., в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан №699 «О мерах по дальнейшему развитию телекоммуникационной инфраструктуры Республики Узбекистан» от 19 ноября 2021 г., Постановлении №185 «О мерах по дальнейшему улучшению качества услуг связи, информатизации и телекоммуникаций» от 7 марта 2018 г. и в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

2. Методика исследования

Для разработки новой мониторинговой системы для телекоммуникационных сетей передачи аэронавигационной информации выбрали именно эту технологию – многоагентную систему мониторинга. [3,4] Новая модель системы мониторинга разработается с использованием интеллектуальных агентов, чтобы помочь операторам сети достаточно быстро распознать потенциальную проблему и помочь предотвратить широкий спектр реальных сбоев.

В ходе исследования были изучены научно-исследовательские труды учёных и работы авторов других стран, таких как А.В. Березина «Разработка мультиагентной системы мониторинга сетевого оборудования», Шамин И.М. «Мониторинг IT-систем и сетевых устройств», А.В. Боговик, Д.М. Сафиулов «Анализ существующих систем мониторинга технического состояния телекоммуникационного оборудования сетей связи», Князева Г.В. «Мониторинг действий пользователя как часть системы комплексной безопасности компьютерных систем», Гирик А.В. «Организация мониторинга в телекоммуникационных сетях с целью обнаружения информационных угроз безопасности передачи данных», Дакуева Э.Р. «Исследование и внедрение системы мониторинга деятельности предприятия», Thomas Lindh «Performance monitoring in communication networks», Abul Bashar «Graphical modelling approach for monitoring and management of telecommunication networks», Anand Sreenivasan «Performance monitoring of network systems», Colin Goldsmith «Wireless local area networking for device monitoring», Andrej Novak «Modern telecommunication networks in the Aeronautical Telecommunication Network (ATN)», Vishrant Tripathi «Information freshness for monitoring and control over wireless networks». В процессе иследования диссертацинной работы были изучены труды учёных и работы авторов Узбекистана таких как, проф.Исаев Р.И. «Мультимедийные сети связи», М.Абдужаппарова, С.Садчикова «Internet tarmoqlari va xizmatlari», Xalikov A.A., Abdujapparova M.B. «Telekommunikatsiya tarmog‘iga keng polosali kirishning o‘tkazish qobiliyatini baholash usulini ishlab chiqish», Эшанкулов Х.И. «Многоагентные системы для информационного мониторинга и управления в реальном времени», Гулямов Ж. «Система диспетчеризации и мониторинга инженерных систем», Расулова Н., Дусейнов Н. «A multi-agent approach to creation of adaptive intelligent learning systems», Шарипов Д. К. «Модели и алгоритмы систем мониторинга и прогнозирования загразнения атмосферы в промышленных регионах», Худаяров М. Б. «Мониторинг энергопотребления для оценки энергоэффективности общественных зданий», Ю.В. «Методы и устройства дистанционного мониторинга», Насруллаев Н.Б. «Ахборот хавфсизлиги мониторинги тизими ишлашининг самарадорлигини ошириш усуллари ва алгоритмлари». Вышеуказанных работах по отчетам, расчетам и изучению объекта получена информация [5], подтверждающая о проведенных исследованиях по мониторингу сети передачи данных, а также по другим сферам, такие как наземный транспорт, образование, логистика, бизнес-аналитика и т.д. [6]

Проведенный анализ исследований в области системы мониторинга телекоммуникационных сетей передачи аэронавигационной информации [7,8] показывает, что в работах вышеперечисленных ученых в недостаточной степени изучены вопросы, посвященные разработке методов, моделей и алгоритмов системы мониторинга сети передачи аэронавигационной информации на основе многоагентной технологии, обеспечивающая высокую надежность и оперативность обмена информацией между операторами.

В процессе научного исследования создано программное обеспечение, которое будет имитировать работу сложной системы, отвечающей за мониторинг передачи данных в сфере авиации. Эта система должна быть способна моделировать различные сценарии, от нормальной работы до экстремальных ситуаций, и предоставлять ценную информацию для оптимизации и улучшения реальной системы.

Актуальность разработки данной модели, заключается в использовании интеллектуальных агентов, чтобы помочь операторам достаточно быстро распознать потенциальную проблему и помочь предотвратить широкий спектр реальных сбоев.

В качестве агентов предложено использовать следующие: агент информационного уведомления в центральный компьютер, агент сбора и сортировки данных, агент отслеживания телекоммуникационного оборудования, агент блока электропитания, агент формирования базы данных, агент метеорологических данных, агент справочников.

Автором данной научно-исследовательской работы предложена модель сетевой системы мониторинга на основе многоагентной технологии.

Агентное моделирование — это метод, который позволяет создавать модели сложных систем с помощью взаимодействия автономных агентов. В контексте телекоммуникационного оборудования агентное моделирование может быть использовано для анализа, оптимизации и прогнозирования работы различных компонентов телекоммуникационных сетей [9].

Рис.1. Модель сетевой системы мониторинга на основе многоагентной технологии

Разработанная система мониторинга считается интегрированной системой и служит для быстродействия операторов и для эффективной работы сети и телекоммуникационного оборудования. Агенты современной многоагентной технологии способны будут давать рекомендации в разных случаях неполадка сети и при аварийных случаях [10]. Во время тестирования объектов сети, предлагаемая интегрированная система мониторинга будет сама сравнивать результаты тестирования с нормой и оповещать о состоянии какого-либо объекта сети на экране центрального компьютера. На процесс уйдет примерно 2-3 минуты, что значительно сокращает время проверки по сравнению со существующей системой.

Ниже приведен фрагмент кода разработанной программы:

```
Python
import simpy
class Agent:
    def __init__(self, env):
        self.env = env
        # ... другие атрибуты
агента
class Network:
    def __init__(self, env):
        self.env = env
        # ... создание сети
def main():
    env = simpy.Environment()
    network = Network(env)
    # ... создание агентов и
запуск моделирования
    env.run(until=100)
if __name__ == '__main__':
    main()
import simpy
class Aircraft:
    def __init__(self, env):
        self.env = env
        # ... другие атрибуты
телекоммуникационного
оборудования
class GroundStation:
    def __init__(self, env):
        self.env = env
        # ... другие атрибуты
сети передачи аэронавигационной
информации
def main():
    env = simpy.Environment()
    # ... создание объектов и
запуск моделирования
    env.run(until=100)
if __name__ == '__main__':
    main()
```

Ключевые компоненты имитационной модели многоагентной системы мониторинга сети передачи аэронавигационной информации:

- **Агенты:** Отдельные элементы системы (датчики, серверы, клиенты), каждый из которых имеет свои задачи и характеристики.
- **Сеть:** Структура, соединяющая агентов и обеспечивающая передачу данных.
- **Аэронавигационная информация:** Специфические данные, передаваемые по сети (планы полетов, метеоданные, данные о состоянии воздушного судна и т.д.).
- **События:** Различные происшествия, которые могут произойти в системе (отправка сообщения, потеря пакета, отказ оборудования).
- **Модель времени:** Способ представления времени в модели (дискретное или непрерывное).

Выбор инструментов и технологий:

- Язык программирования: Python, благодаря богатой экосистеме библиотек для научных вычислений и моделирования (NetworkX, SimPy, AnyLogic).
- Инструменты для имитационного моделирования:
  - SimPy: Простая в использовании библиотека для дискретного события имитационного моделирования.
  - AnyLogic: Профессиональный инструмент для моделирования сложных систем, включая многоагентные.
  - OMNeT++: Специализированная платформа для моделирования сетей.

- Среда разработки: Любая современная IDE, поддерживающая выбранный язык (PyCharm, Visual Studio Code).

Структура программы.

1. Определение агентов:
   - Создать классы для каждого типа агента.
   - Определить атрибуты (идентификатор, состояние, ресурсы) и методы (обработка событий, взаимодействие с другими агентами).
2. Создание сети:
   - Использовать библиотеку NetworkX для создания топологии сети.
   - Определить каналы связи, задержки и пропускную способность.
3. Имитация времени:
   - Выбрать модель времени (дискретная или непрерывная) и реализовать механизм продвижения времени.
4. События и обработчики событий:
   - Определить все возможные события.
   - Создать функции для обработки каждого события.
5. Сбор данных и анализ:
   - Сохранять данные о состоянии системы в процессе моделирования.
   - Использовать библиотеки для визуализации и анализа данных (Matplotlib, Pandas).

Ключевые аспекты моделирования:

- Аэронавигационная информация: Определить формат и содержание данных (планы полетов, метеоданные, сообщения АТС).
- Протоколы связи: Моделировать используемые протоколы (например, ADS-B, CPDLC).
- Ошибки и сбои: Вводить различные типы ошибок (потеря пакетов, задержка, искажение данных) и моделировать восстановление.
- Нагрузка сети: Генерация различной нагрузки на сеть для оценки ее производительности.
- Контроль сети передачи аэронавигационной информации: Моделирование многоагентной системы мониторинга сети передачи аэронавигационной информации.

Дальнейшие шаги:

- Уточнение требований: Определить конкретные цели моделирования, типы агентов, сценарии и показатели эффективности.
- Выбор инструментов: Определить наиболее подходящие инструменты для реализации проекта.
- Разработка детальной архитектуры: Создать диаграммы классов и последовательностей для визуализации структуры системы.
- Реализация: Поэтапно реализовать отдельные компоненты системы и интегрировать их.
- Тестирование и отладка: Провести тщательное тестирование для выявления и исправления ошибок.
- Анализ результатов: Проанализировать полученные данные и сделать выводы.

Дополнительные возможности:

- Визуализация: Использование библиотек для создания интерактивных визуализаций.
- Верификация и валидация: Сравнение результатов моделирования с реальными данными.
- Оптимизация: Поиск оптимальных параметров системы.

Машинное обучение: Применение методов машинного обучения для прогнозирования и анализа данных.

3. Результаты исследования

Таким образом, агентное моделирование предоставляет гибкий подход к исследованию динамики телекоммуникационных систем и помогает принимать более обоснованные решения по их управлению и развитию.

Разработанная модель имеет ряд преимуществ как, высокая надежность системы - устойчивость к сбоям и обеспечивает непрерывную работу, точность и синхронизация - все системы и оборудование будет работать синхронно для предотвращения ошибок. Для обеспечения вышеуказанных и была необходимо создать интегрированную систему мониторинга для отслеживания работоспособности сети передачи аэронавигационной информации.

Использованная литература / References

[1] Дмитриев В.Н., Тушнов А. С., Имитационное моделирование системы мониторинга многозвенной сети передачи данных // Вестник АГТУ. Серия: Управление, вычислительная техника и информатика. 2013. №2, стр.41.

[2] Эшмурадов Д. Э., Элмурадов Т. Д., Тураева Н. М. Автоматизация обработки аэронавигационной информации на основе многоагентных технологий //Научный вестник Московского государственного технического университета гражданской авиации. – 2022. – Т. 25. – №. 1. – С. 65-76.

[3] О.К. Альсова. Имитационное моделирование систем. Учебное пособие по дисциплине «Имитационное моделирование информационно-вычислительных систем». Новосибирск, 2015.

[4] Альсова, О.К. Имитационное моделирование систем в среде ExtendSim: учебное пособие для вузов/ О. К. Альсова.— 2-е изд.— Москва: Издательство Юрайт, 2024.— 115 с.— (Высшее образование).

[5] Ким А. И., Тураев М. О. Интеграция автомобильно-транспортных услуг Узбекистана и стран Центральной Азии //Большая Евразия: развитие, безопасность, сотрудничество. – 2020. – №. 3-2. – С. 335-339.

[6] Зайцев Д. А. Моделирование телекоммуникационных систем в CPN Tools / Д. А. Зайцев, Т. Р. Шмелева. - Одесса: Одес. нац. акад. связи им. А. С. Попова, 2008. - 68 с.

[7] Azizov Ozodbek Khurram Ugli, Eshmuradov Dilshod Elmuradovich, Turaeva Nasiba Mirxamidovna Revolutionizing air traffic management: the role of multi-agent systems in improving efficiency and safety // sai. 2023. №A4. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/revolutionizing-air-traffic-management-the-role-of-multi-agent-systems-in-improving-efficiency-and-safety.

[8] Эшмурадов Дилшод Эльмурадович, Джумамуратов Бехзод Акрамджанович, Тураева Насиба Мирхамидовна Перспективы развития аэронавигационных систем // SAI. 2023. №Special Issue 3.

[9] Diego Javier Maldonado Andrade. “Multi-agent Systems: A survey about its components, framework and workflow”. IEEE Access. Jan 2024, p.256-259.

[10] Sandali Goonatilleke, Budditha Hettige. “Past, Present and Future T-rends in Multi-Agent System Technology”. Journal Européen des Systèmes Automatisés. Vol. 55, No. 6, December 2022. 55(6):723-739.

Информация о авторах/ Information about the authors

Turayeva Nasiba Mirxamidovna /	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, mustaqil izlanuvchi, E-mail: t.nasiba@gmail.com Tel: +998971558474 https://orcid.org/0000-0003-4586-7401

Analysis of the essence of financial flows in the supply chain

G.A. Samatov [1][a], M.S. Burikhodjaeva[1][b]
[1]Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: In the context of the reproductive cycle within the supply chain, managing the costs and results of activities of individual enterprises is an urgent scientific task, since it determines the level of competitiveness of enterprises in the domestic economy and their viability in the struggle for the consumer. Logistics, which is a systematic factor in efficiency, and on this basis, the total costs of supply chains of enterprises should be one of the main roles in the environment. In order to effectively manage costs, it will first be necessary to determine the economic content of the Central material and flow and its structure, which is the main purpose of this study.

Keywords: Logistic approach, reproduction process, material flow, economic flow, financial flow, economic transformation, cost accounting, results accounting, analysis of economic transformation

Yetkazib berishlar zanjirida moliyaviy oqimlarning mohiyatini tahlil qilish

Samatov G.A.[1][a], Burixodjayeva M.S.[1][b]
[1]Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Yetkazib berishlar zanjiri tarkibidagi reproduktiv sikl sharoitida alohida korxonalarning xarajatlari va faoliyat natijalarini boshqarish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi, chunki u ichki iqtisodiyotdagi korxonalarning raqobatbardoshlik darajasini va ularning iste’molchi uchun kurashida hayotiyligini belgilaydi. Samaradorlikning tizimli omili bo‘lgan logistika va shu asosda korxonalar yetkazib berish zanjirlarining umumiy xarajatlari atrof-muxitdagi asosiy rollardan biri bo‘lishi kerak. Xarajatlarni samarali boshqarish uchun birinchi navbatda, ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi bo‘lgan markaziy moddiy - oqimning iqtisodiy mazmunini va uning tuzilishini aniqlash kerak bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: Logistik yondashuv, takror ishlab chiqarish jarayoni, moddiy oqim, iqtisodiy oqim, moliyaviy oqim, iqtisodiy transformasiya, xarajatlarni hisobga olish, natijalarni hisobga olish, iqtisodiy transformasiyani tahlil qilish

1. Kirish

Shakllangan yaxlit logistika xududining tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan korxonaning funkstional faoliyatini batafsil tahlil qilish natijasida ishlab chiqarish korxonasi moddiy oqimining iqtisodiy mazmunini o‘zgartirish, yetkazib berishlar zanjiri tuzilishi va ko‘payish sikli tizimidagi qiymatini ifodalashning asosiy shakllari ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Shu asosda xarajatlarning yangilangan tarkibi taqdim etiladi, ulardan hosil bo‘lgan natijalar bilan bir qatorda logistika oqimlarining iqtisodiy o‘zgarishi dinamikada belgilanadi. Korxonada aniqlangan xarajatlar, yo‘qotishlar va samaradorlik ko‘rsatkichlarining tarkibi boshqaruv hisobini tashkil etishning bir qator talablari va xususiyatlarini belgilaydi. Natijada, ushbu tadqiqot shakllanishning dolzarbligini asoslaydi va oddiy, kengaytirilgan yetkazib berishlar zanjiri tarkibidagi yagona siyosat bo‘yicha xarajatlar hisobini tashkil etishdagi asosiy to‘siqlarni aniqlaydi, shuningdek ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlarning asosiy vazifalarini belgilaydi.

Hozirgi vaqtda aniq ehtiyojlarni qondirishga yo‘naltirilgan mahsulotni yaratish jarayonida yuzaga keladigan xarajatlarni boshqarish dolzarb muammo hisoblanadi. Bunday holda, biz nafaqat alohida korxonalarning xarajatlari, balki asosan yetkazib berishlar zanjirlari va natijada reproduktiv sikl tizimidagi xarajatlar to‘g‘risida fikr yuritamiz.

2. Tadqiqot metodikasi

Bunday keng kontekstda xarajatlarni boshqarish zarurati, birinchi navbatda, zamonaviy iqtisodiyotning voqyeliklari bilan bog‘liq: korxonalarning iste’molchilar uchun raqobatbardosh kurashi, iqtisodiyot sohasini tartibga soluvchi qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va tashqi iqtisodiy holat va boshqalar bilan bog‘liq. Ushbu kontekstdagi asosiy rollardan biri, shubhasiz, samaradorlikning tizimli omili bo‘lgan logistika, birinchi navbatda shu asosda ta’minot zanjiri korxonalarining umumiy xarajatlariga tegishli bo‘lishi kerak.

Bunday keng kontekstda xarajatlarni boshqarish zarurati, korxonalarning iste’molchilar uchun raqobat kurashi, iqtisodiy sohani tartibga soluvchi qonun hujjatlari,

[a] https://orcid.org/0009-0007-4122-8406
[b] https://orcid.org/0000-0002-9396-4428

O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va tashqi iqtisodiy holati birinchi navbatda, zamonaviy iqtisodiyotning voqyeliklari bilan belgilanadi. Ushbu kontekstdagi asosiy rollardan biri, shubhasiz, logistikaning o‘zi va shu asosda yetkazib berishlar zanjiri korxonalarining umumiy xarajatlari samaradorligining tizimli omili bo‘lgan logistikaga tegishli bo‘lishi kerak.

Shuni ta’kidlash kerakki, ilmiy adabiyotlarda logistika oqimlarining iqtisodiy o‘zgarishini ko‘rib chiqishga, takror ishlab chiqarish jarayonini tahlil qilish va boshqarishga logistik yondashuvga umuman va unga jalb qilingan xo‘jalik yurituvchi subyektlarning integrasiyasining alohida darajalariga juda kam e’tibor beriladi, ularning asosiysi ishlab chiqarish korxonasidir. Bir nechta fundamental nashrlarni, shu jumladan ushbu masalaga bag‘ishlangan nashrlarni ta’kidlash kerak, shuningdek, bizning fikrimizcha, logistika oqimining iqtisodiy mazmunini chuqur o‘rganish va keyinchalik uning tuzilishini boshqarishni tashkil etish korxonada, yetkazib berishlar zanjirida va reproduktiv sikl tarkibida amalga oshiriladi1.

Logistik yondashuv asosida tashkil etilgan ishlab chiqarish korxonasining faoliyati, birinchi navbatda, korxonaning moddiy oqimlarini texnologik, iqtisodiy o‘zgartirishni o‘z ichiga olgan murakkab tizimli jarayon sifatida qaraladi. Ishlab chiqarish jarayonida texnologik o‘zgarish resurslarni, mehnat obyektlarini tayyor mahsulotga aylantirishdan boshqa narsa emas. Iqtisodiy transformasiya-bu mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida xarajatlarni amalga oshirish va to‘plash, korxona faoliyati natijasini yig‘ish, keyingi yoki ishlab chiqarish iste’moli (xarajatlari) uchun mo‘ljallangan.

Shunday qilib, iqtisodiy transformasiya-bu xarajatlarni (resurslarning iste’mol qilingan qiymatini) yakuniy natijaga (mahsulotning yangi yaratilgan qiymatiga) aylantirishdir.

Korxonaning ishlab chiqarish faoliyatining bunday talqini bizga korxona ichida qiymatni aks ettirishning turli shakllarini aniqlashga imkon beradi. Birinchidan, bu ishlab chiqarish va yakuniy iste’mol sohasida vujudga keladigan va keyingi iste’mol uchun resurslarning maqsadidan dalolat beruvchi qiymatni aks ettirishning resurs shaklidir. Qiymatni aks ettirishning ushbu shakli korxonaning kirish qismidagi material oqimi uchun xosdir. Qiymatni aks ettirishning ikkinchi shakli haqiqiy ishlab chiqarish bosqichida paydo bo‘ladigan va resurslarni iste’mol qilish natijasini, ya’ni tayyor mahsulotni ifodalovchi mahsulot qiymati deb ataladi.

Shuningdek, tovar shakli bu muomala sohasida paydo bo‘ladigan qiymatni ifodalashining oraliq shakli. Yetkazib berishlar zanjirida ushbu shakl zanjirning alohida bo‘g‘inlari: yetkazib beruvchi, firma, vositachi, iste’molchi o‘rtasida material oqimining harakati jarayonida paydo bo‘ladi. Taqdim etilgan qoidalarni tahlil qilish natijasida quyidagilarni ta’kidlash mumkun: moddiy oqimning iqtisodiy mazmuni-bu o‘z faoliyatini amalga oshirish jarayonida logistika zanjirining alohida bo‘g‘inlari tomonidan boshlangan qiymatni ko‘rsatish shakllarining transformasion jarayonlari to‘plamidir.

Logistika zanjirlari kattaroq tuzilishga reproduktiv sikl tarkibiga kiritilgan -bu yerda yuqorida keltirilgan qiymatni aks ettirishning barcha shakllari ham aniqlangan.

Shunday qilib, ko‘paytirish tizimining bo‘g‘ini sifatida korxona uchun ikkita oqimni kuzatish muhim vazifaga aylanadi: sarflangan xarajatlar oqimi va yaratilgan natijalar oqimi. Xarajatlar oqimi tarkibini aniqlash "xarajatlar" kabi sinonim ko‘rinadigan toifalarni ajratishni talab qiladi.

[19] КАДЫРОВ, И. ЦЕОЛИТСОДЕРЖАЩИЕ ПОРОДЫ УЗБЕКИСТАНА И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ В ЦЕМЕНТНЫХ КОМПОЗИТАХ. Р е ц е н з е н т ы: генеральный директор РУП «Гомельавтодор» СН Лазбекин; д-р техн. наук, профессор АК Головнич (БелГУТ), 42.

[20] Адилходжаев, А. И., Игамбердиев, Б. Г., & Сон, Д. О. (2024). К ВОПРОСУ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ

НЕКОНДИЦИОННОГО СЫРЬЯ ПРИ ПРОИЗВОДСТВЕ КЕРАМИЧЕСКИХ КИРПИЧЕЙ. Universum: технические науки, 2(7 (124)), 18-22.

[21] Адилходжаев, А. И., Кадиров, И. А., Азимов, Д. Т., & Кудратов, Б. Ш. (2023). НЕКОТОРЫЕ АСПЕКТЫ ТЕХНОЛОГИИ НЕПРЕРЫВНОГО БЕЗОПАЛУБОЧНОГО ФОРМОВАНИЯ ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ ИЗДЕЛИЙ. In Актуальные проблемы современной науки, техники и образования (pp. 17-17).

[22] Адилходжаев, А., Шаумаров, С., & Кандахаров, С. (2022). IMPROVING THE PHYSICAL AND MECHANICAL CHARACTERISTICS OF STRUCTURAL AND HEAT-INSULATING AERATED CONCRETE. Научный журнал транспортных средств и дорог, 2(2), 131-136.

Information about the authors

Adilxodjayev Anvar Ishanovich	Toshkent davlat transport universiteti “Bino va sanoat inshootlari qurilishi” kafedrasi professori t.f.d., E-mail: anvar_1950@mail.ru Tel.:+9989339831926 https://orcid.org/0000-0001-5729-5178
Kadirov Ilhom Abdullayevich	Toshkent davlat transport universiteti “Bino va sanoat inshootlari qurilishi” kafedrasi dotsent PhD, E-mail: ilhom.kadirov.1990@mail.ru Tel.:+9989973306119 https://orcid.org/0000-0003-3924-0864
Kudratov Bekzod Sherzodovich	Toshkent davlat transport universiteti “Bino va sanoat inshootlari qurilishi” kafedrasi tayanch doktoranti, E-mail: kudratov_bekzod@mail.ru Tel.:+998933983047 https://orcid.org/0000-0003-2603-1334
Azimov Doniyor To‘ychi o‘g‘li	Toshkent davlat transport universiteti “Bino va sanoat inshootlari qurilishi” kafedrasi dotsent PhD, E-mail: Stalker.d12@gmail.com Tel.:+998974209688 https://orcid.org/0000-0002-2015-9663

Study of the effect on the amount of cargo flow between Uzbekistan and Kyrgyzstan by the method of multiple regression

I. Khurramov[1][a] , X. Umarov[1][b], J. Azimov[1][c]
[1]Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: The main goal of the work is to identify the factors affecting the speed of freight trains and systematize them. Factors affecting the established technical standards of freight train movement speed on railway sections and routes were analytically analyzed and their impact levels on the performance of the main indicators of the train movement schedule were determined. As a result, the "Ishikawa" scheme for determining the factors affecting the speed of freight trains was developed. The random factors affecting the speed of freight trains on the section and route were classified in terms of levels and tasks of their systematization were proposed.

Keywords: Railway section and route, section speed, route speed, train movement schedule, factor, station

O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi yuk oqimi miqdoriga ko‘p regressiya usuli bilan ta’sirini o‘rganish

Khurramov I.[1][a], Umarov X.[1][b], Azimov J.[1][c]
[1]Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Ishdan asosiy maqsad yuk poyezdlari harakat tezliklariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlash va ularni tizimlashtirishdan iborat. Temir yo‘l uchastka va yo‘nalishlari bo‘yicha yuk poyezdlari harakat tezliklarining o‘rnatilgan texnik me’yorlariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar analitik tahlil qilindi hamda ularning poyezdlar harakati grafigi asosiy ko‘rsatkichlari bajarilishiga ta’sir darajalari aniqlandi. Natijada yuk poyezdlari harakat tezliklariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarini aniqlashning “Isikava” sxemasi ishlab chiqildi. Yuk poyezdlari uchastka va marshrut tezliklariga ta’sir ko‘rsatuvchi tasodifiy omillar darajalar kesimida tasniflandi va ularni tizimlashtirish vazifalari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: Temir yo‘l uchastkasi va yo‘nalishi, uchastka tezligi, marshrut tezlik, poyezdlar harakati grafigi, omil, stansiya

1. Kirish

Mamlakatimiz uchun transport koridorlarini rivojlantirish, jahon bozorlariga tez va erkin chiqish juda muhim shu bois transport koridorlarni rivojlantirish mamlakatimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Transport davlatning ishlab chiqarish infratuzilmasining eng muhim elementi bo’lib, milliy va jahon iqtisodiyotining rivojlanishini ta’minlaydi va ijtimoiy ishlab chiqarishning real sektorini boshqarish sub’ektlarining rolini kuchaytirishning zamonaviy tendentsiyalarini aks ettiradi.

Ushbu strategiyada noaniqlik va xavf ostida yuk aylanishini prognoz qilish muhim rol o’ynaydi. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko’rsatadiki [1,2,5,6], transport oqimining prognozini modellashtirish uchun asosan ikkita usul qo’llaniladi – korrelyatsion-regressiya tahlili va prognozli ekstrapolyatsiya usuli.

Birinchi usul korrelyatsion-regressiya tahlili korrelyatsion va regressiya tahlili usullari yoki omillarga bog’liqlikni o’rganishning boshqa statistik usullari bilan omillarni o’zgarish dinamikasi sabab-ta’sir mexanizmini rasmiylashtiradigan matematik modelni shakllantirishni nazarda tutadi. Birinchi usulni barqaror iqtisodiy sharoitlarda va transport oqimini qisqa muddatli prognozlashda qo’llash maqsadga muvofiqdir [7,8].

2. Tadqiqot metodikasi

Biz matematik model tuzish maqsadida iqtisodiy ko‘rsatkichlarning O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi yuk oqimi miqdoriga ko‘p regressiya usuli bilan ta’sirini o‘rganamiz.

3. Natija va muhokamalar

O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi yuk oqimini regressiya tahlili uchun quyidagi omillar ko‘rib chiqildi

[a] https://orcid.org/0000-0001-7747-9863
[b] https://orcid.org/0000-0003-0397-2780
[c] https://orcid.org/0000-0002-0859-3184

[3,4]:

- O‘zbekiston YAIM qiymati omili – X_1;
- Qirg‘iziston YAIM qiymati omili – X_2;
- O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi yuk oqimi ko‘rsatkichi - Y_t

O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi yuk oqimi ko‘rsatkichiga X_1, X_2, omillarining ta’sirini o’rganish va ular orasidagi korrellatsion bog’lanishni tahlil qilish, hamda regression modellar qurish masalasini ko’rib chiqamiz.

X_1, X_2 ta’sir omillarini ko‘rib chiqilayotgan statistik ma’lumotlari o‘rtasidaga bog‘liqlik mavjudligini miqdoriy baholash va tanlab olingan omillar yuk oqimiga bog‘liqligini sonli ko‘rsatkich bilan aniqlash imkonini beradi. Bu quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$r_{xy} = \frac{\sum(x_i - \bar{x}) \cdot (y_{1_i} - y_1)}{\sqrt{\sum(x_i - x)^2 \cdot \sum(y_{1_i} - \bar{y}_1)^2}}. \qquad (1.1)$$

bu yerda: X namunasida olingan qiymatlar;
y_1 - X uchun o‘rtacha qiymat;
$\bar{x}$ – X uchun o‘rtacha qiymat;
$\bar{y}_1$ – Y uchun o‘rtacha qiymat.

Buning uchun dastlab yuqoridagi ko’rsatkichlarning korrellatsiya koeffisentlarini hisoblaymiz. Regressiya tahlili uchun yillar bo‘yicha omillar statistikasi 1.1-jadvalda keltirilgan.

1.1-jadval

Regressiya tahlili uchun yillar bo‘yicha omillar statistikasi

№	Yil	X_1, mlrd. doll. AQSH	X_2, mlrd. doll. AQSH	Y_t - O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasida yuk oqimi, mln. ton.
1	2017	62,08	7.70	0.8
2	2018	52.87	8.27	1.2
3	2019	60.28	9.37	1.3
4	2020	60.22	8.27	1.2
6	2021	69.6	9.24	1.6
7	2022	80.39	11.54	2.0
8	2023	90.9	13.7	1.4

O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi yuk oqimi ko‘rsatkich Y_t va X_1 omil uchun korrelyatsiya koeffitsienti $r_{xy1} = 0.828$ huddi shunday Y_t va X_2 uchun korrelyatsiya koeffitsienti $r_{xy2} = 0.863$ aniqlandi. Olingan korrelyatsiya taxlillari natijalarni olib shuni xulosa qilash mumkinki O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi yuk usish hajmi O‘zbekiston va Qirg‘iziston yalpi ichki maxsulotining o‘sish ko‘rsatkichlariga bog‘liq.

O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi yuk oqimining ko‘p omilli regressiyasining umumiy tenglamasi quyidagicha:

$$Y_t = \alpha_0 + \alpha_1 X_1 + \alpha_2 X_2 + \alpha_t. \qquad (1.1)$$

bu yerda α_0, α_1, α_2 va – regressiya koeffitsientlari.

Tenglamaning noma’lum koeffitsientlarini matritsa usuli bilan aniqlaymiz:

$$A = (X^T \cdot X)^{-1} \cdot X^T \cdot Y_t, \qquad (1.2)$$

bu yerda A – regressiya tenglamasi koeffitsientlarining ustun vektori;
X^T – transpozitsiyalangan matritsasi;
X – n - qatorlar va (k) X_1, X_2, ta’sir qiluvchi ma’lum omillar ustunlarining o‘lchamlari matritsasi;
Y_t o‘lchovli kuzatuvlar vektori – ustuni (bu yerda n = 7 ga teng kuzatuvlar soni; k - 2 ga teng ta’sir qiluvchi omillar soni).

Matritsalarni tuzamiz.

$$X = \begin{Bmatrix} 1 & 62.08 & 7.70 \\ 1 & 52.87 & 8.27 \\ 1 & 60.28 & 9.37 \\ 1 & 60.22 & 8.27 \\ 1 & 69.60 & 9.24 \\ 1 & 80.39 & 11.54 \\ 1 & 90.9 & 13.7 \end{Bmatrix}; \; Y_t = \begin{Bmatrix} 0.8 \\ 1.2 \\ 1.3 \\ 1.2 \\ 1.6 \\ 2.0 \\ 1.4 \end{Bmatrix}$$

Keyin transpozitsiyalangan matritsani tuzamiz:

$$X^T = \begin{Bmatrix} 1 & 1 & 1 & 1 & 1 & 1 & 1 \\ 62.08 & 52.87 & 60.28 & 60.22 & 69.60 & 80.39 & 90.9 \\ 7.70 & 8.27 & 9.37 & 8.27 & 9.24 & 11.54 & 13.7 \end{Bmatrix}$$

E’tibor bering, $|X^T \cdot X|$ matritsaning determinanti $1{,}031 \cdot 10^{21}$ ga teng, ya’ni matritsa ($X^T \cdot X$) xato emas.

A matritsa elementlarining hisoblangan qiymatlaridan foydalanib, biz regressiya tenglamasini yozamiz:

$$Y_t = 2.77 + 0.0526 \cdot X_1 + 2.17 \cdot X_2 \qquad (1.3)$$

Olingan regressiya tenglamasining ahamiyatli ekanligini Fisherning F mezoniga (F - mezon) muvofiq tekshiramiz. Buning uchun regressiya teglamasi ahamiyatsiz, ya’ni barcha koeffetsiyentlar nolga tengligi haqidagi H_0 gipoteza tekshiriladi. Quyidagi mezonni kiritamiz:

$$F_{his} = \frac{\frac{1}{k} \cdot Q_R}{\frac{1}{n-k-1} \cdot Q_{\text{ост}}}. \qquad (1.4)$$

H_0 gipotezani tekshirish uchun (1.4) statistik mezondan foydalanamiz, ma'lumki bu tasodifiy miqdor erkinlik darajasi (k) va (n – k-1) bo’lgan F taqsimotiga ega.
Bu yerda
k – omillar soni, bizning holda 2 ga teng;
Q_R - og‘ish kvadratlarining yig‘indisi;
n – kuzatuvlar soni;
Q_{ost} - kuzatuv natijalarining og‘ish kvadratlari yig‘indisi.

$$Q_R = \sum_{i=1}^{n} (Y_t)^2, \qquad (1.5)$$

$$Q_{ost} = \sum_{i=1}^{n} (Y_t - \hat{Y}_t)^2. \qquad (1.6)$$

Fisher taqsimotining qiymatlar jadvalidan erkinlik darajasi (k) va (n – k-1) bo’lgan F_{krit} -qiymat topiladi. Gipotezani tekshirish qoidasiga ko’ra, agar $F_{his} > F_{krit}$ bo’lsa H_0 gepoteza rad etiladi. Aks holda H_0 gepotezani rad etishga asos yo’q deyiladi. Demak agar $F_{his} > F_{krit}$ tengsizlik o’rinli bo’lsa topilgan regressiya tenglamasi statistik ahamiyatli deyiladi, aks holda tenglama ahamiyatsiz bo’ladi. Agar regressiya tenglamasi ahamiyatsiz bo‘lsa, ya’ni tenglamaning barcha koeffitsientilari nolga

teng bo‘lsa, unda regressiya tenglamasini tahlil qilish mantiqiy emas. Regressiya tenglamasi uchun hisob-kitobni 1.2-jadvalga kiritamiz.

1.2-jadval

***F* - mezon bo‘yicha regressiya tenglamasining ahamiyatini tekshirish**

№	X_1	X_2	Y_t	$\hat{Y}_t$	$\hat{Y}_t^2$	$(Y_t - \hat{Y}_t)^2$
1	62.08	7.703	0.8	7.70	60.37	47.61
2	52.87	8.271	1.2	8.27	66.42	49.98
3	60.28	9.371	1.3	9.37	76.74	65.12
4	60.22	8.27	1.2	8.27	72.93	49.98
5	69.6	9.249	1.6	9.24	98.01	58.36
6	80.39	11.54	2.0	11.54	128.37	91.01
7	90.9	13.7	1.4	13.7	111.94	151.29
Q_R= 614.78		Q_{ost}= 513.35				

Ahamiyatlilik darajasida 0,05 bo‘lganda *F* – mezon bo‘yicha regressiya tenglamasining ahamiyatini, ya’ni nol gipotezani ushbu ifoda bo‘yicha tekshiramiz.

$$F_{his} = \frac{\frac{1}{2} \cdot 614.78}{\frac{1}{7-2-1} \cdot 513.35} = 22.71$$

F - taqsimot jadvaliga ko‘ra 0,05 ahamiyatlilik darajasi va 3 va 4 erkinlik darajalari uchun biz kritik qiymatni topamiz: F_{krit} (0.05; 3; 4)= 6.59 ga teng. Yuqorida takidlaganligidek $F_{his} > F_{krit}$ bo‘lganligi sababli H_0 gipotezasi rad etiladi. Olingan regressiya tenglamasi ahamiyatga ega.

Topilgan regressiya tenglamasini omillari oldiga koeffitsientlarining statistik ahamiyatli ekanligini tekshirish uchun Stuyudentning *t* testidan foydalanamiz.

t -mezonga ko'ra, ko'rsatkichlarning tasodifiy tabiati, ya'ni ularning noldan ahamiyatsiz farqi to'g'risida H_0 gipotezasi ilgari suriladi. Keyinchalik, baholangan $t_{факт}$ korrelyatsiya koeffitsienti uchun r_{xy} mezonining haqiqiy qiymatlari ularning qiymatlarini standart xato qiymatiga moslashtirish orqali hisoblanadi.

$$t_b = \frac{b}{m_b}; \quad t_a = \frac{a}{m_a}; \quad t_r = \frac{r_{xy}}{m_{r_{xy}}}.$$

Chiziqli regressiya va korrelyatsiya koeffitsienti parametrlarining standart xatolari quyidagi formulalar bilan aniqlanadi:

$$m_b = \sqrt{\frac{\sum(y-\hat{y}_x)^2/(n-2)}{\sum(x-\bar{x})^2}} = \sqrt{\frac{S_{ocm}^2}{\sum(x-\bar{x})^2}} = \frac{S_{ocm}}{\sigma_x\sqrt{n}};$$

$$m_a = \sqrt{\frac{\sum(y-\hat{y}_x)^2}{(n-2)} \cdot \frac{\sum x^2}{n\sum(x-\bar{x})^2}} = \sqrt{S_{ocm}^2 \frac{\sum x^2}{n^2\sigma_x^2}} = S_{ocm}\frac{\sqrt{\sum x^2}}{n\sigma_x};$$

$$m_{r_{xy}} = \sqrt{\frac{1-r_{xy}^2}{n-2}}.$$

Styudentning t –statistikasining haqiqiy va kritik (jadval) qiymatlarini taqqoslash natijasida, ya’ni t_{kr} va t_{his} qiymatlarni taqqoslab H_0 gipotezasini qabul qilanadi yoki rad etiladi.

t_{kr} - qiymat berilgan erkinlik darajasi $k = n-2$ da *va* ahamiyatlilik darajasi $\propto da$ tasodifiy omillar ta'sirida mezonning mumkin bo’lgan eng katta qiymati.

Fisherning *F* -mezoni ($k = 1; m = 1$) va *t* – Styudent mezoni o’rtasidagi bog’liqlik quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$t_r^2 = t_b^2 = t_r^2 = \sqrt{F}$.

Agar $t_{табл} < t_{факт}$ bo'lsa, u holda H_0 rad etiladi, ya'ni a, b va r_{xy} koeffitsientilarni noldan farq qilishi tasodifiy emas va omillarni tizimli ta'siri ostida hosil bo'ladi. Agar $t_{табл} > t_{факт}$ bo'lsa, H_0 gipoteza rad etilmaydi va a, b yoki r_{xy} koeffitsientilar tasodifiy xarakterga ega.

4. Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston va Qirg‘iziston o‘rtasidagi yuk oqimi yildan yilga oshib bormoqda va bog’liklik borligi va ma’lumotlar ishonchliligi namoyon bo’ldi. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari bilan ham o‘rtasidagi yuk oqimi modellarini ishlab chiqish zarur.

Foydalangan adabiyotlar / References

[1] Умаров Х. К., Свинцов Е. С. Математическая модель по прогнозированию грузопотока Китая и Южной Кореи между Центральной и Южной Азией //Вестник Ростовского государственного университета путей сообщения. – 2017. – №. 2. – С. 69-75.

[2] Официальный сайт по статистические данные [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.stat.gov.kz// (дата обращения 16.08.2024).

[3] Эконометрика: лабораторный практикум/ Н. И. Шанченко – Ульяновск: УлГТУ, 2004. – 79 с.

[4] Эконометрика: учеб. / под ред. И. И. Елисеевой. — М. Э40 Проспект, 2009. — 288 с.

[5] Umarov X.K., Xurramov I.R. Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasida halqaro temir yo‘l koridorini loyihalashda texnik normalar farqlarini tahlili “Standart” ilmiy-texnik jurnali. №2 – 2023 y. – 55-57 b

[6] Ефимова, М.Р. Практикум по общей теории статистики: учеб пособие. / М.Р. Ефимова, О.И. Ганченко, Е.В. Петров / 3-е изд. – М. : Финансы и статистика, 2007. – 352 с.

[7] Umarov K. et al. Mathematical model for prediction of cargo flow during the construction of the railway line Uzbekistan-Kyrgyzstan–China //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 401. – С. 03018.

[8] Официальный сайт по статические данные [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://www.stat.uz// (дата обращения 10.08.2024).

Mualliflar to‘g‘risida ma’lumot/ Information about the authors

Xurramov Islom Ravshan o‘g‘li	Doktorant, Toshkent davlat transport universiteti, Temir yo‘l muhandisligi kafedrasi. E-mail: xurramovislom219@gmail.com Tel.:+998903497533 https://orcid.org/0000-0001-7747-9863
Umarov Xasan Kobilovich	PhD, dotsent, Toshkent davlat transport universiteti, Temir yo‘l muhandisligi kafedrasi. E-mail: janobhuk@mail.ru Tel.:+998904434914 https://orcid.org/0000-0003-0397-2780
Azimov Jaxongir Baxramovich	PhD, dotsent, Toshkent davlat transport universiteti, Oliy matematika kafedrasi. E-mail: azimovjb@gmail.com Tel.:+998977441564 https://orcid.org/0000-0002-0859-3184

Study of the influence of modifier on the physical and mechanical properties of sulfur composite material

U.A. Ziyamukhamedova[1][a], F.N. Nurqulov [2][b], A.B. Djumabaev[1][c] , J.H. Nafasov[1][d], E.T. Turgunaliev[1][e] , M.U. Rustamov[3][f]

[1]Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan
[2]Tashkent Scientific Research Institute of Chemical Technology, Tashkent, Uzbekistan
[3]Worker at "Industrial Energy Group" LLC, Mubarak, Uzbekistan

Abstract: This article discusses the improvement of the physical, mechanical and operational properties of composite materials modified with sulfur binder plasticizers used in the modern construction industry. The influence of plasticizers on the fire-resistant properties of composite materials has also been studied. In addition, based on an in-depth analysis of the literature, the importance of the type and size of fillers and their mixing technology in the formation of a structure with low porosity of a sulfur-binding composite material was studied. The article discusses in detail the method of obtaining a stable sulfur-binding composite material, preparing a solid filler, soaking the filler in an organic modifier, wetting and heating the filler with the modifier, mixing it with elemental sulfur and cooling. with the formation of a solid product.

Keywords: Sulfur concrete, modification, fiberglass, flint, dispersed aggregate, mechanical properties, flammability, thermal conductivity

Modifikatorning oltingugurt kompozit materialning fizik-mexanik xususiyatlariga ta'sirini o'rganish

Ziyamuxamedova U.A.[1][a], Nurqulov F.N. [2][b], Djumabayev A.B. [1][c], Nafasov J.H.[1][d], Turg'unaliyev E.T.[1][e], Rustamov M.U.[3][f]

[1]Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O'zbekiston
[2]Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti, Toshkent, O'zbekiston
[3]Sanoat Energetika Guruhi MChJ XK Muborak XIChK, Muborak, O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy qurilish sanoatida foydalaniladigan oltingugurt bog'lovchili plastifikatorlar bilan modifikasiyalangan kompozit materiallarning fizik, mexanik va ekspluatasion xaossalarini yaxshilash haqida so'z boradi. Shuningdek plastifikatorlarning kompozit materiallarning olovbardoshlik xossalariga ta'siri tadqiq qilingan. Bundan tashqari adabiyotlarning chuqur tahlili asosida oltingugurt bog'lovchili kompozision materialning g'ovakliklari kam bo'lgan struktura xosil qilishda to'ldiruvchilarning turi, o'lchamlari va ularni aralashtirish texnalogiyasining axamiyati o'rganilgan. Maqolada barqaror oltingugurt bog'lovchili kompozision material olish usuli qattiq to'ldiruvchini tayyorlash, to'ldiruvchini organik modifikatorga shimdirish, modifikator bilan to'ldiruvchini namlash va qizdirish, uni oltingugurt elementi bilan aralashtirish va qattiq mahsulot shakllanishi uchun sovutish jarayonlari mukammal yoritilgan.

Kalit so'zlar: Oltingugurt beton, modifikatsiyalash, shisha tola, chaqiqtosh, dispers to'ldiruvchi, mexanik xossa, yonuvchanlik, issiqlik o'tkazuvchanlik

1. Kirish

Texnologiyaning rivojlanishi bilan kamchiliklarning aksariyati yo'q qilindi. Shunday qilib, oltingugurtli bog'lovchi plastifikatorlar (xususan, polisudfidlar) qo'shilishi nafaqat qotishmaning plastik xususiyatlarini oshirishga, balki yoriqlarni kamaytirishga yordam beradi va disiklopentadin shaklidagi qo'shimchalar ushbu qurilish materiallarining yong'inga bardoshliligini oshiradi [1-3].

[a] https://orcid.org/0000-0001-5005-0477
[b] https://orcid.org/0000-0002-6546-3431
[c] https://orcid.org/0000-0001-5005-0477
[d] https://orcid.org/0000-0002-0415-2584
[e] https://orcid.org/0000-0003-3257-5434
[f] https://orcid.org/0009-0008-1440-5988

Oltingugurt tarkibli betonlarning xossalari bu hozirgi vaqtda juda batafsil o‘rganilgan uning ichki tuzilishining natijasidir [4]. To‘ldiruvchi qo‘shilmasdan oltingugurt bir hil tuzilishga (gomogen) ega bo‘lgan modda bo‘lib, bu undagi molekulalarning bir-biriga nisbatan zich joylashishini anglatadi. To‘ldiruvchining mavjudligida oltingugurt molekulalari to‘ldiruvchi molekulalarini "biriktirib" o‘rganiladigan bog‘lovchini ichki bo‘shliqlarini shunday to‘ldiradiki undagi g‘ovaklik deyarli sezilmaydi (hatto mikroskop ostida ham). Oltingugurt tarkibli betonlardagi g‘ovaklikning kichikligi ko‘p jihatdan uni qo‘llanilish sohalariga bog‘liq [5]. Bu chiqindilarni saqlash, chiqindi suv kollektorlari va boshqa inshootlar uchun asosiy material sifatidagi oltingugurt tarkibli betondan foydalanish bilan bog‘liq.

Oltingugurtli beton ishlab chiqarishda asosiy texnologik parametr - bu oltingugurtli eritmaning qovushqoqligidir, chunki u mineral to‘ldiruvchilarni bir hil massa hosil qilish layoqiyati kabi texnologik xossalarni belgilaydi. Ma’lumki, kompozitsion qurilish materiallarida to‘ldiruvchi bog‘lovchi bilan takomillashgan solishtirma yuzasi xisobiga sezilarli darajadagi maydonda aloqaga kirishadi [6].

Bog‘lovchi va mineral to‘ldiruvchining o‘zaro ta’sirining birinchi bosqichida mineral to‘ldiruvchilar yuzasi va o‘ta mayda to‘ldiruvchilar yuzalarini namlash amalga oshiriladi. Shuning uchun, oltingugurtli betonlarni olishda asosiy struktura hosil qilish to‘ldiruvchini eritilgan oltingugurtni bilan aralashtirish bosqichida sodir bo‘ladi. Bunda oltingugurtni sovutish jarayonida mineral to‘ldiruvchi yuzasida bir hil kristallar hosil bo‘ladi, ularning o‘lchamlari to‘ldiruvchisiz oltingugurt miqdoridagiga nisbatan ancha past bo‘ladi [7]. Optimal darajada to‘ldirish darajasida deyarli barcha oltingugurt bir jinsli nozik kristalli holatga o‘tadi. Oltingugurt kristallarini kamayishi na nafaqat oltingugurtli bog‘lovchining mustahkamligini oshirishini belgilaydi. To‘ldiruvchi donalari atrofida optimal qalinlikdagi plyonka hosil bo‘ladi.

Saudiya Arabistonida oltingugurt-qum-bitum aralashmasidan yo‘l-qurilish ishlari uchun qo‘llaniladigan materiallar, ishchi kuchi va asbob-uskunalarning taxminiy xarajatlari bo‘yicha foydalanish an’anaviy asfaltbetonga nisbatan mablag‘larning 60 foiziga tejash imkonini berdi. Ba’zi Yevropa mamlakatlarida oltingugurtning narxi biroz yuqori bo‘lsada, yaxshi sifatga ega to‘ldiruvchilar mavjud bo‘lmagan joylarda oltingugurt-qum-bitum aralashmalaridan foydalanish o‘zining juda yaxshi samarasini beradi [8-9].

2. Tadqiqot metodikasi

Oltingugurt beton aralashmasini tayyorlash usulida 160 °C gacha oldindan qizdirilgan 10 mm qalinlikdagi chaqiqtosh, 3 mm yiriklikdagi qumdan iborat to‘ldiruvchilar aralashmasi qizdirilgan majburiy xarakatlanuvchi beton qorgichga solinadi, aralashtiriladi, 160 °C xaroratgacha qizdirilgan oltingugurt aralashmasi, yod modifikatori qo‘shiladi va aralashtiriladi, olingan qorishma shakllarga yoki beton joylagichga tushiriladi. Oltingugurt beton aralashmasining tarkibi og‘irligiga nisbatan quyidagicha bo‘ladi: bazalt chiqiti to‘ldiruvchisi chaqiqtosh 31,65-44,26+qum 24,07-33,64%. Ularni 1-2 daqiqa 160°S haroratda aralashtiriladi. Bog‘lovchi tarkibi oltingugurt 13,550-27,13, yod 0,005-0,01, to‘ldiruvchi - IES kuli 8,545-17,14. Bog‘lovchi va to‘ldiruvchi aralashmalari 160 °C haroratda 2-3 daqiqa aralashtiriladi.

Barqaror oltingugurt bog‘lovchili kompozitsion material olish usuli qattiq to‘ldiruvchini tayyorlash, to‘ldiruvchini organik modifikatorga shimdirish, modifikator bilan to‘ldiruvchini namlash va qizdirish, uni oltingugurt elementi bilan aralashtirish va qattiq mahsulot shakllanishi uchun sovutishni o‘z ichiga oladi [10-11]. Ixtiro barqaror va yuqori mustahkam oltingugurtli kompozit materiallarni olish imkonini beradi.

Barqaror oltingugurt bog‘lovchili kompozitsion material olish usuli quyidagi operatsiyalarni o‘z ichiga oladi:

- mineral to‘ldiruvchilar, zola, kremniy qumi, sanoat ishlab chiqarishning ikkinchi darajali maxsulotlari kombinatsiyasidan tashkil topgan guruxdagi qattiq to‘ldiruvchilarni tayyorlash;
- to‘ldiruvchini shimdirish maqsadida tayyorlangan gazoil va katalitik kreking qoldig‘i tarkibiga ega to‘q neft yog‘i bilan to‘ldiruvchini organik modifikatorga shimdirish;
- oltingugurt bilan to‘ldiruvchi yuzasini faollashtirish maqsadida modifikator bilan to‘ldiruvchini namlash va qizdirish;
- kukun shaklidagi maydalangan qattiq yoki erigan elementar oltingugurt modifikatorga shimdirilgan to‘ldiruvchiga qo‘shiladi;
- ixtiyoriy qattiq oltingugurt erish uchun yetarli darajada bo‘lgan haroratda modifikatorga shimdirilgan to‘ldiruvchini elementar oltingugurt bilan biriktirish uchun alashtiriladi;
- suyuq aralashma qattiq maxsulot shaklini olunga qadar sovutiladi.

Oltingugurtli betonni tayyorlash uchun texnik oltingugurt, oltingugurt birikmali chiqindilar ishlatilishi mumkin [12]. Inert to‘ldiruvchi va to‘ldirgichlar sifatida zich tog‘ jinslari, sun’iy va tabiiy g‘ovak materiallar, ishlab chiqarish chiqindilari (tog‘ va cho‘kindi jinslarning maydalanish donalari) ishlatiladi [13-14].

Oltingugurtli bog‘lovchilarni ishlab chiqarish texnologiyasi sement ishlab chiqarish texnologiyasiga qaraganda ancha sodda va arzon xisoblanadi. Oltingugurtli bog‘lovchilarni ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqarishni rivojlantirish natijalariga ko‘ra, sementli an’anaviy usullarga nisbatan quyidagi ko‘rsatkichlarga ega: energiya sarfi 1,5-2 baravar kamayadi; ishlab chiqarishning ekologik xavfsizligi oshiriladi; ishlab chiqarishni tashkil etish uchun kapital xarajatlar 40-50 % ga kamayadi; chiqindilarsiz ishlab chiqarishga erishiladi; tannarx 1,5-2 marotaba kamayadi;

- saqlash muddati sezilarli darajada oshiriladi (deyarli cheklovlarsiz).

3. Natija va muhokama

Oltingugurt tarkibli bog‘lovchilar asosidagi beton materiallarni yong‘inbardoshligi va xossalarni oshirish uchun polimer modifikatorlar taklif etilib ularni optimal sharoitlari hamda fizik-mexanik xususiyatlarni tadqiq etildi.

Ma’lumki, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatida innovatsiyalarning qiymati va iqtisodiy samaradorligi bir vaqtning o‘zida ulardan foydalanish natijasida bir vaqtning o‘zida hal qilish mumkin bo‘lganda doimo ortadi [15]. Oltingugrt tarkibli bog‘lovchilar asosidagi betonlar o‘zining kichik suv shimuvchanligi va suv o‘tkazuvchanligi, kichik muddatlarda o‘z shaklini saqlashi va mustaxkamlikka erishishi, korroziyaga yuqori

chidamliligi bilan oddiy og‘ir betonladan ajralib turadi. Shu bilan birga oltingugrt tarkibli bog‘lovchilar asosidagi betonlarning ishlatiish jabxalarini cheklaydigan ma’lum salbiy xossalari mavjud bo‘lib bu ulardagi kichik xaroratga (140 ^{o}S), termik chidamliligi va ishlab chiqarishdagi yuqori zaharlilik xisoblanadi [16-19]. Oltingugrt tarkibli bog‘lovchilar asosidagi betonlaridagi asosiy kamchiliklarni bartaraf etish, ularning ishlatilish jabxalarini kengaytirish, ulardan konstruktiv materiallar olish maqsadida mualliflar tomonidan MB-100 markali modifikatorlar asosida olovbardosh oltingugurt tarkibli betonlar ishlab chiqildi (1 va 2 jadvallar).

Oltingugurt tarkibli bog‘lovchilar asosidagi betonlar tayyorlash texnologiyasi kuyidagicha amalga oshiriladi: yirikligi 4-5 mm bulgan kum, 10-50 mm yiriklikdagi chakiktosh, kerakli mikdordagi oltingugurt va MB-100 markali yonuvchanlik hamda mexanik xossalarni yaxshilovchi modifikatorlar mqo‘shilib 1130-170 ^{o}C xaroratda kizdiriladi va xona xaroratida sovutiladi [20-21]. Oltingugurt tarkibli bog‘lovchilar asosidagi tayyorlangan betonlarning tarkibi 1–jadvalda keltirilgan.

1–jadval

Modifikatsiyalangan oltingugurt asosidagi betonlarning optimal tarkibi

T.r	Tarkiblar	Namunalar tarkibi, %		
		Etalon	MB-100 markali modifikator asosidagi beton	An’anaviy modifikator asosidagi beton
1	Chakiktosh	40	35	35
2	Otingugurt	30	36	30
3	Kum	30	23	25
5	MB-100 markali modifikator	-	6	-
6	Pirilaks	-	-	10

2–jadval

MB-100 markali modifikator asosida tayyorlangan oltingugurt betonlarning xossalari

T.r	Kursatkichlar nomi	Etalon	MB-100 markali modifikator	Pirilaks asosidagi beton namunasi
1	Zichligi, kg/m^3	2200	2140	2200
2	Siqilishdagi mustaxkamlik darajasi, MPa	62	63	58
3	Egilishdagi mustaxkamlik darajasi, MPa	12	12	10
4	Mustaxkamlikni ta’minlash vakti, soat	1,1	1,1	1,1
5	Issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsienti	0,08	0,08	0,08
6	Kimyoviy chidamlilik -kislota, ishkor va tuzlarga	85	85	85
7	Yonuvchanlik guruxi	III	II	II

Tanlanilgan tarkiblar buyicha MB-100 markali modifikator optimal mikdorini aniqlash bo‘yicha amaldagi me’yoriy xujjatlar talablari asosida ularning fizik-mexanik, kimyoviy va teplofizik xossalari aniqlanildi (2–jadval).

Oltingugurt tarkibli bog‘lovchilar asosidagi betonlarning amaldagi me’yoriy xujjatlar asosida fizik-mexanik, kimyoviy va teplofizik xossalari aniqlanildi (2–jadval). MB-100 markali modifikator yonuvchanlik darajasini pasaytiruvchi tarkiblar asosida tayyorlangan oltingugurt tarkibli bog‘lovchilar asosidagi betonlarning zichligi tarkibga ma’lum mikdorda kushimchalar kiritilishi xisobiga taxminan 1,5-2% ga kamayishiga erishildi.

MB-100 markali modifikator markali yonuvchanlikni kamaytiruvchi qo‘shimchalar asosidagi oltingugurt tarkibli betonlarni kimyoviy chidamlilik bo‘yicha an’anaviy oltingugurt tarkibli betonlar kimyoviy chidamliligidan o‘zgarishlar kuzatilmadi. Oltingugurt tarkibli bog‘lovchilar asosidagi betonlar tarkibiga ularni yonuvchanlik darajasini pasaytirish maksadida qo‘shilgan MB-100 markali modifikator betonlarning fizik-mexanik, kimyoviy xossalarini deyarli o‘zgartirmagan holda teplofizik xossalarini ortishiga materialni yonuvchan guruxdan qiyin yonuvchan guruxga o‘tkazilishiga erishildi.

4. Xulosa

Yonuvchanlikni kamaytiruvchi MB-100 markali modifikator qo‘shimchalar asosida tayyorlangan oltingugurt tarkibli betonlarning siqilish va egilishdagi mustaxkamlik ko‘rsatkichlari oddiy oltingugurt tarkibli betonlar mustaxkamligiga nisbatan 3-4% oshganligi kuzatildi.

MB-100 markali modifikator markali qo‘shimchalarning oltingugurt tarkibli betonlar mustaxkamligini ta’minlash vaqtiga ta’siri sezilmadi, an’anaviy oltingugurt tarkibli betonlar singari 1,1 soat davomida mustaxkamlikka erishishiga erishildi.

Foydalangan adabiyotlar / References

[1] Е. В. Королев, Теплофизические свойства серных строительных материалов. Королев Е. В., Киселев Д. Г., Прошина Н. А., Альбакасов А. И.// Вестник МГСУ, 2011. - N 8. 249-253 с.

[2] Gadamov, D., Ziyamuhammedova, U., & Miradullaeva, G. (2024, March). Chemical resistance of a hydrophobic-hemostable organomineral composite material in aggressive liquid media. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3045, No. 1). AIP Publishing.

[3] Ziyamukhamedova, U., Rakhmatov, E., Dustqobilov, E., Nafasov, J., & Ziyamukhamedov, J. (2023, June). Development of protective coating compositions for process tanks. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.

[4] Ziyamukhamedova, U., Evlen, H., Nafasov, J., Jalolova, Z., Turgunaliyev, E., & Rakhmatov, E. (2023). Modeling of the process of mechano activation of filler particles in polymer composites. In E3S Web of Conferences (Vol. 401, p. 05027). EDP Sciences.

[5] У.В.Королев, Д.Г.Кисилев, Н.А.Порошина, А.И.Альбакасов. Теплофизические свойства серных строительных материалов. Вестник МГСУ. №8. 2011. 249-253 с.

[6] Ziyamukhamedov, J., Nafasov, J., Rakhmatov, E., Tadjikhodjaev, Z., & Djumabaev, A. (2023). Research of hydroabrasive wear resistance of organomineral coatings depending on operating environment conditions. In E3S Web of Conferences (Vol. 401, p. 05072). EDP Sciences.

[7] Балакин В.М., Литвинец Ю.И. Изучение огнезащитной эффективности азот-фосфорсодержащих составов для древесины // Пожаро-взрывобезопасность Т.16 № 5 2007 39-41 с.

[8] Г.Е.Нагибин, С.С.Добросмислова, В.Е.Задов, Н.В.Суходовая. Поведение серных вяжущих и композиций на их основе при различных температурах. Журнал: Известия Казанского государственного архитектурно-строительного университета. № 4. 245-251с.

[9] Балтышев С.А. Серные бетоны для защиты от радиатsiи: М.– Пенза: ПГУАС, 2014. – 174 с.

[10] ПНСТ 105-2016 Смеси серобетонные и серобетон. Технические условия 16 с.

[11] Р.Ф.Собиров, Ф.М.Мохоткин. Анализ известных составов переработки серы в серобетон, сероасфальт и другие продукты. Вестник технологического университета 2016. Т.19. №20. 69-72 с.

[12] И.В.Лазовская, С.В.Якубовский, Д.О.Глухов, Е.Д.Лазовский. Серобетон как перспективный строительный материал. Вестник ПГУ. №8. 2017. 53-57 с.

[13] Е.В Корольев. Радиацтонно- защитные и коррозионно-стойкие серные строительные материалы. М.: Издательство Палеотип, 2006.-272 с.

[14] Ахметова Р.Т., Медведева Г.А., Строганов В.Ф. Ресурсосберегающие технологии серных бетонов из техногенных отходов фундаментальные исследования. фундаментальные исследования № 2, 2015. 4861-4865 с.

[15] Berdyyev, B., Akmuradov, A., & Gadamov, D. (2024). Chemical composition of essential oil of endemic species wormwood of the central kopetdag. Chemistry and chemical engineering, 2023(2), 10.

[16] Кутайцева, О.Н. Радиатsionно-защитные полистирольные покрытия: дис. … канд. техн. наук / О.Н. Кутайцева. – Пенза: ПГАСА, 2001. – 160 с.

[17] Gadamov, D., Amannazarova, D., & Gulmamedova, L. (2024). Detection and identification of microorganisms-oil destructors in oil-contaminated soils of turkmenistan. Chemistry and chemical engineering, 2023(2), 7.

[18] Прошин, А.П. Строительные растворы для защиты от радиатsii / А.П. Прошин, Е.В. Королев, Н.А. Очкина, С.М. Саденко. – Пенза: ПГАСА, 2002. – 202 с.

[19] Ерофеев, В.Т. Биологическое сопротивление серобетонов / В.Т. Ерофеев, В.Ф. Смирнов, Л.С. Яушева, О.Н. Смирнова // Изв. вузов. Строительство. 2002. №11. С. 29–33.

[20] Berdyyev, B., Akmuradov, A., & Gadamov, D. (2024). Chemical composition of essential oil of endemic species wormwood of the central kopetdag. Chemistry and chemical engineering, 2023(2), 10.

[21] Королев, Е.В. Серные композиционные материалы для защиты от радиатsii / Е.В. Королев, А.П. Прошин, В.И. Соломатов. – Пенза: ПГАСА, 2001. – 210 с.

Mualliflar to‘g‘risida ma’lumot/ Information about the authors

Ziyamuxamedova Umida Alijonovna	Toshkent davlat transport universiteti “Materialshunoslik va mashinasozlik” kafedrasi professori. t.f.d., professor E-mail: z.umida1973@yandex.ru Tel.:+998911915665 https://orcid.org/0000-0001-5005-0477
Nurqulov Fayzulla Nurmuminovich	Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy tadqiqot instituti professori, t.f.d., professor https://orcid.org/0000-0002-6546-3431
Djumabayev Alijon Bakishovich	Toshkent davlat transport universiteti “Materialshunoslik va mashinasozlik” kafedrasi professori. t.f.d., professor E-mail:nafasovq@mail.ru Tel.:+998909005677 https://orcid.org/0000-0001-5005-0477
Nafasov Jasurbek Himmat o‘g‘li	Toshkent davlat transport universiteti “Materialshunoslik va mashinasozlik” kafedrasi katta o‘qutuvchisi. t.f.f.d. (PhD) E-mail: nafasovz@mail.ru Tel.:+99897 710 66 93 https://orcid.org/0000-0002-0415-2584
Turg‘unaliyev Elbek To‘xtanazar o‘g‘li	Toshkent davlat transport universiteti “Materialshunoslik va mashinasozlik” kafedrasi assistenti E-mail: elbekturgunaliyev@gmail.com https://orcid.org/0000-0003-3257-5434
Rustamov Mirshohid Ulug‘bek o‘g‘li	Sanoat Energetika Guruhi MChJ XK Muborak XIChK si yetakchi muxandisi, mustaqil izlanivchi Tel.: +998 99 953 92 52 https://orcid.org/0009-0008-1440-5988

Advantages of circular and rectangular seismic barriers

Sh.S. Yuldashev[1][a], A.Sh. Abdunazarov [1][b]
[1]Namangan Engineering-Construction Institute, Namangan, Uzbekistan

Abstract: In the article, the effect of seismic surface waves on the building is determined using the Plaxis 3D software complex using the Finite Element method. The highest displacement amplitudes at each point are determined. Efficiency was analyzed by comparing rectangular and circular seismic barriers.

Keywords: Building, seismic surface waves, finite element method, theory of elasticity, seismic barrier

Aylana va to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi seysmik to‘siqlarning afzalligi

Yuldashev Sh.S.[1][a], Abdunazarov A.Sh.[1][b]
[1]Namangan muhandislik-qurilish instituti, Namangan, O‘zbekiston

Annotatsiya: Maqolada binoga seysmik sirt to‘lqinlarining ta’siri Plaxis 3D dasturiy majmuasi yordamida Chekli elementlar usulini qo‘llagan holda aniqlangan. Har bir nuqtadagi ko‘chishning eng yuqori amplitudalari aniqlangan. To‘g‘ri to‘rtburchak bilan aylana shaklidagi seysmik to‘siqni qiyosiy taqqoslash orqali samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Bino, seysmik sirt to‘lqinlari, chekli elementlar usuli, elastiklik nazariyasi, seysmik to‘siq

1. Kirish

Bino va inshootlarni tabiiy va sun’iy tebranishlardan himoya qilish muammosi zamonaviy qurilish uchun muhim ahamiyatga ega. Sun’iy tebranish manbalariga yer osti temir yo‘l liniyalari, avtomobil yo‘llari, og‘ir yuk: uskunalar va jihozlar yuklangan mashinalar hisoblanadi. Hozirgi vaqtda zilzilaga chidamli binolarning zamonaviy konstruktiv tizimlari seysmik qarshilikning maqbul darajasini ta‘minlaydi. Bu ko‘p hollarda binolar va inshootlarning loyihaviy intensivlikdagi zilzilalarga xavfsiz dosh berishiga imkon beradi. Biroq, ayrim hollatlarda seysmik himoya tizimlari bilan jihozlangan inshootlar loyihaviy seysmik yuklar ta’sirida vayron qilingan holatlar mavjud. Shuning uchun aylana va to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi seysmik to‘siq orqali passiv himoya tizimi dolzarb masaladir.

2. Tadqiqot metodikasi

Seysmik xavfsizlikni ta’minlash va inshootlarning seysmik ta’sirlarga chidamliligini oshirish uchun seysmik to‘siqlar keng qo‘llaniladi. Aylana va to‘rtburchak shaklidagi seysmik to‘siqlarni qiyosiy tahlil qilish va ularning samaradorligini o‘rganish masalalari ko‘rib chiqiladi. Har bir shakldagi to‘siqning seysmik to‘lqinlarni yutish, tarqatish va binolarni himoya qilishdagi xususiyatlari tahlil qilinadi.

Aylana shaklidagi to‘siqlar seysmik to‘lqinlarni bir xil taqsimlash qobiliyatiga ega. Bu turdagi to‘siqlarni joylashtirish va ularni geometrik jihatdan mustahkamlash osonroq bo‘lib, ular seysmik to‘lqinlarni samarali yutadi va binolarga ta’sirini kamaytiradi.

To‘rtburchak shaklidagi to‘siqlarni joylashtirish va ulardan foydalanish seysmik himoya tizimlarida ko‘proq qo‘llaniladi. Ushbu to‘siqlar seysmik to‘lqinlarni muayyan yo‘nalishlarda yutish va tarqatish qobiliyatiga ega bo‘lib, ular yuqori seysmik xavf hududlarida samarali hisoblanadi.

Maqolada aylana va to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi seysmik to‘siqlarni afzalligini aniqlash bilan bog‘liq bir qator masalalar ko‘rib chiqilgan.

Binoga ta’sir etayotgan seysmik sirt to‘lqinlarni ta’sirini kamaytirish uchun aylana shaklidagi seysmik to‘siq modellashtiriladi va to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi seysmik to‘siq bilan taqqoslash orqali qaysi shakldagi afzalligini aniqlanadi. Binodan 10 metr uzoqlikda qalinligi 1 metr chuqurligi 3 metr bo‘lgan to‘rtburchak shakldagi seysmik to‘siqni (1-rasm) aylana shakliga keltirib olamiz. To‘rtburchak shaklidagi seysmik to‘siqning uzunligi $l = 178$ metr (2-rasm), aylana radiusini topish uchun:

$$r = \frac{l}{2\pi} = \frac{178}{6.28} = 28$$



1-rasm. To‘rtburchak shaklidagi seysmik to‘siq



2-rasm. Aylana shaklidagi seysmik to‘siq

Seysmik to‘siqni bino markazidan 28 metr radius uzoqlikda qalinligi 1 metr chuqurligi 3 metr bo‘lgan aylana shaklida modellashtirildi. Modelning uzunligi 200 *m* eni 100 *m* va chuqurligi 50 *m* o`lchamlarga ega. Masalada yer osti suvlari borligi ham hisobga olinadi, yer osti suvlarining sathi 20 *m* chuqurlikda deb olingan. Bino 24 *m* uzunlikda, eni 24

[a] https://orcid.org/0000-0002-3992-9066
[b] https://orcid.org/0009-0003-1614-0913

m va balandligi 14.75 m, qavat balandligi 3,3 m, binoning yer to‘la qismi esa 3 m chuqurlikda joylashgan. birinchi qatlami 5 metr qumloq (suglinka), ikkinchi qatlami 45 metr shag‘alli (galichniy) grunt modellashtirildi.

Masalada cheksiz yarim fazoni chekli soha bilan almashtiramiz. Bunda chegaralarda to‘lqinlarning cheksizlikka intilishini ta’minlovchi quyidagi shartlar qo‘yilgan. Ajratilgan parallelepipedning $AHJD$ va $BEFC$ yog‘larida (a), $ABCD$ va $HEFJ$ yog‘larida (b) hamda $ABEH$ yog‘ida (c) shartlar qo‘yilgan (3-rasm).



3-rasm. Chegaraviy shartlar qo‘yilishi

$$\left.\begin{matrix}\sigma_x = a\rho V_p\dot{u}\\ \tau_{yz} = b\rho V_s\dot{u}\\ \tau_{zy} = b\rho V_s\dot{w}\end{matrix}\right\}\text{a)}\quad \left.\begin{matrix}\sigma_y = a\rho V_p\dot{v}\\ \tau_{xz} = b\rho V_s\dot{w}\\ \tau_{zx} = b\rho V_s\dot{u}\end{matrix}\right\}\text{b)}\quad \left.\begin{matrix}\sigma_z = a\rho V_p\dot{w}\\ \tau_{xy} = b\rho V_s\dot{u}\\ \tau_{yx} = b\rho V_s\dot{v}\end{matrix}\right\}\text{c)} \quad (1)$$

Tadqiqot sohasi 46517 ta chekli elementga va 87829 ta tugunlarga ajratilgan. Cheki elementlarning shakllari noto`g`ri tetraedr shaklida tanlanadi.

Harakat differensial tenglamalar sistemasining tartibi $87829 \times 3 = 260\ 487$ ga teng.

Bu yerda x o‘qi bo‘ylab Reyle to‘lqini harakatlanadi deb tasavvur qilamiz. Materialning fizik-mexanik xususiyatlarini hisobga olgan holda gruntdagi tugunlardagi ko‘chish, tezlik va tezlanishlarini aniqlaymiz.

Dinamik yuk ta’siridagi diskret mexanik sistema harakatining differensial tenglamalar sistemasi quyidagicha ifodalanadi:

$$\boldsymbol{M\ddot{u} + C\dot{u} + Ku = F} \quad (2)$$

Bu yerda $\boldsymbol{M}$ – massalar matrisasi, $\boldsymbol{C}$ – so‘ndirish matrisasi, $\boldsymbol{K}$ – bikrlik matrisasi va $\boldsymbol{F}$ – dinamik yuk vektori. $\boldsymbol{u}$ – ko‘chish, $\boldsymbol{\dot{u}}$ – tezlik va $\boldsymbol{\ddot{u}}$ – tezlanishlar vektorlari vaqtning uzuluksiz funksiyalari deb olindi.

(2) tenglamalar sistemasini yechish uchun Nyumark usulidan foydalanamiz.

Dinamika masalasini raqamli ifodalashda vaqt iteratsiyasini shakllantirish hisoblash jarayonining barqarorligi va aniqligi uchun muhim omil hisoblanadi.

Nyumark usulining vaqt iteratsiyasi koeffitsentlarini $\alpha = 0.25$ va $\beta = 0.5$ deb qabul qilamiz.

Binoga ta’sir etayotgan seysmik sirt to‘lqinlarni aniqlash va taqqoslash uchun binoning har qavatidan 9 ta jami esa 54 ta kuzatuv nuqtalari belgilab olindi (4-rasm).



4-rasm. Kuzatuv nuqtalari

Seysmik sirt to‘lqinlarni tarqalishini Garmonik kuch orqali hosil qilindi. Garmonik kuchning fazasi 0, amplitudasi 1 va chastotasi 10 Hz davomiyligi 5 sekund deb olindi.



5-rasm: Seysmik sirt to‘lqinlarni binoga ta’sir etish jarayoni

Binoning oldindan belgilab kuzatuv nuqtalari yordamida z bo‘yicha tugunlarni qiymatlari qiyosiy tahlil qilindi.



6-rasm. 34-kuzatuv nuqtasidagi ko‘chishni taqqoslash grafiki

6-rasmda, atrofida xech qanday to‘siq joylashmagan modeldagi binoning 34-kuzatuv nuqtasida seysmik sirt to‘lqinning u_z o‘qi bo‘yicha ko‘chishning maksimal qiymati u_{zmax} =0,782 mm, to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi seysmik to‘siqli modeldagi binoda u_{zmax} =0,770 mm, aylana shaklidagi seysmik to‘siqli modeldagi binoda u_{zmax} =0,632 mm ni tashkil etdi. Qiyosiy taqqoslanganda, atrofida xech qanday to‘siq joylashmagan holga nisbatan to‘rtburchak shaklidagi seysmik to‘siqli modeldagi binoning 34-kuzatuv nuqtasidagi ko‘chish 1.53%, aylana shaklidagi seysmik to‘siqli modelda binoda 19.18% ga teng bo‘lgan seysmik to‘siqlar samaradorligi qayd etildi.

7-rasm. 49-kuzatuv nuqtasidagi tezlikni taqqoslash grafiki

7-rasmda, atrofida xech qanday to‘siq joylashmagan modeldagi binoning 34-kuzatuv nuqtasida seysmik sirt to‘lqinning v_z o‘qi bo‘yicha tezlikning maksimal qiymati v_{zmax} =8,831 sm/s, to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi seysmik to‘siqli modeldagi binoda v_{zmax} =2,502 sm/s, aylana shaklidagi seysmik to‘siqli modeldagi binoda v_{zmax} =2,308 sm/s ni tashkil etdi. Qiyosiy taqqoslanganda, atrofida xech qanday to‘siq joylashmagan holga nisbatan to‘rtburchak shaklidagi seysmik to‘siqli modeldagi binoning 34-kuzatuv nuqtasidagi tezlik 71.67%, aylana shaklidagi seysmik to‘siqli modelda binoda 73.86% ga teng bo‘lgan seysmik to‘siqlar samaradorligi qayd etildi.

8-rasm. 34-kuzatuv nuqtasidagi tezlanishni taqqoslash grafiki

8-rasmda, atrofida xech qanday to‘siq joylashmagan modeldagi binoning 34-kuzatuv nuqtasida seysmik sirt to‘lqinning a_z o‘qi bo‘yicha tezlanishning maksimal qiymati a_{zmax} =83,94 *sm/s*^{2}, to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi seysmik to‘siqli modeldagi binoda a_{zmax} =35,28 *sm/s*^{2}, aylana shaklidagi seysmik to‘siqli modeldagi binoda a_{zmax} =33,16 *sm/s*^{2} ni tashkil etdi. Qiyosiy taqqoslanganda, atrofida xech qanday to‘siq joylashmagan holga nisbatan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi seysmik to‘siqli modeldagi binoda tezlanish 57.97%, aylana shaklidagi seysmik to‘siqli modeldagi binoda tezlanish 60,50% ga teng bo‘lgan seysmik to‘siqlar samaradorligi qayd etildi.

3. Xulosa

Bino atrofiga xech qanday to‘siq joylashtirilmagan binoga nisbatan bir xil koordinatada joylashgan to‘rtburchak shakldagi seysmik to‘siqli modeldagi binoda ko‘chish o‘rtacha 20.05%, tezlik 54.72% va tezlanish 48.84%, aylana shakldagi seysmik to‘siqli modeldagi binoda ko‘chish o‘rtacha 24.11%, tezlik 56.70% va tezlanish 50.13% ga seysmik to‘siqlar samaradorligi qayd etildi.

Bu tahlilga binoan binoga ta’sir etayotgan seysmik sirt to‘lqinlar ta’sirini kamaytirish uchun to‘rtburchak va aylana shaklli seysmik to‘siqlar modellashtirilganda, ikki turdagi seysmik to‘siq ham ijobiy natija berdi. Aylana shaklli seysmik to‘siq to‘rtburchak shaklli seysmik to‘siqqa qaraganda afzalligi aniqlandi.

Foydalangan adabiyotlar / References

[1] Abdunazarov, A., & Sharofitdin, Y. (2023). Binoga ta’sir etayotgan seysmik sirt to‘lqinlarni aniqlash va seysmik to‘siq (penopoliuretan) yordamida kamaytirish.

[2] Abdunazarov, A., & Sharofitdin, Y. (2023). Yer osti suvlari sathining seysmik sirt to‘lqinlari tarqalishiga ta’siri.

[3] Abdunazarov, A., & Sharofitdin, Y. (2023). Binoga ta’sir etayotgan seysmik sirt to‘lqinlarining grunt xususiyatiga bog’liqligi.

Mualliflar to‘g‘risida ma’lumot/ Information about the authors

Yuldashev Sharafitdin Sayfitdinovich	Namangan muhandislik-qurilish instituti, “Materiallar qarshiligi va mexanika” kafedrasi professori, t.f.d. Sh.yuldashev1953@gmail.com Tel.: +998974275438 https://orcid.org/0000-0002-3992-9066
Abdunazarov Akbarjon Shamsuddin o‘g‘li	Namangan muhandislik-qurilish instituti, “Qurilish materiallari va buyumlari” kafedrasi o‘qituvchisi, Abdunazarovakbar16@gmail.com Tel.: +998911860505 https://orcid.org/0009-0003-1614-0913

Supporting components: key paradigms and information systems

M. S. Burikhodjaeva[1][a], Sh.R. Sharapova[1]
[1]Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: Currently, systematic management of the supply chain is becoming a promising direction of research, the structure of which continues to develop in the conditions of integration and mutual adaptation of product, service, information and intellectual flows, which in turn opens up new opportunities for interdisciplinary analysis. Unlike logistics, the basic theoretical and methodological foundations are already systematized, integrated, in the systematic management of the supply chain (mainly in multilevel, supply chains), this process is only beginning its development. Therefore, this article analyzes theories, methods and models, economic indicators, existing terms and definitions, taking into account the issues of optimization of supply chains and the requirements for them in terms of reliability, stability, flexibility. An approach is proposed to the formation of systematic management of logistics systems based on the interconnection of operational, tactical and strategic management.

Keywords: The concept of" delivery", SCM (supply chain management), SCOR, paradigm, logistics concept, management. marketing, optimization, integrated management, strategy, resource, supply chain planning

Qo‘llab-quvvatlovchi komponentlar: asosiy paradigmalar va axborot tizimlari

Burixojayeva M. S.[1][a], Sharapova Sh.R.[1]
[1]Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Hozirda yetkazib berishlar zanjirini tizimli boshqarish tadqiqotning istiqbolli yo‘nalishiga aylanib bormoqda, uning tuzilishi mahsulot, xizmat, axborot va intellektual oqimlarning integratsiyasi va o‘zaro moslashuvi sharoitida rivojlanishda davom etmoqda, bu esa o‘z navbatida fanlararo tahlil uchun yangi imkoniyatlarni ochib boradi. Logistikadan farqli o‘laroq asosiy nazariy va uslubiy asoslar allaqachon tizimlashtirilgan, integratsiyalashgan, yetkazib berishlar zanjirini tizimli boshqarishda (asosan ko‘p darajali, yetkazib berishlar zanjirlarida) bu jarayon faqat o‘z rivojlanishini boshlamoqda. Shuning uchun ushbu maqolada yetkazib berishlar zanjirlarini optimallashtirish masalalari va ishonchlilik, barqarorlik, moslashuvchanlik nuqtai nazaridan ularga qo‘yiladigan talablarni hisobga olgan holda nazariyalar, usullar va modellar, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, mavjud atamalar va ta’riflar tahlil qilinadi. Operasion, taktik va strategik menejmentning o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan logistika tizimlarini tizimli boshqarishni shakllantirishga yondashuv taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: "Yetkazib berish" tushunchasi, SCM (yetkazib berishlar zanjiri boshqarish), SCOR , paradigma, logistika tushunchasi, menejment. marketing, optimallashtirish, kompleks boshqarish, strategiya, resurs, yetkazib berishlar zanjirini rejalashtirish

1. Kirish

Hozirgi vaqtda yetkazib berishlar zanjirlarida oqimlarni kompleks boshqarish sohasi allaqachon o‘lchovlar, modellar, usullar va fanlarning keng doirasini qamrab oladi, ammo keyinchalik yetkazib berishlar zanjirlarining "intellektualashuvi" bilan bog‘liq holda shakllanishi mumkin bo‘lgan alohida ilmiy yo‘nalishni anglatmaydi.

Uzoq muddatli istiqbolda ushbu tadqiqot sohasining barqaror rivojlanishi uchun uning universal tuzilishini, tadqiqotchilar va amaliyotchilar tomonidan turli kontekstlarda oqim integratsiyasi samaradorligini baholash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan “vositalarni” ni shakillantirish kerak, tadqiqot boshqa fanlar paradigmalariga emas, balki fanga tegishli paradigma asosida olib borilishi kerak [Veber, 1987]. Shu munosabat bilan muallif murakkab tizimlar nazariyasini rivojlanayotgan paradigmalar uchun potensial asos sifatida ko‘rib chiqishni taklif qilindi, chunki u ko‘p o‘lchovli, fanlararo va ko‘plab o‘zaro bog‘liq komponentlar, chiziqli bo‘lmagan teskari aloqa mexanizmlari va moslashuvchan xususiyatlarga ega rivojlanayotgan, moslashuvchan, o‘zini o‘zi tashkil etuvchi dinamik obyektlarni o‘rganishga qaratilgan [Mitleton-Kyelli, 2003]. Murakkab tizimlar nazariyasi doirasida biznes jarayonlarining yagona to‘plamini o‘z ichiga olgan va yetkazib berishlar zanjirlarini tahlil qilish, loyihalash, nazorat qilish va boshqarishda xalqaro tarmoqlararo standart sifatida tan olingan turli xil mavhum modellar bilan bog‘liq fundamental paradigmalar ishlab chiqilmoqda. 1990 yillarning boshlarida birinchilardan bulib yetkazib berishlar zanjiri operasiyalarining ma’lumot modeli (ingl. Supply Chain Operations Reference Model, SCOR) yaratildi, u

[a] https://orcid.org/0000-0002-9396-4428

beshta biznes-jarayon (bajarish, ta'minlash, yetkazib berish, qaytarish, rejalashtirish)ga asoslangan. Ushbu ma'lumotnoma (standart) modelning barcha darajalarida jarayonlarning samaradorligini nazorat qilishni ta'minlaydigan muvozanatli ko'rsatkichlarning o'rnatilgan tizimini o'z ichiga oladi. Ya'ni, yetkazib berish zanjirini boshqarishning ushbu operasion modeli yetkazib berishlar zanjirining eng yaxshi ko'rsatkichlariga erishish uchun qaysi biznes jarayonlarini va ularni qanday amalga oshirish kerakligini belgilaydi.

2. Tadqiqot metodikasi

SCOR -modeli iyerarxik uch darajali metrik tizimga ega bo'lib, unda yuqori darajadagi muammolarni tashxislash uchun quyi darajadagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi. [Matushkin va Gorbunov, 2016]. Birinchi darajadagi ko'rsatkichlar umuman yetkazib berishlar zanjiri holatini tashxislaydi va asosiy samaradorlik ko'rsatkich (KPI) sifatida qaralishi mumkin. Ikkinchi va uchinchi darajadagi ko'rsatkichlar yetkazib berishlar zanjirining KPI -lariga nima sabab va nima ta'sir qilishini tushunishga imkon beradi. Bularga xususiy ishlash va samaradorlik ko'rsatkichlari kiradi. [Matushkin va Gorbunova, 2016]. SCOR modeli yetkazib berishlar zanjirining standartlarini ishlab chiqish va takomillashtirish maqsadida Xalqaro tashkilot operasiyalar zanjirining ma'lumotlar modelini (inglizcha: Design Chain Operations Reference Model) ishlab chiqdi, u ham beshta biznes jarayonlari (rejalashtirish, tadqiqot, dizayn, integratsiya, takomillashtirish) identifikasiyaga asoslangan. Operasion samaradorlik maqsadlari uchun mezonlarni belgilovchi SCOR modelining ko'rsatkichlari beshta operasion samaradorlik xususiyatlariga mos keladi (ishonchlilik, sezgirlik, tezkorlik, xarajatlar, aktivlar). Yetkazib berishlar zanjiri uchun , mustaqil ravishda yoki oldingi ikkita model bilan birgalikda ishlatilishi mumkin bo'lgan uchinchi model - SCOR (Customer Chain Operations Reference model) ni ishlab chiqdi. Shuni ta'kidlash kerakki, standart SCOR modeli biznes funktsiyalarini texnologik va tijoratga bo'linishni nazarda tutmaydi [Sergeyev va boshq., 2015]. Shuningdek, tijorat yordamchi funktsiyalari SCOR modelida ko'rib chiqilmaydi, lekin SCOR modelining predmeti bo'lib, mahsulot prototipi SCOR modelida ifodalanadi va mahsulotning ishga tushirilishi keyingi PLCOR modelida tasvirlanadi. Ushbu model, boshqalarga o'xshab, beshta biznes jarayonidan (rejalashtirish, kontsepsiyani shakllantirish, takliflarni ishlab chiqish, ishga tushirish, qayta ko'rib chiqishdan) iborat. 2006 yilda Integrated Business Reference Framework (IBRF, Tavsiya etilgan integratsiyalashgan biznes tuzilmasi) deb ataladigan yaratilish e'lon qilindi, u uchta zanjir, ta'minot, muhandislik, iste'molchilar, ya'ni modellarni SCOR, DCOR, CCOR, yagona qiymat zanjiriga birlashtirishi kerak. [Sergeyev va boshq., 2015]. Yetkazib berishlar zanjiri tomonidan taklif qilingan ma'lumotlar modellariga qo'shimcha ravishda, ixtiyoriy tarmoqlararo savdo standartlari uyushmasi, tarqatish kanallarini boshqarishga qaratilgan hamkorlikda rejalashtirishni prognozlash va to'ldirish modeli (ingl. Collaborative Planning Forecasting, and Replenishment), ishlab chiqilgan. Ushbu model SCOR modelidan ko'ra uning ko'lami kengroqdir, shuning uchun u faqat ba'zi kompaniyalar orasida keng tarqalgan. Eng taniqli ma'lumotlar modellari M.Porter tomonidan ishlab chiqilgan qiymat zanjiri; xalqaro standartlashtirish tashkiloti (inglizcha: Value chain, xalqaro standartlashtirish tashkiloti) tomonidan ISO-versiyalari 9000 standartlari doirasida ishlab chiqilgan biznes-jarayonlarning mos yozuvlar modellari (ruscha ekvivalenti GOST RISO 9000 standarti, ishlab chiqilgan Rossiya ilmiy-texnik tadqiqot instituti, VNIIS), shuningdek, sifat menejmenti bo'yicha Yevropa jamg'armasi (ingl. European Foundation for Quality Management) tomonidan taklif qilingan mukammallikning ma'lumotnoma modeli (ingl. Excellence model). Ko'rib chiqilayotgan biznes modellarining asosiy kamchiliklari ularning tavsifiy xususiyatidir, chunki ma'lumotlar modellari tavsiflovchi hisoblanadi. Shuning uchun, yetkazib berish zanjirlarini rejalashtirish va qayta loyihalashda, biznes jarayonlari maqbul bo'lishiga kafolat yo'q va tizimning belgilangan ishonchliligi va samaradorligiga erishiladi [Bochkarev, 2015].

Murakkab tizimlar nazariyasida analitik va algoritmik shakllarda aks ettirishga asoslangan murakkab modellar qo'llaniladi. Maqsadli qiymatlar korxonaning biznes modellariga muvofiq belgilanadigan haqiqiy qiymatlarni boshqarish uchun amalga oshiriladigan kompyuter tizimlari taqdim etilgan ko'plab mos yozuvlar modellari dasturiy ta'minotni ishlab chiqishni avtomatlashtirish vositalari (ingl. computer-aided software engineering, CASE-texnologiyalari) amalda qo'llaniladi. Misol uchun: quyidagi kompyuter tizimlari Germaniyaning dasturiy ta'minot Software AG kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan ARIS (ingl. Architecture of Integrated Information Systems) AllFusion ERwin Data Modeler (raneye ERwin) shuningdek OOwin, BPwin , mantiqiy ishlar tomonidan yaratilgan va grafik operasion tizimlarga yo'naltirishni o'z ichiga oladi: bu esa win qo'shimchasi mavjudligidan dalolat beradi. Ushbu tizimlar asosan loyihalashda ikkita yondashuvdan foydalanadi: umumiy metodologiyalarga asoslangan tarkibiy va obyektga yo'naltirilgan (masalan, tarkibiy tahlil va dizayn metodologiyasi (SASD), uni yanada rivojlantirish SADT metodologiyasida keltirilgan). IDEF metodologiyasi eng puxta ishlab chiqilgan deb hisoblanadi, bu nafaqat biznes jarayonlarini, balki funksional bloklarni, kompaniyadagi turli obyektlarni va ulardagi harakatlarni tavsiflashga imkon beradi. Taqdim etilgan metodologiyalar dasturlash tillariga kirmaydigan yagona modellashtirish tili-UML kabi murakkab tizimlarni tavsiflash uchun grafik tildan foydalanishga asoslangan. Ushbu til turli xil diagrammalar(IDEF0, IDEF1, IDEF1X, IDEF2, IDEF3, IDEF4, IDEF5 kabi xususiy metodikalar shaklida) tizimini o'z ichiga oladi, uning asosida loyihalashtirilgan tizim g'oyasi qurilishi mumkin [Petrova i Voxmyanina, 2012].

Tizimlarni dinamik modellashtirish uchun IDEF2 metodologiyasini shakllantirish dinamik tizimlarni tahlil qilishning murakkabligi sababli deyarli boshlang'ich darajada to'xtatildi. Hozirgi vaqtda statik IDEF0 diagrammalari rangli to'plamini Petri (ingl. Color Petri Nets), to'rlariga asoslangan dinamik modellarga aylantirishga imkon beradigan algoritmlar va kompyuter dasturlari mavjudligiga qaramay, dinamik murakkab tizimlarni tavsiflash uchun IDEF xususiy metodologiyalaridan foydalanish hali ham ushbu xususiyatlar bilan cheklangan.

Shu munosabat bilan, yetkazib berishlar zanjirlarini boshqarish (ingl. Supply Chain Execution) va yetkazib berishlar zanjirini rejalashtirish (ingl. Supply Chain Planning) uchun quyi tizimining tarkibiy qismlari deb hisoblanishi mumkin bo'lgan tavsiflangan

metodologiyalarga qo‘shimcha ravishda, RFID texnologiyalariga asoslangan yetkazib berishlar zanjirini bajarish (ingl. Transport Management Systems, TMS, TMS), ombor harakatlanuvchi tarkib (Warehousing Management Systems, WMS) (angl. Fleet Management Systems) va boshqalar transportni boshqarish tizimlariga kiritilgan. Axborot texnologiyalaridan foydalanish ayniqsa integratsiyalashgan deb nomlangan nisbatan yangi logistika konsepsiyasi va rivojlanayotgan integratsiyalashgan yetkazib berishlar zanjiri boshqaruvi samarali logistika tizimlarini qurishga yordam beradi [Dibskaya va boshq., 2010]. Uning paydo bo‘lishidan oldin mikro-iqtisodiy konsentrasiya va tarqatish tizimlarini, mahsulot va xizmatlarning makro-iqtisodiy tarqatish tizimlarini va makro-iqtisodiy konsentrasiya va tarqatish tizimlarini loyihalash, shakllantirish va optimallashtirish bo‘yicha uslubiy apparatlarni ishlab chiqishda qo‘llaniladigan uchta asosiy boshqaruv konsepsiyasi (menejment, marketing, logistika) paydo bo‘ldi. [Tyapuxin, 2002; Dibskaya, 2017]. Atrof-muhitning o‘zgaruvchanligi murakkab dinamik logistika tizimlarining samaradorligini tizimli ravishda baholash uchun qo‘shimcha tadqiqotlar va muqobil yondashuvlarni izlashni talab qiladi. Rasional boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ularning ishlash samaradorligi darajasini har tomonlama baholash vositalaridan foydalanish kerak [Miftyaxetdinov, 2010], shuning uchun optimallashtirish bilan bog‘liq turli xil logistika qarorlarini asoslashda dinamikada turli xil logistika jarayonlarini tavsiflashga asoslangan ko‘p funksional yondashuvlar tobora ko‘proq foydalanilmoqda. Simulyasiya modellari keng tarqalmoqda, ularning o‘ziga xos xususiyati vaqt funktsiyasi shaklida ishlashning asosiy ko‘rsatkichlarini baholashdir, bu tizimni vaqtinchalik rejimlarda baholashga imkon beradi. Shu bilan birga, natija logistika tizimlarini tahlil qilish va loyihalash uchun maxsus dasturiy ta’minot yordamida ishlaydigan model shaklida baholanadi [Toluyev, 2005; Shinkarenko va Ananko, 2014]. Optimallashtirish muammolarini hal qilishning raqamli usullarini aks ettirishning analitik va algoritmik shakllariga asoslangan dinamik tizimlar ishini kompleks baholashning ushbu tizimlari yetkazib berishlar zanjirini boshqarishning asosiy quyi tizimini – yetkazib berishlar zanjirini optimallashtirishni tashkil qilishi mumkin (1-rasm).

Yetkazib berishlar zanjirini optimallashtirish tizimlari odatda AnyLogic, PowerSim, IThink, Extend, Rethink, Arena, FlexSim, Simul8, Simio, AnyLo-gistix kabi universal modellashtirish tizimlari yordamida ishlab chiqilgan simulyasiya yoki mavzuga xos (ProMod, AutoMod, WITNESS, TED) modellarini yaratishga asoslangan.

1-rasm. Yetkazib berishlar zanjirini kompleks boshqarish

3. Xulosa

Xulosa qilib shuni ta’kidlash munkinki, ushbu modellar va usullarning kombinasiyasi, shuningdek yetkazib berishlar zanjirlarida logistika funktsiyalarining ajralmas xususiyatini aks ettiruvchi zamonaviy nazariyalarning minimal to‘plamidan foydalanish murakkab tizimlarni tavsiflashda va hisoblash tajribalarini o‘tkazishda natijalarning aniqligi va ishonchliligi darajasini oshirishga yordam beradi va modellashtirishda kompyuterga ishlov berish soddalashtiriladi. Yetkazib berishlar zanjirini kompleks boshqarishga ko‘rib chiqilgan yondashuv yetkazib berishlar zanjirlarida logistika funktsiyalarini maqbul boshqarish bo‘yicha qarorlarni qabul qilishning umumlashtirilgan metodologiyasi va nazariyasini ishlab chiqish, shuningdek ularning atrof-muhitning bezovta qiluvchi ta’siriga chidamliligini tahlil qilish va baholash uchun asos bo‘lishi mumkin. Buni aniqlashtirish uchun logistikaning funksional yo‘nalishlarini, asosiy va qo‘llab-quvvatlovchi logistika funktsiyalarini qayta ko‘rib chiqish, logistika xarajatlarini hisoblash tamoyillarini, rentabellik standartlarini, logistika provayderlari narxlarini modernizasiya qilish va tuzilish xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali transport va ombor infratuzilmasini rivojlantirish tamoyillarini umumlashtirilgan logistika xarajatlari modelidan shakllantirish kerak bo‘ladi. Samarali yechimlarni tanlash uchun modellarning oqilona murakkabligini ta’minlaydigan maxsus kompyuter dasturlaridan foydalangan holda yangi analitik apparatni ishlab chiqish amaliy vazifalarga analitik bog‘liqliklarga yaqinlashish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, ularning maqsadi, qoida tariqasida yurtimizda logistika xarajatlarini global o‘rtacha darajaga tushirishdan iboratdir.

Foydalangan adabiyotlar / References

[1] Бочкарев, П.А. (2015), «Управление надежностью цепей поставок в логистике снабжения», Дисс. к.э.н., Экономика и управление народным

хозяйством: логистика,Санкт-Петербургский экономический университет, Санкт-Петербург, Россия

[2] Бродецкий, Г.Л. (2008), Управление запасами, Эксмо, Москва, РоссияБудрина, Е.В., Лукинский, В.С. и Счисляева, Е.Р.(2006), Логистические методы и модели управления кадрами в условиях усиления культурных и глобальных тенденций в международном бизнесе, Изд-во Политехн. унта, Санкт-Петербург, Россия

[3] Бутрин, А.Г. (2003), «Теория и методология управления потоковыми процессами на промышленном предприятии», Дисс. доктора экон.наук, Экономика и управление народным хозяйством: логистика, Челябинск, Россия Григорьев, М. Н., Долгов, А. П. и Уваров, С. А. (2006), Логистика, Гардарики, Москва, Россия

[4] Дыбская, В. В. и Сергеев, В. И. (2017), Логистика, Часть 1, Юрайт, Москва, Россия Дыбская, В.В., Зайцев, Е.И., Сергеев, В.И. и Стерлигова, А.Н. (2008), Логистика: интеграция и оптимизация логистических бизнес-процессов в цепях поставок, Эксмо, Москва, Россия

[5] Дыбская, В. В. (2017), Проектирование системы распределения в логистике, ИНФРА-М, Москва, Россия Каплан, Р. С. и Нортон, Д.П. (2003), Сбалансированная система показателей. От стратегии к действию, Пер.с англ. Павловой, М., Олимп Бизнес», Москва, Россия

[6] Лукинский, В. В., Барыкин, С. и Карпунин, С. (2012а), «Модели управления запасами на основе интеграции финансового и материального потоков в цепях поставок», Аудит и финансовый анализ, № 1, С. 103-113

[7] Лукинский, В. В., Ким, В. и Николаев, К. (2012б), Оценка влияния информационно-коммуникационных технологий на логистические затраты», Логистика и управление цепями поставок, № 6(53), С. 60-67

[8] Лукинский, В. С. и Лукинский, В. В. (2007), Модели и методы теории логистики, Лукинский, В. С. (ред.), 2-е изд., Питер, , Санкт-Петербург, Россия

[9] Лукинский, В. С., Лукинский, В. В., Плетнева, Н. Г., Воробьева, Н. И. и Маевский, А. Г. (2017а), Управление запасами в цепях поставок, Часть 1, Юрайт, Москва, Россия Лукинский, В. С., Лукинский, В. В., Плетнева, Н. Г., Воробьева, Н. И. и Маевский, А. Г. (2017б), Управление запасами в цепях поставок, Часть 2, Юрайт, Москва, Россия

[10] Лукинский В. С. и Панова Ю.Н. (2017), «Формирование основ интегрированного управления цепями поставок», Перспективы развития логистики и управления цепями поставок, Сергеев, В.И. (ред.), VII Международная научная конференция, Москва, Россия, 18 апреля 2017 г., С. 328- 340ст

[11] М.С. Буриходжаева “МЕТОДЫ УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ И УЛУЧШЕНИЯ КАЧЕСТВА УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ "Экономика и социум" №12(103) 2022

[12] Юлдашева С, БўриходжаеваМ “Повышение эффективности таможенной деятельности в развитии международного экономического сотрудничества “ INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" 2022/9/10 (87-91)

[13] М.С.Бўрихаджаева «МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИДА АВТОМОБИЛ ТРАНСПОРТИ КОРИДОРЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ» Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3(1/2), Jan., 2023й ст 338-345

[14] М.С.Бурихаджаева МАРКЕТИНГОВЫЙ ПОДХОД В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 3(4/2) апрель 2023 (653-661 бет)

[15] M.S.Bo‘rixadjayeva. (2023). PEDAGOGIKNING KASBIY MAHORATINI SHAKLANTIRISH INTERFAOL USULLARI . World Scientific Research Journal, 12(2), 128–133. Retrieved from http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2541

[16] Bo‘rixadjayeva, M. S. (2023). YANGI O’ZBEKISTONDA IQTISODIY TAFAKKURNI SHAKLLANISHINING USULLARI. World scientific research journal, 12(2), 134-138.

[17] Bo‘rixadjayeva, M. S. (2023). BUGUNGI KUN YOSHLARNI HAYOTIY BARDOSHLILIGI–MUAMMOLARNI YENGISH MANBAI SIFATIDA. World scientific research journal, 12(2), 139-143.

[18] М. С. Бўрихаджаева.»Ўзбекистон Республикаси Транспорт-Логистика Тизимини Ривожлантириш» Miasto Przyszłości Kielce 2024 №45 (625-629 ст)L2024

[19] M. Burikhodjaeva, Sh.R. Sharapova. IMPROVING THE SUPPLY CHAIN IN LOGISTICS.(Yetkazib berishlar zanjirlarini boshqarish va logistika.) The Peerian Journal (2024). №33 / 37–42st. Retrieved from.

Mualliflar to‘g‘risida ma’lumot/ Information about the authors

Burihodjayeva Maloxat Sobitovna	Toshkent davlat transport universiteti “Transport logistikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, maloxatburixadjaeva@gmail.com Tel.: +998 971957779 https://orcid.org/0000-0002-9396-4428
Sharapova Shahzoda	Belarus milliy texnika universiteti magistranti sharapovashahzoda@mail.ru Tel.: +998977005245

Mathematical model of fastening conditions in piggyback transport, taking into account different conditions

Z.G. Adilova (Mukhamedova)[1][a], D.Sh. Boboev[1][b], N.B. Axtamov[1][c]
[1]Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: The main goal of the work is to determine the forces affecting the vehicle loaded on the railway platform and to systematize them. In this article, analyzes of security requirements are carried out on the basis of cargo transportation. In the study, the options for choosing the type of fastening means were considered based on the analysis of the forces acting on the mass of the transported load. Transportation of semi-trailers was chosen as a study of the types of transport, based on the stability conditions of the forces acting on the transportation of semi-trailers in rail transport, truck transport, trailer transport, road transport and semi-trailer transport. It is possible to determine the number and requirements of fastening means by determining the results of the influencing forces.

Keywords: safe transportation, fastening elements, road train, wagon, type of transport, type of transport, loading and unloading, traffic movement, acting forces

Turli sharoitlarni inobatga olib kontreyler tashishlarda mahkamlash shartlarining matematik modeli

Adilova (Mukhamedova) Z.G.[1][a], Boboev D.Sh.[1][b], Axtamov N.B.[1][c]
[1]Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Ishdan asosiy maqsad temir yo‘l platformasiga ortilgan avtotransport vositasiga ta’sir ko‘rsatuvchi kuchlarni aniqlash va ularni tizimlashtirishdan iborat. Ushbu maqolada yuklarni kontreyler tashishlar asosida xavfsizlik talablarini ta’minlash tahlillari olib borilgan. Tadqiqotda tashilayotgan yukning massasiga bog‘liq holda ta’sir qiluvchi kuchlarning tahlili hisobiga mahkamlash vositalari turini tanlash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Tashish turlarini tadqiq qilish sifatida avtopoyezd tashish, tirkama tashish, avtomobil transportida tashish va temir yo‘l transportidagi yarim tirkamalarni tashishda ta’sir qiluvchi kuchlarning turg‘unlikni ta’minlash shartlarini asoslashda yarim tirkamlarni yetkazib berish tanlangan. Ta’sir qiluvchi kuchlarning natijalovchilarini aniqlash yordamida mahkamlash vositalari sonini va talablarini belgilash imkoniyati yaratilgan.

Kalit so‘zlar: xavfsiz tashish, mahkamlash elementlari, avtopoyezd, vagon, transport turi, tashish turi, yuklash va tushirish, transport harakati, ta’sir qiluvchi kuchlar

1. Kirish

Hozirgi kunda xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki temir yo‘l transportida kontreyler tashishlarda yuklarni yetkazib berish samarali hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan “O‘TY” AJ sharoitida yuklarni kontreyler tashishlarda yetkazib berish bir muncha afzalliklarga ega, bundan kelib chiqilsa aynan Respublikamiz temir yo‘llarida kontreyler tashishlar yangi yo‘nalish sanaladi. Qolaversa, bu sohada o‘z yechimini kutayotgan muammolar talaygina ya’ni harakat xavfsizligini ta’minlash uchun albatta bu tashishlarning texnik shartlarini, mahkamlash qoidalarini mahalliy standartlarga moslashtirgan holatda ishlab chiqish lozimdir [1-4, 7, 10].

Yuklarni tashishga qo‘yilgan asosiy talablar ya’ni yuklarning o‘z manziliga xavfsiz holda yetib borishida turg‘unlik mezonlarini tekshirishdan iborat. Yuk jo‘natuvchi yuklarni o‘z manziliga yetkazishda keltirilgan ta’sir etuvchi omillarning barchasini inobatga olgan holda samarali mahkamlashlash usulini tanlash va tashishni amalga oshirish kerak bo‘ladi. Tadqiqotda Dalamber tamoyili, Nyuton qonunlari, matematik modellashtirish va tizimli yondashuvlar usulidan foydalanilgan [1-4].

Temir yo‘l transportida kontreyler tashishni tashkil etishda avtopoyezd, yuk avtomobili, tirkama, shatakchi va yarim tirkama kabi tashish birliklarini belgilangan talablarga rioya qilgan holda temir yo‘lning 13-9961, 13-4095, 139004M modellaridagi platformalaridan yuklashda foydalanish mumkin. Ushbu platforma modellarida tushirilgan yuk maydoni bo‘lib, tashish birliklarini mahkamlash uchun g‘ildirak juftliklarini o‘rnatishda qo‘llaniladi. Bundan tashqari, bu platformalar yordamida konteynerlar va yechiluvchi avtomobil kuzovlarini tashishni inobatga olgan holda o‘rnatish joylari mavjud [1].

[a] https://orcid.org/0000-0002-1825-2447
[b] https://orcid.org/0000-0003-0785-2209
[c] https://orcid.org/0009-0004-8987-961X

Kontreyler tashishlarda yuk sifatida tashiladigan yukli avtotransport vositalarining o‘lchamlari oddiy yuklardan kattaroq bo‘lishi mumkinligini inobatga olib, me’yoriy hujjatlarda belgilangan temir yo‘l transporti platformalaridan foydalaniladi. Tashish birliklari temir yo‘l platformasi bo‘ylama simmetriya tekisligiga simmetrik joylashtiriladi. Ularning ko‘ndalang yo‘nalishlarda siljishi 100 mm dan hamda platforma ramasidan tashqariga chiqish 400 mm dan oshmasligi kerak. Platformaga bir nechta tashish birliklarini ortishda yuklarni joylashtirish va mahkamlash bo‘yicha texnik shartlarda keltirilgan ko‘rsatmalarga to‘liq rioya qilinadi [5-6, 8-9].

2. Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Avtopoezdlarni maxkamlash va joylashtirish chizmalarini uning ko‘ndalang bo‘ylama yo‘nalishlardagi ko‘chishini aniqlashda vagon-mahkamlash-yuk tizimidan foydalaniladi va kuchlarni XYZ o‘lchamli fazoda joylashishi e’tiborga olinishi lozim [11-12]. Avtotransport vositalarini ochiq harakat tarkiblariga joylashtirish va mahkamlash chizmalari ularning siljishi tebranishi natijasida mahkamlash elementlariga tushadigan zo‘riqishlarni aniqlash yuzasidan shuningdek, harakat tarkiblarini temir yo‘l egriligida harakatlanishi va tashqi shamol ta’siridagi siljishini aniqlash yuzasidan takliflar [2]-ilmiy izlanishda batafsil yoritib o‘tilgan. Biroq ochiq harakat tarkibida tashilayotgan avtopoyezdlarni mahkamlash tartibi haqida qisman to‘xtalib o‘tilgan, nimagaki avtopoezdlar tuzilishiga ko‘ra [2]-ilmiy izlanishda ko‘rilgan avtotexnika chizmasidan tubdan farq qiladi shu maqsadda avtopoezdlarni “O‘TY” AJ sharoitlariga moslashtirgan holda mahkamlash shartlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Universal to‘rt o‘qli platformaga (model 13-9961) yarim tirkama joylashtirilgan va mahkamlash ishlari bajarilgan holatda harakat davomidagi ta’sir qiluvchi kuchlarni asoslash muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).



a) yon tomondan ko‘rinishi



b) yuqoridan ko‘rinishi



v) orqa tomondan ko‘rinishi

1-rasm. Universal to‘rt o‘qli platformaga (model 13-9961) yarim tirkamani joylashtirish va mahkamlash sxemasi

Tahlil natijalari (1-rasm)ga ko‘ra, harakat tarkibiga doimiy ta’sir qiluvchi kuchlardan tashqari, harakat davomida qiyalik va egriliklarda hosil bo‘luvchi boshqa kuchlar ham ta’sir qiladi.

1-rasmda $\overline{Q}_{yuk}$-avtopoyezd, yarim tirkamaning yuklangan yoki bo‘sh holatdagi og‘irligi, N;

n_i-mahkamlash vositalari (tortqich) ning soni;

H,L,B -mos ravishda, yarim tirkamaning balandligi, uzunligi va eni, m;

$l_{ai}, l_{bi}, l_{si}, \ l_{di}$-mahkamlash vositasi (tortqich) ning uzunligi, m;

$h_{ai}, h_{bi}, h_{si}, h_{di}$-mahkamlash vositasi (tortqich) ning ko‘ndalang o‘qdagi proyeksiyasi balandligi, m;

$a_{ai}, a_{bi}, a_{si}, a_{di}$- mahkamlash vositasi (tortqich) ning bo‘ylama o‘qdagi proyeksiyasi uzunligi, m;

$b_{ai}, b_{bi}, b_{si}, b_{di}$- mahkamlash vositasi (tortqich) ning ko‘ndalang o‘qdagi proyeksiyasi uzunligi, m;

α_{ai},α_{bi},α_{si},α_{di}- mahkamlash vositasi (tortqich) va platforma tekisligi orasidagi burchak, ^{o};

β_{ai},β_{bi},β_{si},β_{di}- mahkamlash vositasi (tortqich) ning proyeksiyasi va platformaning x o‘qidagi tekisligi orasidagi burchak, ^{o};

Δh -tashqi va ichki rels balandliklari farqi, $\Delta h = \frac{S \cdot v^2}{g \cdot R}$, m;

S -rels o‘qlari orasidagi masofa, m;

θ - tashqi relsning ichki relsga nisbatan balandligini tavsiflovchi burchak, $\theta = arctg(\frac{\Delta h}{S})$, ^{o};

ξ -platformaning bo‘ylama x o‘qda siljiganida yuklangan vagon ramasi egilishi hisobga olinadigan burchak, ^{o};

ζ - platformaning ko‘ndalang y o‘qda siljiganida yuklangan vagon ramasi egilishi hisobga olinadigan burchak, ^{o};

ψ_0-tarkibning qiyalikda harakatlanish burchagi, $\psi = arctg(\frac{\Delta H}{l_y})$, °.

3. Natija va muhokama

Temir yo‘l uchastka va yo‘nalishlari bo‘yicha yuklari harakat tezliklari ifodalarini [14, 15] tahlil qilish natijasida yuklari harakat tezliklariga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar darajalar kesimida tizimlashtirildi. Tizimlashtirish temir yo‘l transporti PHGning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan uchastka va marshrut tezliklari misolida amalga oshirildi. Uchastka tezligini aniqlash ifodasiga [14, 15] birinchi darajali ($O_{uch.1}$) ikki xil omil bilan tavsiflanadi, ya’ni texnik (temir yo‘l uchastkalarining uzunligi (L_{uch})) va texnologik (temir yo‘l uchastkalarida poyezdlarning yurish (t_{yur})), oraliq stansiyalarda poyezdlarning umumiy o‘rtacha turib qolish ($\sum t_{or.st}$) va tezlashish va sekinlashish harakatlari uchun sarflagan ($\sum t_{t/s}$) vaqtlari.

Platformaga ortilgan avtotransport vositasiga uning massasi (Q_y)dan tashqari harakat vaqtida tezlanish va sekinlanish jarayonida hamda manyovr va saralash vaqtida ta’sir qiladigan bo‘ylama inersiya kuchlari (F_b); harakati vaqtida va yo‘lning egri burilish joylarida ta’sir qiladigan ko‘ndalang inersiya kuchlari (F_k); harakat vaqtida platforma tebranishlari keltirib chiqargan vertikal inersiya kuchlari (F_v); shamol yuklamasi (W_{sh}) hamda bo‘ylama ($F_{(ish.b)}$) va ko‘ndalang ($F_{(ish.k)}$) yo‘nalishdagi ishqalanish kuchlari ta’sir qiladi [3]. Ta’sir qiluvchi kuchlarning kattaliklarini aniqlashda hamda sxema ko‘rinishida ifodalashda kuch yo‘nalishlari gorizontal va vertikal o‘qlar kesishgan nuqtada ko‘rsatiladi. Kuch yo‘nalishlari ta’sir qilayotgan tekisligiga perpendikulyar qabul qilinadi.

Fizikaning dinamika qonuni:

$$\sum_{i=1}^{n} \overline{F_i} = \overline{F_1} + \overline{F_2} + \ldots + \overline{F_n} = m\overline{a} \quad (1)$$

bu yerda, M - yukning og‘irlik markazi nuqtasi;

$\overline{F}$- faol kuchlar ($\overline{Q_{yuk}}$, $\overline{F^I}$, $\overline{F^A}$), N;

$\overline{Q}^x_{yuk}$, $\overline{Q}^y_{yuk}$, $\overline{Q}^z_{yuk}$- koordinata o‘qlarida yukning og‘irlik kuchi proyeksiyasi, N;

$$\overline{Q_{yuk}} = m\overline{g} \quad (2)$$

$\overline{F^R}$- qo‘shimcha mahkamlash vositasi (tortqich) ning bog‘lanish reaktivlik (elastiklik) kuchi, N;

$$\overline{F^R} = \overline{N_{kx}} \cdot \bar{i} + \overline{N_{ky}} \cdot \bar{j} + \overline{N} \cdot \bar{k} \quad (3)$$

$\overline{F^K}$- Koriolis inersiya kuchi, N;

$$\overline{F^K} = \overline{F}^K_x \cdot \bar{i} + \overline{F}^K_y \cdot \bar{j} + \overline{F}^K_z \cdot \bar{k} = m \cdot \overline{a_k} \quad (4)$$

$$\overline{a_k} = 2 \cdot \overline{\omega_e} \cdot \overline{v_n} \quad (5)$$

$$\overline{F^K} = 2m\overline{v_r} \times \overline{\omega_e} = 2 \cdot m \cdot \omega_e \cdot v \cdot sin(\overrightarrow{\omega_e}, \vec{v}) \quad (6)$$

Koriolis kuchini hisobga olganda natijaviy tezlanish quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$a = \sqrt{(\frac{dv}{dt})^2 + \frac{v^2}{R} + 4 \cdot (\omega_e \cdot v \cdot sin(\overrightarrow{\omega_e}, \vec{v}))^2} \quad (7)$$

$\overline{v_\tau}$-tangensial yoki nisbiy tezlik, m/s;

$\overline{\omega_e}$- nisbiy burchak tezlik, m/s;

$\overline{F}^K_x$,$\overline{F}^K_y$- Koriolis inersiya kuchi proyeksiyalari, N;

$\overline{F}^I_n$- normal inersiya kuchi, N;

Normal inersiya kuchi va uning tashkil etuvchilarini quyidagicha yozib olish mumkin:

$$F^I_n = \frac{m \cdot v^2}{R} \quad (8)$$

$$F^I_{ny} = F^I_n \cdot cos(\theta + \xi) \quad (9)$$

$$F^I_{nz} = F^I_n \cdot sin(\theta + \xi) \quad (10)$$

$\overline{F^I}$- o‘tkaziladigan inersiya kuchlari;

$$\overline{F^I} = \overline{F}^I_{kix} \cdot \bar{i} + \overline{F}^I_{kiy} \cdot \bar{j} + \overline{F}^I_{kiz} \cdot \bar{k} \quad (11)$$

$\overline{F}^I_x$,$\overline{F}^I_y$,$\overline{F}^I_z$- x,y,z o‘qlarida yukga ta’sir qiluvchi inersiya kuchlari, N;

$\overline{F^A}$- aerodinamik qarshilik kuchi, N;

$\overline{F^A_x}$,$\overline{F^A_y}$,$\overline{F^A_z}$- koordinata o‘qlaridagi aerodinamik qarshilik kuchining proyeksiyalari, N;

$$\overline{F^A} = \overline{F}^A_x \cdot \bar{i} + \overline{F}^A_y \cdot \bar{j} + \overline{F}^A_z \cdot \bar{k} \quad (12)$$

$$W_{shi} = k_i \cdot S_i \quad (13)$$

$$F^{AW}_i = s_1 \cdot \rho_h \cdot \frac{v^2_h}{2} \cdot w_{shi} \quad (14)$$

bu yerda,

k_i- yukning shamol yuzasining uzluksizligini hisobga oluvchi koeffitsient, N;

S_i - shamol ta’sir qiluvchi yuza, m^2;

ρ_h- havoning zichligi ($\rho_h = 1{,}29 kg/m^3$);

v_h- havoning tezligi, m/s;

s_1 -yukning shamol yuzasi shaklini hisobga olgan holda koeffitsient;

X_{F_A}, Y_{F_A}, Z_{F_A}- aerodinamik qarshilik kuchi ta’sir nuqtalari;

$\overline{F^R_{ni}}$- g‘ildirakni mahkamlash vositasi komplektidagi reaktivlik kuchlari, N;

$$\overline{F^R_{ni}} = \sum_{k=1}^{n} \overline{N_k} \quad (15)$$

n - yarim tirkamaning umumiy g‘ildiraklari soni;

k - yarim tirkama g‘ildiraklari raqami;

$\overline{F^R_{nix}}$,$\overline{F^R_{niy}}$- mahkamlash vositasi (tirak to‘sin)ning gorizontal va ko‘ndalang reaksiyasi, N;

Δs - yukning siljishi, m;

$\overline{F_{sh}}$- yarim tirkama shinasining platforma ustida harakatlanishiga to‘sqinlik qiladigan ko‘ndalang kuch, N;

$$F^x_{sh.b} = \mu_{sh} \cdot Q^{yuk}_z \quad (16)$$

$$F^x_{sh} = \mu_\alpha \cdot Q^{yuk}_z \quad (17)$$

$$F^y_{sh.b} = \mu_{sh} \cdot Q_{yuk} \cdot (cos(\theta) \cdot cos(\psi + \upsilon_0) - \frac{a_z}{g}) \quad (18)$$

$$F^y_{sh} = \mu_\alpha \cdot Q_{yuk} \cdot (cos(\theta) \cdot cos(\psi + \upsilon_0) - \frac{a_z}{g}) \quad (19)$$

μ_α- shinalarning yon tomonga sirpanish koeffitsiyenti;

a_z- vertikal nisbiy tezlanish, m/s^2;

$\overline{N_f}$- shina tebranishiga qarshilik kuchi, N;

$$\overline{N_f} = \mu_t \cdot \overline{F_z} \quad (20)$$

μ_t- tebranishga qarshilik koeffitsiyenti ($\mu_t = 0{,}007 \div 0{,}3$);

$\overline{F_{Px}}$- platforma poliga bo‘ylama reaksiya kuchi, N;

$$\overline{F_{Px}} = \overline{N_f} + \overline{F_{ishx}} \quad (21)$$

$\overline{F_{ishx}}$- bo‘ylama yo‘nalishda ishqalanish kuchi, N;

$\overline{F_{Py}}$- platforma poliga ko‘ndalang reaksiya kuchi, N;

$$\overline{F_{Px}} = \overline{F_{sh}} + \overline{F_{ishy}} \quad (22)$$

$\overline{F_{ishy}}$- ko‘ndalang yo‘nalishda sirpanish ishqalanish kuchi, N;

Kuch vektorlarining koordinata o‘qlaridagi proyeksiyalari:

X: $F_x^I - F_x^K - (Q_{yuk}^x + F_x^A) - F_{ix} - N_x - F_{nix}{}^R = ma_{rx} - F_{mqx}$ (23)

Y: $F_y^I + F_y^K + \left(F_{mqy} + F_y^A\right) - Q_{yuk}^y - F_{iy} - N_y - F_{sh} - F_{niy}{}^R = ma_{ry}$ (24)

Z: $-(Q_{yuk}^z - F_z^I) + N - F_{iz} - (F_z^A + F_{mqz}) = ma_{rz}$ (25)

bu yerda,

$F_{mqy} = -m\frac{v_{ry}^2}{R}$ va $F_{mqx} = -m\frac{dv_{\tau x}}{dt}$ dan hamda $\overline{v_\tau} = \overline{v_r}$dan

X: $F_x^I - F_x^K - (Q_{yuk}^x G_x + F_x^A) - F_{ix} - N_x - F_{nix}{}^R = m \cdot (a_{rx} + \frac{dv_{rx}}{dt})$ (26)

Y: $F_y^I + F_y^K - (Q_{yuk}^y - F_y^A) - F_{iy} - N_y - F_{sh} - F_{niy}{}^R = m \cdot (a_{ry} + \frac{v_{ry}^2}{R})$ (27)

Z: $-(Q_{yuk}^z - F_z^I) + N - F_{iz} - (F_z^A + F_{mqz}) = ma_{rz}$ (28)

$\overline{v_r} = const$ dan

X: $F_x^I - F_x^K - (Q_{yuk}^x + F_x^A) - F_{ix} - N_x - F_{nix}{}^R = ma_{rx}$ (29)

Y: $F_y^I + F_y^K - (Q_{yuk}^y - F_y^A) - F_{iy} - N_y - F_{sh} - F_{niy}{}^R = m \cdot (a_{ry} + \frac{v_{ry}^2}{R})$ (30)

Z: $-(Q_{yuk}^z - F_z^I) + N - F_{iz} - (F_z^A + F_{mqz}) = ma_{rz}$ (31)

bunda, ma_{rx}, ma_{ry}, ma_{rz} - koordinata o‘qlaridagi nisbiy inersiya kuchi proyeksiyalari, N;

$\overline{Q}_{yuk} \in (\overline{Q}_{yuk}^x, \overline{Q}_{yuk}^y, \overline{Q}_{yuk}^z)$ - koordinata o‘qlarida yukning og‘irlik kuchi proyeksiyalari, N;

$\overline{F^K} \in (\overline{F}_x^K, \overline{F}_y^K)$ - Koriolis inersiya kuchining o‘qlardagi proyeksiyasi, N;

$\overline{F^I} \in (\overline{F}_x^I, \overline{F}_y^I, \overline{F}_z^I), \overline{F}_n^I$, $\overline{F^A} \in (\overline{F_x^A}, \overline{F_y^A}, \overline{F_z^A})$ - faol kuchlar va ularning o‘qlardagi proyeksiyalari, N;

$\overline{F^{(i)}}, \overline{F}_{sh}, \overline{F^R} \in (\overline{N}, \overline{N}_x, \overline{N}_y)$, $\overline{F_{ni}^R} \in (\overline{F_{nix}^R}, \overline{F_{niy}^R})$ - reaktiv kuchlar va ularning o‘qlardagi proyeksiyalari, N;

Kontreyler tashishlarda avtotransport vositalarini temir yo‘l platformasiga mahkamlashning matematik modelini ishlab chiqish uchun yukning qiyin sharoitlarda harakatlanganida Δs siljish holatini ko‘rib chiqish lozim.

Harakat davomida yo‘lning murakkab sharoitlarida yukning siljish holatlari sodir bo‘ladi (2-rasm).



2-rasm. Yuk siljishining mahkamlash vositasiga ta’siri

Temir yo‘l uchastkalarida yuk poyezdlari uchastka tezliklariga birinchi darajali ($O_{uch.1}$) texnik va texnologik ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning qiymatlari PHG bilan muvofiqligi va rejalashtirilganligi sababli shartli ravishda doimiy deb tasniflanadi. Shartli ravishda doimiy ta’sir ko‘rsatuvchi texnik va texnologik omillar uchastka tezliklarining o‘rnatilgan texnik me’yorlari qiymatlarini o‘rnatishda noaniqlik keltirmaydi, biroq ikkinchi darajali ($O_{uch.2}$) ta’sir ko‘rsatuvchi omillar uchastka tezliklarini bajarilish darajasiga ta’sir ko‘rsatadi (2-rasm).

Yuklarga ta’sir qiluvchi kuchlarning yo‘nalishlari va qiymatlari turlicha bo‘lganligi uchun ularning natijaviy ko‘rsatkichlarini aniqlash lozim. Bunda har bir o‘q bo‘yicha ta’sir qiluvchi kuchlar alohida hisoblanadi. Ta’sir qilayotgan nuqtaga perpendikulyar yo‘nalmagan kuchlarni hisoblashda ularni mos o‘qga proyeksiyalash usuli qo‘llaniladi. Bunda ta’sir qiluvchi kuchning o‘qga nisbatan burchagi va yo‘nalishi inobatga olinadi. Turli mahkamlash elementlari va vositalarining turi hamda sonini tanlash uchun ularga tushuvchi siljitish kuchlarini aniqlash kerak.

Mahkamlash elementining tashqi kuch ta’sirida uzayishi:

$$\Delta l_i = \Delta s \cdot (\cos\alpha_i \cdot \cos\beta_{oi} \cdot \cos\lambda^{(i)} + \cos\alpha_i \cdot \sin\beta_{oi} \cdot \sin\lambda^{(i)} + \sin\alpha_i) \cdot \cos\varepsilon^{(i)} \quad (32)$$

bunda,

$$\cos(\overline{\Delta F^{oi}}, \overline{\Delta F^{i}}) = \frac{\Delta F^{oi}}{\Delta F^{i}} \text{ yoki } \cos\varepsilon = \frac{\Delta F^{oi}}{\Delta F^{i}} \quad (33)$$

Mahkamlash elementining proyeksiyasidan:

$$\Delta l_i = \Delta s \cdot (\frac{a_i}{l_i} \cdot \cos\lambda^{(i)} + \frac{b_i}{l_i} \cdot \sin\lambda^{(i)} + \frac{h_i}{l_i}) \cdot \cos\varepsilon^{(i)} \quad (34)$$

bunda,

a_i, b_i, h_i- tortqichning bo‘ylama, ko‘ndalang va vertikal koordinata o‘qlaridagi uzunliklari, m;

$\lambda^{(i)}$, $\varepsilon^{(i)}$- kuchlar fazoviy tizimlarining yo‘nalishlarini tavsiflovchi burchaklar, °;

Guk qonuniga asosan mahkamlash vositasining zo‘riqish kuchi:

$$F_i^R = k \cdot \Delta l_i \quad (35)$$

$$k = \frac{E \cdot S}{l_0} \quad (36)$$

$$S = \pi \cdot R^2 = \pi \cdot \frac{d^2}{4} \quad (37)$$

(37) dan (36) ning ko‘rinishi quyidagicha bo‘ladi:

$k = \frac{\pi}{4} \cdot \frac{E}{l_0} \cdot d^2$ ekanligidan po‘lat sim uchun

$$F_i^R = \frac{\pi}{4} \cdot E \cdot d_i^2 \cdot \frac{n_i}{l_i} \cdot \Delta l_i \quad (38)$$

bu yerda, k - tortqichning deformatsiyasini xarakterlovchi bikrlik, N/m;

π - 3,14

E - Yung moduli (po‘lat uchun 190-210 Gpa);

F_i^R- zo‘riqish kuchi (kN);

n_i va d_i- tortqichdagi simlarning soni va mahkamlash simining diametri, m;

$l_i = l_0$- moslashuvchan mahkamlash vositasi (tortqich) ning boshlang‘ich uzunligi, m;

(34), (38) dan Δs siljishdagi zo‘riqish kuchi:

$$F_i^R = \Delta s \cdot \frac{\pi}{4} \cdot E \cdot d_i^2 \cdot \sum_{i=1}^{n_p} \frac{n_i}{l_i} \cdot (\frac{a_i}{l_i} \cdot \cos\lambda^{(i)} + \frac{b_i}{l_i} \cdot \sin\lambda^{(i)} + \frac{h_i}{l_i}) \cdot \cos\varepsilon^{(i)} \quad (39)$$

(39) ga qo‘llash orqali:

$$\Delta s \cdot \frac{\pi}{4} \cdot E \cdot d_i^2 \cdot \sum_{i=1}^{n_p} \frac{n_i}{l_i} \cdot (\frac{a_i}{l_i} \cdot \cos\lambda^{(i)} + \frac{b_i}{l_i} \cdot \sin\lambda^{(i)} + \frac{h_i}{l_i}) \cdot \cos\varepsilon^{(i)} \times \times \sqrt{(\frac{a_i}{l_i} + \mu_{sh} \cdot \frac{h_i}{l_i} \cdot \cos\lambda)^2 + (\frac{b_i}{l_i} + \mu_{sh} \cdot \frac{h_i}{l_i} \cdot \sin\lambda)^2 + \frac{h_i}{l_i}^2} = \Delta F_i \quad (40)$$

Ta’sir kuchi yo‘nalishida yukning siljishi:

$$\Delta s = \frac{\Delta F_i}{c_{ekv}^F} \quad (41)$$

c_{ekv}^F- ta’sir kuchi yo‘nalishi bo‘yicha yarim tirkamaning egiluvchan simli nahkamlagichlari va elastik vositalarning ekvivalent qattiqligi;

(41) ifoda orqali mahkamlash vositasining ekvivalent qattiqligini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$c_{ekv}^F = \frac{\pi}{4} \cdot E \cdot d_i^2 \cdot \sum_{i=1}^{n_p} \frac{n_i}{l_i} \cdot (\frac{a_i}{l_i} \cdot \cos\lambda^{(i)} + \frac{b_i}{l_i} \cdot \sin\lambda^{(i)} + \frac{h_i}{l_i}) \cdot \cos\varepsilon^{(i)} \times \times \sqrt{(\frac{a_i}{l_i} + \mu_{sh} \cdot \frac{h_i}{l_i} \cdot \cos\lambda)^2 + (\frac{b_i}{l_i} + \mu_{sh} \cdot \frac{h_i}{l_i} \cdot \sin\lambda)^2 + \frac{h_i}{l_i}^2} \quad (42)$$

Yarim tirkamani mahkamlash mustahkamligi uchun:

$$F_i^{Rel} = \Delta s \cdot \frac{\pi}{4} \cdot E \cdot d_i^2 \cdot \sum_{i=1}^{n_p} \frac{n_i}{l_i} \cdot (\frac{a_i}{l_i} \cdot \cos\lambda^{(i)} + \frac{b_i}{l_i} \cdot \sin\lambda^{(i)} + \frac{h_i}{l_i}) \cdot \cos\varepsilon^{(i)} \le [F_i^R] \quad (43)$$

bu yerda,

$[F_i^R]$ - mahkamlashda ruhsat etilgan zo‘riqish qiymati, N;

$$\Delta s_x = \frac{\Delta F_{ix}}{c_{ekvx}^F} \quad (44)$$

$$\Delta s_y = \frac{\Delta F_{iy}}{c_{ekvy}^F} \quad (45)$$

$$\Delta s_z = \frac{\Delta F_{iz}}{c_{ekvz}^F} \quad (46)$$

Siljish qiymati:

$$\Delta s = \sqrt{(\Delta s_x)^2 + (\Delta s_y)^2 + (\Delta s_z)^2} \quad (47)$$

bu yerda,

Δs_x, Δs_y, Δs_z- yukning bo‘ylama, ko‘ndalang va vertikal siljishi, m;

Olingan formula kontreyler tashishlarda avtotransport vositasini platformaga mahkamlash texnologiyasining yanada aniqroq, xavfsiz va ishonchli tanlash imkonini beradi.

4. Xulosa

Temir yo‘l platformasiga ortilgan yarim tirkama uchun ishlab chiqilgan matematik model yordamida mahkamlash vositasining mustahkamligi chegarasini inobatga olib, yukning siljish masofasi, mahkamlash vositasi (tortqich) ning umumiy soni, simlari soni, simning diametri va qattiqlik darajasiga asosan materilini tanlash imkoniyati mavjud.

Bunda poyezdning harakat tezligi 5 m/s bo‘lganida tortqichga ta’sir etuvchi kuch 100,1 kN, tezlik 15 m/s bo‘lganida kuch 100,3 kN, 25 m/s bo‘lganida kuch 100,9 kN bo‘lishi yarim tirkama uchun aniqlandi. 2-rasmda esa mahkamlash vositalari ortishi yukning siljish masofasini kamayishiga olib kelishi ko‘rsatilgan. Bunda mahkamlash vositalarining soni 2 ta bo‘lganida siljish masofasi 30 mm, 3 ta bo‘lganida siljish masofasi 20 mm, 4 ta bo‘lganida siljish masofasi 15 mm atrofida bo‘lishi olindi.

Olingan formula va blok-sxema kontreyler tashishlarda avtotransport vositasini platformaga mahkamlash texnologiyasining yanada aniqroq, xavfsiz va ishonchli tanlash imkonini beradi.

Foydalangan adabiyotlar / References

[1] Технические условия размещение и крепление грузов, Ташкент-2015, 712 стр.

[2] Gordiyenko A.A. Совершенствование организации перевозок автотехники на открытом подвижном составе: Дисс. на соиск. уч. ст. кан. техн. наук: 05.22.08. -Е.: 2015. -195 с.

[3] Yueting Wang, Zuoyi Liu. The Research on Technical Qualifications of Railway Piggyback Transportation in China. 4th International Conference on Mechanical Materials and Manufacturing Engineering (MMME 2016), 834-838 p.

[4] Цыганов А.В. Расчёт нагрузок, действующих на автомобильные транспортные средства при железнодорожных перевозках. Актуальные проблемы

современной науки, техники и образования. Т.10. №1: 2019.- ст. 116-119.

[5] Jamol Shihnazarov, Investigation of the longitudinal forces acting during the transportation of flat cargo on sites in the road profiles with a slope of railway transport Diyor Boboev and Elbek Shermatov, AIP Conference Proceedings 2432, 030112 (2022); https://doi.org/10.1063/5.0089976

[6] J. A. Shihnazarov, Comparison of technical and economicperformance of wire and chain tracks used instrengthening loads in open traffic, D. Sh. Boboev, E. S. Shermatov, R. Sh. Bozorov, Cite as: AIP Conference Proceedings 2612, 060024 (2023); https://doi.org/10.1063/5.0130838

[7] Boboev D.Sh., Mukhamedova Z.G. Development of international transportation on the basis of creating a system of contrailer transportation |pedagog // Pedagog. Vol. 5 №4. 2022, 10-23 p.

[8] Boboev D.Sh, Bozorov R.Sh., Shermatov E.S Choose types of transport and improve their cooperation in the process of delivery of cargo // Экономика и социум. 2021, №5(84), 98-105 betlar

[9] Muhamedova Z.G., Boboyev D.Sh. Yuklarni yetkazib berish jarayonida zamonaviy tashish tizimini takomillashtirishni tadqiq qilish // Railway transport: topical issues and innovations, №3(1), 2022/3/28, 15–24.

[10] Muxamedova Z.G., Boboyev D.Sh. Kontreyler tashishni qo‘llash orqali ekologik xavfsiz transport tizimini tashkil etish // «Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot» / Innovative academy.uz. 8(08) – Toshkent, 2022.

[11] Бобоев Д.Ш., Мухамедова З.Г., Якупбаев Х.М. Обоснование факторов, влияющих на технологию контрейлерных перевозок // Известия транссиба. 2022-yil, №3(51), Ст. 136-144.

[12] Boboev D.Sh., Shihnazarov J.A., Dehkonov M.M., Ikramova D.Z. Choice of an efficient mode of transport on the basis of comparison of technical and economic indicators of types of transport. E3S Web of Conferences 389, 05032, 2023-yil, 1-7 pp.

Mualliflar to‘g‘risida ma’lumot/ Information about the authors

Adilova (Muxamedova) Ziyoda Gafurdjanovna	Toshkent davlat transport universiteti “Yuk transport tizimlari” kafedrasi professori. t.f.d (DSc), E-mail: mziyoda@mail.ru Tel.: +99890 3298300 https://orcid.org/0000-0002-1825-2447
Boboyev Diyor Shomurotovich	Toshkent davlat transport universiteti “Yuk transport tizimlari” kafedrasi assistenti. t.f.f.d (PhD). E-mail: diyor1803boboyev@gmail.com Tel.: +99890 4141803 https://orcid.org/0000-0003-0785-2209
Axtamov Navruz Baxtiyorovich	Toshkent davlat transport universiteti “Yuk transport tizimlari” kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: axmatov.navruz@bk.ru Tel.: +99894 6206166 https://orcid.org/0009-0004-8987-961X

Problems caused by the impact of heavy trucks on the surface of asphalt concrete pavements

A.X. Urokov[1][a], E.T. Ashurov[2][b], U.B. Bekmurodov[2]
[1]Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan
[2]Termez state of engineering and agrotechnologies university, Termez, Uzbekistan

Abstract: Analysis of the current condition of the 1400-1426 km section of the M-39 "Almaty-Bishkek-Tashkent-Shahrisabz-Termiz" highway in the southern region of our republic shows that the heavy load on the road surface and bridge surfaces is caused by vehicles. There are a number of structural problems and deficiencies in the load-bearing capacity of the road surface, and there are a number of structural problems and defects in the road surface.
Keywords: Heavy load, asphalt concrete pavement, transport, displacement, wheel track, deformation, defect

Asfaltbeton qoplamalari yuzasida og‘ir yuk avtomobillarining tasiri natijasida vujudga kelgan muammolar

Urokov A.X.[1][a] , Ashurov E.T. [2][b] , Bekmurodov U.B. [2]
[1]Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
[2]Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya: Respublikamizning janubiy hududidagi M-39 “Almata-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz" avtomobil yo‘lining 1400-1426 km qismining hozirgi holatidagi taxlilar shuni ko‘rsatadiki, yo‘l qoplamasi va ko‘prik qoplamalariga og‘ir yuk transport vositalaridan tushadigan yuklamalar ta’sirida bo‘ylama noravonliklar, deformatsiya, buzilishlar, qoplamaning yuk ko‘tarish qobiliyatidagi bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar yuzaga kelmoqda. Natijada, avtomobil yo’llarining belgilangan xizmat muddatini ta’minlanmasligi, yo‘l qoplamasida ko‘p sonli deformatsiya va buzilishlar, nuqsonlar paydo bo‘lishi yo‘l harakati xavfsizligiga katta ta’sir ko ‘rsatmoqda.
Kalit so‘zlar: Og‘ir yuk, asfaltbeton qoplama, transport, siljish, g‘ildirak izi, deformatsiyalar, nuqson

1. Kirish

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari, shahar ko‘chalari va ichki xo‘jalik yo‘llarini, ko‘prik va boshqa sun’iy inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari amalga oshirildi. Respublikada transport logistikasi sohasini rivojlantirish va tranzit salohiyatini oshirish, hamda transport sohasida keng ko‘lamli amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari hisobiga amaldagi 25 tonna va undan ortiq yuk ko‘tarish qobiliyatiga ega uch, to‘rt va undan ko‘p o‘qli avtotransport vositalarining importi sezilarli darajada ko‘paydi. Bugungi kunda avtomobil yo ‘llarida katta hajmli va og‘ir vaznli avtotransport vositalarining harakat jadalligi oshib borayotgan bir vaqtda ularning vazn va hajm parametrlarini nazorat qilish to‘liq tartibga solinmaganligi hamda ushbu yo‘nalishda avtomatlashtirilgan tizimlarni qo‘llanilmayotganligi sababli, yo‘llarni saqlanganligini ta’minlashda bir qator muammolar yuzaga kelmoqda, xususan avtomobil yo‘llari, ko‘priklar va yo‘l o‘tkazgichlarning ta’mirlashlararo va xizmat qilish muddatlarini qisqarishi va ekspluatatsiya xarajatlarini ortishi, yo‘llarda bo‘ylama va ko‘ndalang noravonliklarini yuzaga kelishi, ushbu yo‘l bo‘laklarida harakat tezligini pasayishi va harakatning xavflilik darajasini ortishi . Ekspluatatsiya davrida avtomobil yo‘llari qoplamalarining jadal deformatsiyalanishi va buzilishning sabablaridan biri - ularning ishlash sharoitlarini o‘zgarishidir. Yuqori havo haroratida yo‘lning asfaltbeton qoplamasi harorati yuqori bo‘ladi, natijada asfaltbeton tarkibidagi bitum bog’lovchisining yumshashi oqibatida uning elastiklik modulini kamayishi kuzatiladi.

2. Tadqiqot metodikasi

Yozgi hisobiy davrda asfaltbeton qoplamasining elastiklik modulini kamayishi davrida transport oqimining miqdor va sifat jihatdan o‘zgarishi natijasida og‘ir yuk transport vositalarining o‘qiga tushadigan yuklamasini ortib borishi hisobiga yo‘l qoplamasining ko‘ndalang noravonliklarini yuzaga kelishi, shuningdek harakat tezligi pasayishi yuzaga keladi [1].

[a] https://orcid.org/0000-0001-8404-3013
[b] https://orcid.org/0009-0007-2900-0046

Asfaltbeton qoplamalarda ko‘p yuzaga keladigan muammolar quyidagilar hisoblanadi: yoriqlar, o‘yiqlar, cho‘kishlar, siljishlar, g‘ildirak izlari. Bugungi kunda bunday nuqsonlarning paydo bo‘lishiga transport oqimida hisobiy avtomobillarda belgilangan bitta o‘qqa tushadigan hisibiy yukdan yuqori bo’lgan og‘ir yuk abtomobillarining sonini keskin ko‘payib borayotganligi sabab bo‘lmoqda [2]

Qoplamalarga transport vositalaridan va tabiiy-iqlim omillardan tushadigan zo‘riqishlar ruxsat etilgan me’yorlardan ortib ketganda qoplama deformatsiyalanadi. Yilning turli fasllarida havo haroratining o‘zgarishlari, qoplamalarda muzlash-erish jarayonlarining kechishi natijasida asfaltbeton qoplamalarda kuchlanishlar hosil bo‘ladi. Asfaltbeton qoplama elastik-plastik material bo‘lganligi, qizish sovish jarayonlarda xususiyatlari o‘zgarishi, mo‘rt holatdan plastik holatga o‘tishi sabablaridan plastik deformatsiyalar yuzaga keladi. Bunda qoplamaning deformatsiyaga bardoshliligi turli yuklamalarning ta‘sir etish davomiyligiga bog‘liq bo‘ladi. Yilning issiq vaqtlarida qoplama harorati ancha ko‘tarilib asfaltbeton yumshab qoladi va transport vositalari ta’sir etganidan qoldiq deformatsiyalar to‘planib qoladi [1].

Qoplama yuzasida ishlash jarayonida turli xil deformatsiyalar, jumladan g‘ildirak izi deformatsiyasi hosil bo‘ladi (1-rasm).



1– rasm. Qoplamada g‘ildirak izi shakllanishining asosiy sxemalari: a) yuzaki g‘ildirak izi; b) pastki qatlamlarda xam hosil bo‘luvchi g‘ildirak izi.

Respublikaning janubidagi Surxondaryo viloyatidan o‘tadigan xalqaro ahamiyatdagi “M-39 “Almata-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz” avtomobil yo‘lining 1330-1451km (121 km) bo‘lagini rekonstruktsiya qilish loyihasi xalqaro sarmoyalar hisobidan bajarildi. Hozirgi kunda ushbu yo‘l bo‘lagidan o‘tadigan transport oqimi tarkibida yuqori dinamik xususiyatlarga ega bo‘lgan xorijiy rusumdagi avtomobillarni harakat jadalligi ortib bormoqda. Ushbu hududlarda Sherabodsement zavodi hamda Sherabod qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi karerlar joylashgan bo‘lib, ularda tashilayotgan yuk miqdorlarining belgilangan o‘qqa tushadigan yuklama me’yoridan yuqori ekanligi aniqlandi.

Katta hajmli va og‘ir vaznli yuklarni avtomobil transportida tashish Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 26 dekabrdagi 342-son qaroriga asosan quyidagicha:

Avtotransport vositalarining ruxsat etilgan massasi ko‘rsatgichlari

1-jadval

Transport vositasi turi	Ko‘rsatkich (t)
Yakka avtotransport vositalari:	
ikki o‘qli	18
uch o‘qli	26
to‘rt o‘qli	32
Mingashmali va tirkamali avtopoezdlar:	
uch o‘qli	28
to‘rt o‘qli	36
besh o‘qli	40
olti va undan ortiq o‘qli	44

Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llari yo‘l to‘shamasining mustahkamligini hisoblashda avtomobilning eng ko‘p yuklangan yakka o‘qidagi og‘irlik I-II toifa uchun 130 kN (13 t), III-V toifa uchun 100 kN (10 t) qabul qilingan [3]. Respublikamizdagi ko‘pgina avtomobil yo‘llaridagi yo‘l to‘shamasiga tushadigan og‘irlik ushbu me’yoriy qiymatlardan oshib ketgan holatlar ko‘p uchraydi.

Xalqaro ahamiyatdagi M39 “Almata-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz” avtomobil yo‘lini Surxondaryo viloyatidan o‘tadigan bo‘lagini rekonstruktsiyadan keyin foydalanishga topshirilmasdan (qoplama yotqizilganiga 3 yil bo‘lgan) ushbu yo‘l bo‘lagida ko‘p sonli deformatsiya va buzilishlar: yoriqlar, o‘yiqlar, cho‘kishlar, siljishlar, g‘ildirak izlari, yo‘l qoplamasining bo‘ylama va ko‘ndalang noravonliklar va buzilishlar yuzaga kelishi kuzatilmoqda. Bunday nuqsonlarni paydo bo‘lishini bartaraf etish, avtomobil yo‘lining zarur transport-ekspluatatsion ko‘rsatkichlarini uzoq muddatli saqlashni ta‘minlash, yo‘l qoplamasining yaxlitligini saqlash va xizmat muddatini oshirishga yordam beradigan samarali yechimlar topish maqsadida M39 “Almata-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz” avtomobil yo‘lining 1395-1420 km qismlarida kuzatuv ishlari olib borildi (2-rasm).

2– rasm. M-39 “Almata-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz” avtomobil yo'lining 1398-1420 kmlarda qoplama g‘ildirak izi va siljish deformatsiyalar

Bugungi kunda og‘ir yuk avtomobillarini ko‘payib ketishi me’yordan ortiq yuk ortishi oqibatida qoplamaga jiddiy zarar yetkazmoqda. Yo‘l qoplamalarida g‘ildirak izini paydo bo‘lishi hamda ko‘prik qoplamalarini siljishi ortidan foydalanishga topshirilmasdan (qoplama yotqizilganiga 3 yil bo‘lgan), bugungi kunga kelib yo‘l bo‘lagi qoplamasi qayta ta’mirlanmoqda.

Ushbu buzulishlar sababini tadqiq qilish maqsadida «Sherabod yo‘llardan foidalanish» unitar korxonasi mutaxassislari 2023 yil sentabr oyida xalqaro ahamiyatga molik M39 «Almati-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz» avtomobil yo‘lining 1402 kilometrida “Sherabod-Termiz” yo‘nalishida og‘ir yuk transport vositalarining vazn va hajm o‘lchamlarini nazorat qilish mobil tarozi ishga tushirildi.

Og‘ir yuk transport vositalari nazorat qilinganda ortiqcha vazn yuk bilan harakatlanayotgan transport vositalari aniqlandi (2-jadval).

3– rasm. M-39 “Almata-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz” avtomobil yo'lining 1402 kmda og‘ir yuk transport vositalarining vaznini TENZO mobil tarozida o‘lchov ishlari

2-jadval

M-39 “Almata-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz” avtomobil yo‘lining 1395-1420 kmlarida mobil tarozi nazorat punkitlar

№	Sana va vaqt	Og‘ir yuk avtomobillarni o‘qlar soni						Umumiy og‘irlik (т)	Ortiqcha og‘irlik yuk (т)	Foto
		1-o‘qli (т)	2-o‘qli (т)	3-o‘qli (т)	4-o‘qli (т)	5-o‘qli (т)	6-o‘qli (т)			
1.	13.11.2023 Soat 08:44	8.50	14.02	13.05	17.43	11.91	10.52	75.43	11.43	
2.	13.11.2023 Soat 09:04	7.08	18.71					25.79	7.79	
3.	14.11.2023 Soat 09:29	8.19	18.90	18.76				45.85	19.85	
4.	23.12.2023 Soat 09:41	9.41	20.85	20.30				50.56	24.56	
5.	16.01.2024 Soat 10:52	6.30	17.23					23.53	5.53	
6.	16.01.2024 Soat 10:58	7.17	18.21					25.38	7.38	
7.	16.01.2024 Soat 11:01	9.29	18.82	17.97				46.08	20.08	
8.	16.01.2024 Soat 11:25	6.87	18.75	17.62				43.24	17.24	
9.	22.01.2024 Soat 11:37	5.57	13.77					19.34	1.34	
10.	22.01.2024 Soat 12:11	7.80	14.77	14.75				37.32	11.32	
11.	1002.2024 Soat 09:30	8,37	14,2	13,64	13,49	13,28	15,66	78,64	34, 64	
12.	10.02.2024 Soat 11:18	6,79	8,55	7,98	4,96	10,06	9,94	48,28	4,28	
13.	04.03.2024 Soat 11:30	7,58	12,42	11,9				31,9	5.9	
14.	04.03.2024 Soat 11:42	7,14	12,31	6,92	7,17			33,54	1.54	



4-rasm. Nazorat punktida aniqlangan qoidabuzarlar soni



5-rasm. Nazorat punktida aniqlangan qoidabuzarlar transport vositasining o‘qlar soni kesimida

M-39“Almata-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz” avtomobil yo‘lining 1402 kmda og‘ir yuk transport vositalarining vaznini Sherabod tumanida joylashgan mobil TENZO nazorat tarozisidan 2023 yil oktabr oyidan 2024 yil mart oyiga qadar umumiy nazoratdan o‘tgan og‘ir transport vositasining soni 458 ta bo‘lib, meyyordan ortiq yuklangan transport vositalari 124 dona (27 %) ni tashkil etdi.

3. Xulosa

Xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo‘llarining transport-ekspluatatsion sifatlarini oshirish, viloyatlar oralig‘ida ishonchli transport muhitini tashkil qilish, tranzit aloqani yaxshilash maqsadida M-39 “Almata-Bishkek-Toshkent-Shahrisabz-Termiz” avtomobil yo‘lining saqlanganligini ta’minlash muhim hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘ladiki, me’yordan ortiq vaznli transport vositalari harakatlanishi davomida asfaltbeton qoplamali avtomobil yo‘llarida g‘ildirak izi deformatsiyasini hosil bo‘lishi jadallashib bormoqda.

Natijalari shuni ko‘rsatadiki og‘ir yuk avtomobillaridan tushadigan yuklar yo‘l qoplamasini xizmat qilish muddatini kamaytiradigan eng asosiy omillardan biri bo‘lmoqda. 2023 yil oktabr, noyabr, dekabr, 2024 yil yanvar, fevral, mart oylarida tadqiqot o‘tkazildi. Tadqiqotlar natijasiga ko‘ra quydagilar aniqlandi:

- Og‘ir yuk avtomobilidan tushayotgan eng kam ortiqcha yuk 1.01 tonna
- Og‘ir yuk avtomobilidan tushayotgan eng ko‘p ortiqcha yuk 34.64 tonna
- Og‘ir yuk avtomobilidan tushayotgan ortacha og‘ir yuk 10.71 tonna

Shu o‘rnida aytish mumkinki, mamlakatimiz hududida iqlim sharoiti tez o‘zgaruvchan bo‘lganligi uchun yoz kunlarida janubiy hududlarda harorat (Termiz) 46 °C ga teng. Surxondaryo viloyati mamlakatimizni eng issiq hududlaridan biri bo‘lganini inobatga olgan holda yo‘llarni saqlash hamda xizmat qilish muddatini uzaytirishga quydagi takliflarni berib o‘tamiz:

- og‘irlik va gabarit parametrlarini nazorat qilishning avtomatlashtirilgan o‘lchov tizimlari bilan jihozlangan og‘irlik va gabarit nazorati bo‘yicha statsionar shoxobchalarni o‘rnatish;
- yuqori haroratli iqlim sharoitlarda havo harorati 40 oC dan o‘tgandan so‘ng og‘ir yuk avtomobillar harakatini vaqtincha cheklash;
- asfaltbeton qoplamali yo‘llarda g‘ildirak izi deformatsiyasini keltirib chiqaruvchi omillarni oldini olish;
- bog‘lovchi yo‘l qurilish materiallarni yuqori haroratga chidamliligini oshirish;

avtomobil yo‘llarini qurishda, qurish texnologiyasini to‘g‘ri tashkil qilinishini nazorat qilish.

Foydalangan adabiyotlar / References

[1] Abdunazarov, A., & Sharofitdin, Y. (2023). Binoga ta’sir etayotgan seysmik sirt to‘lqinlarni aniqlash va seysmik to‘siq (penopoliuretan) yordamida kamaytirish.

[2] Abdunazarov, A., & Sharofitdin, Y. (2023). Yer osti suvlari sathining seysmik sirt to‘lqinlari tarqalishiga ta’siri.

[3] Abdunazarov, A., & Sharofitdin, Y. (2023). Binoga ta’sir etayotgan seysmik sirt to‘lqinlarining grunt xususiyatiga bog’liqligi.

Mualliflar to‘g‘risida ma’lumot/ Information about the authors

Urakov Asliddin Xushvaqtovich	Toshkent davlat transport universiteti “Yo‘l muhandisligi” fakulteti t.f.d. prof, Tel.: +998977842608
Ashurov Elyor To‘lqinovich	Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti “Yo‘l muhandisligi” kafedrasi assistenti. E-mail: elyor.ashurov.2015@mail/ru Tel.: +998902473390
Bekmurodov Umid Bekmurodovich	Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti “Yo‘l muhandisligi” kafedrasi assistenti. E-mail: umidbekmurodov.2021@gmail/ru Tel.: +99886920987

Modern state and prospects of high-speed passenger train movement on the railways of Uzbekistan

R.Sh. Bozorov[1][a], S.B. Sattorov[1][b], Sh.U. Saidivaliev[1][c], D.Sh. Boboev[d], Z.V. Ergasheva[1][e]

[1]Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: This article analyzes the existing technology of moving trains of various categories on high-speed highways, as well as the current state and prospects for the organization of high-speed train traffic on the railways of the Republic. The main usage indicators of the Uzbekistan-Khovos section, where there are different types of train traffic, were analyzed, the times of freight trains at intermediate stations in order to pass high-speed passenger trains and the total number of stops were determined.

Keywords: High speed, freight train, dwell time, number of stops, usage figures, section speed, technical speed

O‘zbekiston temir yo‘llarida yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poezdlari harakatini taskil etishning zamonaviy holati va istiqbollari

Bozorov R.Sh.[1][a], Sattorov S.B.[1][b], Saidivaliyev Sh.U.[1][c], Boboev D.Sh.[1][d], Ergasheva Z.V.[1][e]

[1]Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuqori tezlikdagi magistrallarda turli toifadagi poezdlarni o‘tkazishning mavjud texnologiyasi shuningdek, Respublika temir yo‘llarida yuqori tezlikdagi poezdlar harakatini tashkil etishning hozirgi holati va istiqbollari tahlil qilingan. Turli toifadagi poezdlar harakati mavjud bo‘lgan “O‘zbekiston-Xovos” uchastkasining asosiy foydalanish ko‘rsatkichlari tahlil qilindi, yuk poezdlarini yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poedlarini o‘tkazib yuborish maqsadida oraliq stansiyalarida turish vaqtlari va umumiy to‘xtab turishlar soni aniqlab olindi.

Kalit so‘zlar: Yuqori tezlik, yuk poezdi, turish vaqti, to‘xtab turishlar soni, foydalanish ko‘rsatkichlari, uchastka tezlik, texnik tezlik

1. Kirish

Respublikamizning turistik salohiyati va jozibadorligini oshirish bo‘yicha qo‘llanilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2022 yilda xorijdan sayyohlik maqsadida tashrif buyurgan turistlar soni 2021 yilga nisbatan 3,1 marta ortgan shuningdek, turizm xizmatlari eksporti 2021 yilda 422,1 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2022 yilda bu ko‘rsatkich 1,6101 mlrd. AQSh dollariga yetgan. Kelgusida sayyohlar sonini 20 mln.gacha yetkazish ko‘zda tutilmoqda. Ularni respublikamizning ko‘hna turizm ob’ektlariga yuqori darajadagi servis xizmatlarini ko‘rsatgan holda yetib borishini ta’minlash maqsadida tezyurar va yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poezdlari qatnovi ko‘lamini kengaytirish yuzasidan ko‘plab sa’y-harakatlar amalga oshirilishini taqozo etadi. Xususan, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida barcha transport turlarini uzviy bog‘lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, shaharlararo va shahar atrofi temir yo‘l qatnovlari jozibadorligini oshirish, shuningdek temir yo‘l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish orqali temir yo‘l transportini jadal rivojlantirish maqsad sifatida belgilab qo‘yildi [1]. Yaqin kelajakda tezyurar va yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poezdlari qatnovi ko‘lamining kengayishi temir yo‘llarda rekonstruktiv tadbirlarni amalga oshirish, qo‘shimcha yo‘llarni qurish va ularni elektrlashtirish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Ungacha bo‘lgan davrda esa yuqori tezlikdagi magistrallarida mavjud texnik va texnologik imkoniyatlardan to‘liq foydalangan holda poezdlar harakatini samarali tashkil etish texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga tatbiq qilish maqsadga muvofiq.

[a] https://orcid.org/0000-0001-8655-0764
[b] https://orcid.org/0000-0001-7273-0449
[c] https://orcid.org/0000-0002-4461-4093
[d] https://orcid.org/0000-0003-0785-2209
[e] https://orcid.org/0000-0003-1651-0892

2. Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi

Hozirgi kunda “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ temir yo‘l tarmog‘ining umumiy uzunligi 7500 km atrofida, bundan 3528,1 kmdan ortiq yo‘llar elektrlashtirilgan. 731,9 km (10 %) uzunlikdagi yo‘llarda 160 km/soatgacha, 243,5 km (3 %) uzunlikdagi yo‘llarda esa 250 km/soatgacha tezlikda poezdlarning harakatlanishi imkoniyati yaratilgan (1-rasm). Bu yo‘llarda tezyurar “Sharq”, “Nasaf” va yuqori tezlikdagi “Afrosiyob” elektrpoezdlar harakatlanmoqda [1-3].

Respublikamizda 2011 yilda “Afrosiyob” yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poezdlari harakati avval Toshkent-Samarqand yo‘nalishida, keyinchalik Toshkent-Buxoro va Toshkent-Qarshi yo‘nalishlarida yo‘lga qo‘yilgan. Yaqin kelajakda Buxoro-Miskin va Urganch-Xiva yangi temir yo‘l uchastkalarini elektrlashtirish ishlari to‘liq yakuniga yetgach, bu poezdlar sonini 10 tadan ziyodga oshirish mo‘ljallangan.

1-rasm. “O‘TY” AJ temir yo‘l tarmog‘ida belgilangan harakat tezliklari ulushi

Umuman olganda, har hafta respublika temir yo‘l vokzallaridan 84 juft yo‘lovchi poezdlari harakatlanadi. Yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poezdlaridan tashqari uzoqqa qatnovchi, mahalliy va shahar atrofi yo‘lovchi poezdlari quyidagi yo‘nalishlarda harakatlanmoqda: Toshkent-Termiz, Toshkent-Xiva, Toshkent-Shovot, Qumqo‘rg‘on-Sariosiyo, Toshkent-Buxoro, Toshkent-Qo‘ng‘irot, Toshkent-Andijon, Andijon-Buxoro, Andijon-Xiva, Andijon-Termiz va h.k. [2].

“O‘TY” AJning biznes rejasiga asosan oxirgi to‘rt yil mobaynida temir yo‘l transporti orqali tashilgan yo‘lovchilar soni va jo‘natilgan yuklar miqdori quyidagicha bo‘ldi (2- va 3-rasmlar).



2-rasm. Temir yo‘l transporti orqali tashilgan yo‘lovchilar soni



3-rasm. Temir yo‘l transporti orqali jo‘natilgan yuklar miqdori

Yuqori tezlikdagi yo‘lovchi va yuk poezdlari sonining hamda yo‘lovchi poezdlari tezligining ortish sharoitida turli toifadagi poezdlarning mavjud uchastkalardan samarali o‘tkazish vazifasi dolzarb hisoblanadi. “O‘TY” AJda yo‘lovchi poezdlarining harakatlanish tezligi bo‘yicha uchastkalar turli toifalarga ajratilgan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘llaridan texnikaviy foydalanish Qoidalariga muvofiq temir yo‘l uchastkalari quyidagi turlarga ajratilgan:

- 140 km/soatgacha tezlikda-oddiy temir yo‘llar;
- 141 dan 160 gacha va 161 dan 200 km/soatgacha oraliqdagi tezliklarda - tezyurar magistrallar;
- 201-250 km/soat oraliqdagi tezliklarda - yuqori tezlikdagi magistrallar.

Yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poezdlari harakatini tashkil etishda jahon tajribasiga asosan temir yo‘l magistrallari quyidagicha tasniflangan (4-rasm) [1-5]:



4-rasm. Tezyurar va yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poezdlari harakati tashkil etiladigan temir yo‘l magistrallarining tasnifi

Respublika temir yo‘llarida maxsuslashtirilmagan temir yo‘l magistrallarida yuqori tezlikdagi yo‘lovchi, tezyurar va yuk poezdlari aralash tartibda harakati tashkil etilgan. Yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poezdlari harakatining dastlabki yillarida bu tizimdan foydalanish maqsadga muvofiq, shuningdek kelgusida yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poezdlar sonining ortib borishi natijasida temir yo‘l uchastkalarining foydalanish ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sirlar yuzaga keladi. Buni inobatga olib, turli toifadagi poezdlar harakatini tashkil etishda temir yo‘l uchastkalaridan foydalanish ko‘rsatkichlarining mavjud holati o‘rganildi.

Temir yo‘ldan foydalanish ko‘rsatkichlari yuqori tezlikdagi “Afrosiyob” elektr poezdlari qatnovi ko‘lamiga bevosita bog‘liq. “O‘TY” AJda yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poezdlari tomonidan amalga oshirilgan reyslar sonining yillar kesimidagi tahlili (5-rasm) shuni ko‘rsatdiki, bu ko‘rsatkich 2023 yilning dastlabki 9 oyi davrida 2021 yilga nisbatan qariyb 55,8 % o‘sgan.



5-rasm. “O‘TY” AJda yuqori tezlikdagi “Afrosiyob” elektr poezdlari reyslari sonining o‘zgarish dinamikasi

Yuqori tezlikdagi “Afrosiyob” elektr poezdlari reyslari sonining ortishi, shuningdek poezdlar harakatini “Toshkent – Samarqand – Qarshi–Shahrisabz, Toshkent – Samarqand – Buxoro uchastkalari umumiy foydalanishdagi temir yo‘llarda yuqori tezlikdagi elektr poezdlariga xizmat ko‘rsatish va qatnovini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnoma [4] talablari asosida tashkil qilinishi temir yo‘ldan foydalanish ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir etmoqda. Jumladan Yo‘riqnomaning 29, 44- bandlariga asosan “Afrosiyob” elektr poezdlarini kirib kelishidan 30 daqiqa oldin stansiyadagi barcha manevr ishlari va olinadigan birliklarning yo‘l bo‘ylab boshqa harakatlari to‘xtatilishi, shuningdek ikki yo‘lli peregonlarda drezina, ishchi, xo‘jalik va yuk poezdlarining “Afrosiyob” elektr poezdlari bilan kesishuvi ta’qiqlanishi belgilab qo‘yilgan. 2011-2023 yillar oralig‘ida bajarilgan poezdlar harakati grafiklarining tahlili shuni ko‘rsatdiki, yuqori tezlikdagi “Afrosiyob” elektr poezdlarini o‘tkazish boshqa toifadagi poezdlarning ko‘plab miqdorda bekor turib qolishlarini yuzaga keltirdi. Jumladan, 2011-2016 yillar oralig‘ida yuk poezdlarini yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poezdlarini o‘tkazib yuborish maqsadida bir kunlik jami to‘xtab turishlari soni o‘rtacha tani va har bir to‘xtash mobaynida turish vaqti soatni tashkil etdi. 2017-2020 yillar oralig‘ida esa to‘xtab turishlar soni tani, har bir to‘xtash mobaynida turish vaqti esa soatni tashkil etgan. 2021 yildan hozirgi kunga qadar to‘xtab turishlar soni tani, har bir to‘xtash mobaynida turish vaqti o‘rtacha soatni tashkil etdi (6-rasm).



6-rasm. Yuqori tezlikdagi “Afrosiyob” elektr poezdlarini o‘tkazish mobaynida yuk poezdlarining kunlik o‘rtacha to‘xtab turishlari soni va davomiyligi

3. Natija va muhokama

Tahlillar ko‘rsatdiki, o‘rganilgan davrda yuqori tezlikdagi “Afrosiyob” elektr poezdlari sonining 1 juftdan 6 juftgacha o‘zgarishi natijasida kun davomida yuk poezdlarining to‘xtab turishlari sonini 3,5 marta, har bir to‘xtab turish vaqtining 3 marotabagacha ortishi yuzaga keldi. Bu borada “O‘TY” AJning tig‘iz sharoitlarda faoliyat yuritayotgan ikki yo‘lli “O‘zbekiston-Xovos” uchastkasining foydalanish ko‘rsatkichlari tahlil qilindi (7-8-rasmlar). Ushbu uchastkada qatnovchi yuqori tezlikdagi “Afrosiyob” elektr poezdlari sonining ortishi hamda ularni o‘tkazish mobaynida Yo‘riqnoma [4] ga muvofiq boshqa toifadaga poezdlarning harakati ta’qiqlanishi natijasida yuk poezdlarining oraliq stansiyalarida bekor turish vaqti 2023 yilning yanvar-sentyabr oylarida 2009 yilga nisbatan 193,5 % ga ortgan. Buning natijasida yuk poezdlarining uchastka tezligi 27,5 % ga, texnik tezligi 14% ga va lokomotivlar unumdorligi 13 % ga kamaygan.



7-rasm. “O‘zbekiston-Xovos” temir yo‘l uchastkasining asosiy foydalanish ko‘rsatkichlari



8-rasm. “O‘zbekiston-Xovos” temir yo‘l uchastkasi asosiy foydalanish ko‘rsatkichlarining 2009 yilga nisbatan o‘zgarish dinamikasi

Yaqin istiqbolda yuqori tezlikdagi yo‘lovchi hamda shahar atrof poezdlari sonining ortishi ko‘zda tutilgan. Jumladan, “O‘TY” AJ va Italiyaning “Arsenale Group” kompaniyalari o‘rtasida imzolangan memarandumga ko‘ra, 2026 yildan boshlab Toshkent-Samarqand-Buxoro-Xiva yo‘nalishida “lyuks” sinfidagi tezyurar turistik poezdlar harakati yo‘lga qo‘yiladi, shuningdek 2023-2026 yillar davrida “O‘TY” AJ faoliyatini tubdan isloh qilish doirasida Janubiy Koreyaning “Hyundai Rotem” kompaniyasidan 6 ta yuqori tezlikda harakatlanuvchi va Chexiyaning “Skoda Transportation” kompaniyasidan 30 ta tezyurar elektr poezdlar harakatini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilgan [5-14]. Buni e’tiborga olgan holda, shuningdek rekonstruktiv va qayta qurish tadbirlarining katta hajmda kapital mablag‘lar va ularni amalga oshirish uchun uzoq muddat talab etilishini hisobga olib, turli toifadagi poezdlarning aralash harakati mavjud yuqori tezlikdagi magistrallarda yo‘lovchi poezdlarning yuk poezdlari harakatiga salbiy ta’sirini minimallashtirish, temir yo‘l uchastkalarining mavjud o‘tkazuvchanlik qobiliyatidan oqilona foydalanish, ish ko‘rsatkichlarini yaxshilash, pirovard natijada yo‘lovchilar va yuklarni o‘z manzillariga vaqtida yetkazib berish, sifatli servis xizmatlarini ko‘rsatish imkonini beruvchi tashkiliy-texnik chora-tadbirlar hamda ilg‘or texnologiyalarni ishlab chiqish va tatbiq etish zarurati yuzaga keladi. Buning uchun yuqori tezlikdagi magistrallarda poezdlar harakatini tashkil etish bo‘yicha ilg‘or davlatlarning tajribasi hamda bu borada mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari tahlilini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Yuqori tezlikdagi magistrallarda turli toifadagi poezdlar harakatini tashkil etish bo‘yicha xorijiy ish tajribasi, mahalliy va xorijiy ilmiy ishlar tahlili asosida SWOT - tahlili amalga oshirildi (1-jadval).

1-jadval

Yuqori tezlikdagi magistrallardan turli toifadagi poezdlarni o‘tkazish texnologiyasining SWOT-tahlili

KUCHLI TOMONLARI (STRENGHTS): S	KUCHSIZ TOMONLARI (WEAKNESSES): W
1) Texnik va texnologik imkoniyatlarning mavjudligi; 2) Ilmiy izlanishlar va chet el amaliy tajribasida ijobiy natijalarning mavjudligi; 3) Yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poezdlari uchun alohida magistralni qurish mablag‘larini tejash; 4) Magistralning poezd o‘tkazish qobiliyatidan samarali foydalanish; 5) Temir yo‘ldan foydalanish ko‘rsatkichlarini yaxshilash.	1) Yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poezdlari sonining ortishi bilan magistralning yuk poezdlarini o‘tkazish qobiliyatining pasayishi; 2) Yuk poezdlarining texnik va oraliq stansiyalarda ortiqcha turishlari tufayli tirbandliklarning yuzaga kelishi; 3) Yuk poezdlarining harakati tufayli yo‘lovchi poezdlar tezligiga cheklovlarning mavjudligi; 4) Yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poezdi bilan peregonda kesishish ehtimoli bo‘lgan yuk poezdi tarkibini alohida tanlash zarurati; 5) Yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poezdlari soniga muvofiq ravishda stansiyalarning texnologik jarayonlariga tezkor o‘zgartirishlar kiritilishi zarurati.
IMKONIYATLAR (OPPORTUNITIES): O	**TAHDIDLAR (THREATS): T**
1) Peregonlarda yuqori tezlikdagi yo‘lovchi va yuk poezdlarining to‘xtovsiz kesishuvini tashkil etish; 2) Temir yo‘l infratuzilmasini saqlashning integratsiyalashgan tizimini yaratish; 3) Stansiyalarning yo‘lovchi, yuk tizimi qurilma va inshootlarini kompleks rivojlantirish; 4) Mavjud temir yo‘llar orqali qisqa muddatlarda yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poezdlar harakati qamrovini kengaytirish; 5) Yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poezdlari harakatini xavfsiz tashkil etish bo‘yicha personalning amaliy tajribasini boyitish.	1) Yo‘lovchilarni tashish bo‘yicha transportning boshqa turlari bilan raqobatning kuchayishi; 2) Yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poezdlari sonining ortishi bilan yuklarni yetkazib berish muddatining uzayishi; 3) Poezdlar harakatini tashkil etuvchilar hamda lokomotiv brigadalariga psixologik bosimning ortishi; 4) Temir yo‘l infratuzilmasi yuklamasining ortishi; 5) Temir yo‘l transporti texnik va texnologik taraqqiyotining ortda qolishi.

SWOT tahlilga ko‘ra yuqori tezlikdagi yo‘lovchi va yuk poezdlarini o‘tkazish texnologiyasining barcha kuchli va kuchsiz tomonlari o‘rganib chiqildi. “O‘TY” AJning amaldagi texnik-texnologik sharoitlarida yuqori tezlikdagi magistrallarda turli toifadagi poezdlarning o‘zaro xavfsiz kesishuvini amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi aniqlandi. Bunga asosan, yuqori tezlikdagi magistrallarning turli toifadagi poezdlar aralash tartibda harakati tashkil etiladigan ikki yo‘lli uchastkalarida yuk poezdlarini to‘xtatmasdan o‘tkazish texnologiyasini qo‘llash maqsadida quyidagi masalalarni yechish zaruriyati yuzaga keladi. Xususan, turli toifadagi poezdlar harakatini ikki yo‘lli uchastkalarda tashkil etish usullarini hamda ular atrofida hosil bo‘ladigan turbulent havo oqimi tabiatini o‘rganish, yuqori tezlikdagi yo‘lovchi va yuk poezdlarini xavfsiz kesishuv shartlarini murakkab sharoitlar uchun aniqlash, poezdlarning o‘zaro kesishuv jarayonidagi kinematik parametrlarini hisoblash, shuningdek poezdlarning o‘zaro kesishuvi natijasida hosil bo‘ladigan maksimal aerodinamik bosim qiymatining bir qancha omillarga bog‘liqlik empirik ifodasini topish zarur. Ilmiy izlanishlar natijalariga ko‘ra qo‘shni yo‘llarda harakatlanuvchi tarkiblarning turg‘unligiga ko‘ndalang yo‘nalishdagi aerodinamik bosim va kuch miqdorlari salbiy ta’sir etadi va ularning cho‘qqisi poezdlar bosh qismida yuzaga keladi (9-10-rasmlar).



9-rasm. Qarama-qarshi harakatlanayotgan yuqori tezlikdagi poezdlar kesishganidagi aerodinamik bosim modeli



10-rasm. Yuqori tezlikdagi poezd bosh qismi atrofidagi bosim impulsi tabiati

Shu maqsadda poezdlar o‘zaro kesishuvi natijasida hosil bo‘ladigan va ularning turg‘unligiga salbiy ta’sir etuvchi maksimal aerodinamik bosim ifodasini bir qancha omillarga bog‘liqlik empirik ifodasini topish lozim, ya’ni

$$P = P\langle V,\ y,\ z, A,\ k,\ \rho,\ q\rangle\ , \qquad (1)$$

bunda: $V -$ poezdlarning harakatlanish tezligi, km/soat;

$y,\ z -$ qo‘shni yo‘l o‘qlari orasidagi masofa va oz yo‘nalishidagi balandlik, m;

$A -$ kuzatuvchi va o‘tkinchi poezd eni uzunligi, m;

$k -$ poezdlarning geometrik tuzilishiga (bosh qismining tuzilishiga) bog‘liq bo‘lgan aerodinamik koeffitsient;

$\rho -$ havoning me’yoriy haroratdagi zichligi, kg/m3;

$q -$ boshqa o‘zgaruvchilar.

Poezdlar atrofida hosil bo‘ladigan aerodiamik bosim cho‘qqisining analitik hisoblash funksiyasini topishda jahonda mavjud ifodalar tahlili va “O‘TY” AJda mavjud poezdlar uchun eksperimental tadqiqotlarni amlaga oshirish talab etiladi. Eksperimental tadqiqotlar yordamida poezdlarning o‘zaro kesishuvi jarayonida hosil bo‘ladigan aerodinamik bosim miqdori hamda havo oqimi tezligini nafaqat oy yo‘nalishida, balki har bir yo‘nalish bo‘yicha aniqlash va ularning umumiy qiymatini hisoblash zarur. Shu maqsadda turli toifadagi poezdlarning to‘xtashsiz kesishuvi jarayonidagi eksperimental tadqiqotlar amalga oshirish uchun ularning o‘zaro kesishuv jarayonining davomiylik vaqti hisoblab olindi (11-rasm):

$$\begin{cases} t_{\min} \le t \le t_{\max} \\ t_{\min} = \dfrac{3{,}6\cdot(x_2 - x_1 + x_3 - x_4)}{v^{\max}_{high-speed(yuqoritezlik)} + v^{\max}_{freight(yuk)}} = \dfrac{3{,}6\cdot(l_1 + l_2)}{v^{\max}_{high-speed(yuqoritezlik)} + v^{\max}_{freight(yuk)}} \\ t_{\max} = \dfrac{3{,}6\cdot(x_2 - x_1 + x_3 - x_4)}{v^{\min}_{high-speed(yuqoritezlik)} + v^{\min}_{freight(yuk)}} = \dfrac{3{,}6\cdot(l_1 + l_2)}{v^{\min}_{high-speed(yuqoritezlik)} + v^{\min}_{freight(yuk)}} \end{cases} \qquad (2)$$



11-rasm. Turli toifadagi poezdlarning o‘zaro kesishuvi jarayonida aerodinamik ta’sirlarni o‘rganish bo‘yicha eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazishda uskunalarni joylashtirish tartibi

bunda: t_{min} poezdlarni kesishuv jarayoni davomiyligining eng kichik miqdori, s;

t_{max} poezdlarni kesishuv jarayoni davomiyligining eng katta miqdori, s;

$x_1,\ x_2,\ x_3,\ x_4$ – poezdlarni ma’lum vaqt onidagi old va ort qismining koordinatalari, m;

$v^{max}_{high-speed(yuqoritezlik)}$, $v^{min}_{high-speed(yuqoritezlik)}$ yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poezdining maksimal (230) va minimal (130) harakatlanish tezligi, km/soat;

$v^{max}_{freight(yuk)}$, $v^{min}_{freight(yuk)}$ yuk poezdining maksimal (70) va minimal (25) harakatlanish tezligi, km/soat;

$l_1,\ l_2$ – mos ravishda yuqori tezlikdagi yo‘lovchi (183) va yuk poezdlarining (815) uzunligi, m.

4. Xulosa

Yuqoridagi ifodaga asosan xulosa qilish mumkinki, turli toifadagi poezdlar o‘zaro kesishuv jarayonining davomiyligi poezdlar tezligiga bog‘liq ravishda 12 sekunddan 23,2 sekundgacha oraliqda bo‘lar ekan. Demak shu davr oralig‘ida aerodinamik bosim miqdorining va havo oqimi tezligi miqdorining o‘zgarish dinamikasini o‘rganish maqsadga muvofiq.

Qo‘shni yo‘llarda harakatlanuvchi tarkiblarning o‘zaro aerodinamik ta’sirining tabiati nafaqat ularning tezligiga, balki ularning turiga, harakatlanish yo‘nalishiga bog‘liq bo‘lishini va (1)-ifodani aniqlash natijalariga tayanib ularning xavfsiz kesishuv shart-sharoitlarini nazariy jihatdan aniqlanishi shuningdek, turli toifadagi poezdlarni o‘zaro kesishuv jarayonidagi turbulent havo oqimi tezligi natijasida harakat birliklari turg‘unligiga ta’sir etadigan bosim impulslarini modellashtrish maqsadga muvofiqdir. Keyingi tadqiqotlarda poezdlar o‘zaro kesishuv jarayonini modellashtirish uchun *ANSYS Fluent Flow (CFX)* va *SolidWorks Flow simulation* universal paket dasturlaridan foydalaniladi va eksperimetal tadqiqotlarni amalga oshirishda *3D Axis ultrasonic anemometer* uskunalaridan foydalanib poezdlar xavfsiz kesishuv tezliklari chegarasi belgilab beriladi.

Foydalangan adabiyotlar / References

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

[2] “O‘zbekiston temir yo‘llari” Aksiyadorlik Jamiyatining 2022-2023-yilllarga mo‘ljallangan biznes rejasi.

[3] Гринемайер А.А., Аникин И.Б., Изварин М.Ю. Перспективы развития сети высокоскоростных железных дорог в мире на ближайшее десятилетие // Известия Петербургского университета путей сообщения. — СПб.: ПГУПС, 2022. — Т. 19. — Вып. 2. — С. 259–265. DOI: 10.20295/1815-588X-2022-2-259-265

[4] Инструкция «О порядке обслуживания и организации пропуска высокоскоростных электропоездов «Afrosiyob» по железнодорожным путям общего пользования на участках Ташкент – Самарканд – Карши, Ташкент – Самарканд – Бухара». – Ташкент: АО «Ўзбекистон темир йўллари», 2016. – Текст: непосредственный.

[5] Bozorov R. S., Rasulov M. X., Masharipov M. N. Research on the aerodynamics of high-speed trains // Universum: технические науки: электрон. научн. журн., 2022, № 6 (99).

[6] Р.Ш. Бозоров, Исследование взаимного аэродинамического влияния высокоскоростных пассажирских и грузовых поездов, следующих по смежным путям / М.Х. Расулов, М.Н. Машарипов, Р. Ш.

Бозоров. – Текст: непосредственный // Инновационный транспорт. – 2022. – № 2 (44). – С. 42-48.

[7] Rasulov, M., Masharipov, M., Sattorov, S., & Bozorov, R. (2023). Study of specific aspects of calculating the throughput of freight trains on two-track railway sections with mixed traffic. In E3S Web of Conferences (Vol. 458, p. 03015). EDP Sciences. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202345803015

[8] Р.Ш. Бозоров, Аэродинамическое воздействие высокоскоростного электропоезда «Afrosiyob» на встречные поезда / Р. Ш. Бозоров. – Текст: непосредственный // Известия Транссиба. – 2022. – № 2 (50). – С. 96.

[9] Bozorov R. Sh. A new method of calculating time and speed of a carriage during its movement on the section of the first brake position of a marshaling hump when exposed headwind / Sh. U. Saidivaliev, R. Sh. Bozorov, E. S. Shermatov // STUDENT eISSN: 2658-4964, 2021, no. 9.

[10] Р. Ш. Бозоров Способы эффективного использования пропускной способности участков в условиях пропуска высокоскоростных пассажирских поездов / М. Х. Расулов, С. Е. Бекжанова, М. Н. Машарипов. – Текст : непосредственный // Железнодорожный транспорт : Актуальные вопросы и инновации. – 2021. – № 2. – С. 5–22.

[11] Marufdjan Rasulov, Masud Masharipov, S. E. Bekzhanova and Ramazon Bozorov. Measures of effective use of the capacity of twotrack sections of JSC “Uzbekistan Railways”. E3S Web of Conferences 401, 05041 (2023) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202340105041

[12] Р.Ш. Бозоров, Исследование по установлению оптимального числа платформ в контейнерном поезде / Р.Ш. Бозоров, Ш.У. Саидивалиев, Э.С. Шерматов, Д.Ш. Бобоев // Транспорт: наука, техника, управление. 2022, № 5. С. 24 - 28. ISSN 0236-1914.

[13] Shukhrat Saidivaliev, Ramazon Bozorov, Elbek Shermatov. Kinematic characteristics of the car movement from the top to the calculation point of the marshalling hump. E3S Web of Conferences 264, 05008 (2021) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126405008

[14] J.A. Shihnazarov, D.Sh. Boboyev, E.S. Shermatov, Ramazon Bozorov. Comparison of Technical and Economic Performance of Wire and Chain Tracks used in Strengthening Loads in Open Traffic. AIP Conf. Proc. 2612, 060024 (2023) https://doi.org/10.1063/5.0130838

Mualliflar to‘g‘risida ma’lumot/ Information about the authors

Bozorov Ramazon Shamil o‘g‘li	Toshkent davlat transport universiteti “Yuk transport tizimlari” kafedrasi katta o‘qituvchisi. t.f.f.d. (PhD). E-mail: ramazon-bozorov@mail.ru Tel.: +99891 2513377 https://orcid.org/0000-0001-8655-0764
Sattorov Samandar Baxtiyorovich	Toshkent davlat transport universiteti “Yuk transport tizimlari” kafedrasi dotsenti. t.f.n. E-mail: sattorovsamandar100@gmail.com Tel.: +99877 0735157 https://orcid.org/0000-0001-7273-0449
Saidivaliyev Shuxrat Umarxodjayevich	Toshkent davlat transport universiteti “Yuk transport tizimlari” kafedrasi dotsenti. t.f.f.d. (PhD). E-mail: shuxratxoja@mail.ru Tel.: +998974622129 https://orcid.org/0000-0002-4461-4093
Boboyev Diyor Shomurotovich	Toshkent davlat transport universiteti “Yuk transport tizimlari” kafedrasi assistenti. t.f.f.d (PhD). E-mail: diyor1803boboyev@gmail.com Tel.: +99890 4141803 https://orcid.org/0000-0003-0785-2209
Ergasheva Zaxro Valijanovna	Toshkent davlat transport universiteti “Yuk transport tizimlari” kafedrasi dotsenti. t.f.f.d. (PhD). E-mail: zahro2@yandex.ru Tel.: +998977162322 https://orcid.org/0000-0003-1651-0892

Experimental studies on the selection of spraying parameters of the spreader of technological materials and evaluation of their results

S.K.Turdibekov[1][a], E.X.Abdusamatov[1][b]
[1]Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: This article presents the results of experimental studies conducted in order to determine the interaction between the parameters of the spreading disc and the material delivery mechanism. During the study, theoretical and experimental data were compared to study the interaction of the parameters of the spreading disk. As a result of experimental studies, the minimum, average and maximum values of the width of the sprinkler are 4.4; equal to 6.7 and 9.1 meters, and in theoretical calculations these values are 4.84; It was 7.24 and 9.66 meters. A comparison of the calculations showed that the theoretical values are on average 7% higher than the experimental data. These inconsistencies may be related to the non-compliance of the technological material, its moisture status, and the formation of dense lumps compressed during the experiment.

Keywords: road, disc radius, disc height, distance, rotational speed, spread and sprinkle, angular velocity, sowing width

Texnologik materiallarni tarqatuvchisining sepish parametrlarini tanlashbo'yicha eksperimental tadqiqotlar va ularning natijalarini baholash

Turdibekov S.K.[1][a], Abdusamatov E.X.[1][b]
[1]Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoyish diskining parametrlari va materiallarni etkazib berish mexanizmining o'zaro ta'sirini aniqlash maqsadida olib borilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari taqdim etiladi. Tadqiqot davomida yoyish diskining parametrlarining o'zaro ta'sirini o'rganish uchun nazariy va eksperimental ma'lumotlar taqqoslandi. Eksperimental tadqiqotlar natijasida, sepilishning kengligi minimal, o'rtacha va maksimal qiymatlari 4,4; 6,7 va 9,1 metrga teng bo'lib, nazariy hisob-kitoblarda ushbu qiymatlar 4,84; 7,24 va 9,66 metrni tashkil etdi. Hisob-kitoblarni taqqoslash shuni ko'rsatdiki, nazariy qiymatlar eksperimental ma'lumotlardan o'rtacha 7% ga yuqori. Ushbu nomuvofiqliklar texnologik materialning talablarga javob bermasligi, uning namlik holati va tajriba davomida siqilgan zich bo'laklarning shakllanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: yo‘l, disk radiusi, disk balandligi, masofa, aylanma tezlik, yoyib sepish, burchak tezligi, sepish kengligi

1. Kirish

Shaharlar, ularning hududlari va aholisining o'sishi transport oqimlari ko'payishi va tarmoqlariining takomillashtirilishiga olib keladi. Shu sababli, zamonaviy yirik shaharning hayotiy faoliyati ko'p jihatdan turli mavsumiy davrlarda yo'l qoplamasining sifati va holatiga bog'liq bo'ladi.

Yo'llarni saqlash va tozalov-qarov ishlari bo'yicha asosiy va eng ko'p mehnat talab qiladigan ishlar qish mavsumida qor metamorfizmi, qor yoki muzda qisqa vaqt ichida o‘z xossalarini o‘zgartirish qobiliyati bilan bog'liq bo'lib, bu transport vositalari va piyodalarning harakati xavf tug‘diradi.

Turli mamlakatlarda yo'l xizmatlari qor va muzni yo'q qilish uchun texnologik materiallardan (qum-tuz aralashmasi) foydalanadi. Texnologik materiallardan foydalanish nisbatan qisqa vaqt ichida yo'l qoplamasidan muz va qorni bartaraf etish va tezlikni kamaytirish va baxtsiz hodisalardan hamda iqtisodiy jihatdan mumkin bo'lgan chegaralargacha yo'qotishlarni kamaytirish imkonini beradi.

Texnologik materiallarni sepish uchun maxsus mashinalar qo'llaniladi: texnologik material tarqatuvchilari avtomobil shassilari yoki tirkamalariga doimiy ravishda o'rnatiladigan yoki tez ajraladigan uskunalarga ega. Texnologik materiallarning samarali taqsimlanib sepilishini amalga osiruvchi organlarning parametrlari va ish rejimlarini to'g'ri tanlashga bog'liq bo'lib, bu juda dolzarb vazifadir.

2. Tadqiqot metodikasi

Texnologik materiallarni sepish parametrlarini tanlash bo'yicha eksperimental tadqiqotlar texnologik materiallar yoyib sepuvchisi asosiy transport vosita MAN CLA 18.280

[a] https://orcid.org/0009-0001-6098-5775
[b] https://orcid.org/0009-0007-1194-9085

4x2 BB CS45 bo'lgan yuk mashinasida amalga oshiriladi. Bu tanlangan texnologik materiallarni tarqatuvchisi O‘zbekiston Respublikasida mahalliylashtirish bo‘yicha eng yangi tanlov ekanligi bilan izohlanadi.

Ushbu mahalliylashtirilgan mahalliy texnologik materiallar tarqatuvchilarining asosiy texnik tavsiflari quyidagilardan iborat:

Uskunaning og'irligi	2600 kg gacha
Aylanish momentni uzatish	suyuqlik
Bunker sig’imi	6 m^3 gacha
Materialni etkazish turi:	qirg'ichli konveyer
sepish zichligi (nazariy)	350 g/m^2 gacha
Ishlov beriladigan tasma kengligi	9 m gacha
Uskunaning o'lchamlari, ±100 mm:	
- uzunligi	6520
- kengligi	1900
- balandligi	2670
Harakat tezligi km/soat,	
- ishchi/transport	20/40

Texnologik materiallar tarqatuvchining biriktirilgan uskunasida tajriba o'tkazishda asosiy o'lchash ishlari amalga oshiriladi, masalan:

- Yoyib sepish diskining parametrlari va joylashuvi;

-texnologik materiallarni etkazish mexanizmining parametrlari va sepish zichligini aniqlash.

Tajriba uchun ishlatiladigan o'lchov asboblari o'lchanadigan parametrlarni hisobga olgan holda tanlanadi va erishilgan natijalar quyidagilarga asoslanadi:

- Yoyib sepish diskining burchak tezligini topish uchun biz bu holda hal qilinadigan diapazonlarga ega bo'lgan taxometrdan foydalanamiz, - sepish diskining geometrik joyini va mexanizmining geometrik joylashishini topish uchun biz millimetrga bo'linish shkalali metrli o'lchagichdan foydalanamiz;

- sepish zichligini topish va materialning umumiy massasini aniqlash uchun biz shkali bo'lgan elektron tarozilardan foydalanamiz;

- o'tgan vaqt oralig'ini sekundlarda o'lchash uchun biz shkalasi bor sekundomerdan foydalanamiz.

Amaldagi o'lchov asboblari tegishli tekshiruvdan o'tgandan keyin qo'llaniladi.

Texnologik materiallarni tarqatuvchi eksperimental metodologiya ishchi organlarning ish rejimlari va ularning parametrlarining o'zaro ta'sirini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Ushbu metodika tayyor osma qurilmalar uchun ishlab chiqilgan. Bunga asoslanib, yoyib sepish diskining balandligi $H_д$ va yoyib sepish diskining diametri $∅_д$ konstruksiya bo‘yicha o‘zgarishsiz qoladi va yoyib sepish diskining aylanish tezligi $\omega_д$ va material etkazib berish V_{TM} tezligi o‘zgaradi.

Tajriba o'tkazishda quyidagi shartlar zarur:

- texnologik materiallarning yaxshi ishlaydigan tarqatuvchisi;
- 2 m^3 miqdordagi bir hil massali texnologik material (don o'lchami 8 mm gacha bo'lgan qum-tuz aralashmasi);
- harakatlanishdan ajratilgan tekis, quruq, toza, maydon;
- quruq, shamolsiz muqobil ob-havo;
- eksperimentga xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning xavfsizligi.

Tajribani o'tkazish uchun quyidagi talablarga rioya qilish kerak:

Yoyib sepish diskining parametrlarini aniqlashda o'lchovlar olinadi: diskning balandligi, diskning diametri va Yoyib sepish diskining aylanish tezligi.

Yoyib sepish diskining balandligini topish uchun o'lchovlar metr bilan, yo'l qoplamasi yuzasidan diskning yuqori tekisligigacha, yoyib sepsh diskning diametrini topish uchun o'lchovlar esa metr bilan amalga oshiriladi. Diskning bir chetidan pastki tekisligi bo’lab o'qning markazidan, diskning ikkinchi chekkasiga o'tadi.

Yoyib sepish diskining aylanish tezligini topish uchun o'lchovlar diskning pastki qismidagi taxometr bilan amalga oshirilishi kerak, uning markaziga qo'yish kerak. Yoyib sepsh diskning aylanish tezligini uchta ish rejimida o'lchadi: minimal, o'rtacha va maksimal. Barcha rejimlar boshqaruv tizimiga nisbatan qayd qilinishi kerak.



1-rasm. Yoyib sepish diskning parametrlari: $\omega_д$ - Yoyib sepish diskining burchak tezligi; $∅_д$ - Yoyib sepish diskining diametri; $H_д$ - Yoyib sepish diskining balandligi.

Yetkazish mexanizmining parametrlarini aniqlashda o'lchovlar olinadi: qirg'ichning kengligi, qopqoqli eshikning ochilish miqdori va yetkazish mexanizmining tezligi.

Qirg’ichning kengligi va qopqoqli eshikning ochilish miqdorini topish uchun o'lchovlar joyining yon tomonlaridan o’ramli metr bilan o'lchanadi.

Yetkazish mexanizmining tezligini topish uchun o'lchovlar mexanizmning bir aylanishining to'liq o'tishini belgidan o'lchash orqali soniya hisoblash bilan amalga oshiriladi, so'ngra mexanizmning aylanasini o'tgan vaqtga bo'linadi *($S/t=V_{TM}$)*. Etkazish mexanizmining tezligini uchta ish rejimida o'lchang: minimal, o'rtacha va maksimal. Barcha rejimlar boshqaruv tizimiga nisbatan qayd qilinishi kerak.



2-rasm. Qirg'ich konveyerining konstruktiv parametrlari: V_{TM} – texnologik materialni etkazish mexanizmining tezligi; b_{qk}- qirg'ichning kengligi; $h_{q.e.och}$ – qopqoqli eshikning ochilish miqdori; $l_{q.o.m}$ - qirg'ichlar orasidagi masofa.

Sepish $S_{s.k}$ kengligini aniqlash uchun tajriba o'tkazishda Yoyib sepish diskining burchak tezligi $\omega_д$, Yoyib sepish diskining diametri $\omega_д$ va Yoyib sepish diskining balandligi $H_д$ parametrlarini solishtirish kerak.

Bunday holda, Yoyib sepish diskining $\emptyset_д$parametrlari va Yoyib sepish diskining balandligi $H_д$ o'zgarmaydi va o'zgarmas bo'ladi, chunki tajriba texnologik materiallarning tayyor tarqatuvchisida o'tkaziladi. Yoyib sepish diskning burchak tezligi $\omega_д$ parametrlarda o'zgaruvchan bo'ladi.

Tajriba Yoyib sepish diskini minimal tezligida amalga oshiriladi Diskni minimal tezlikda yoqgandan so'ng, o'rtacha tezlikda material etkazuvchini ketma-ket yoqing. Ushbu ish rejimini 30 dan 60 soniyagacha saqlang, so'ngra texnologik materiallarni tarqatuvchini to'liq o'chiring. Sepilgan kenglikning izini o'lchash orqali sepish kengligini topish uchun o'lchovlarni bajaring (3.2.5-rasm).

Disk inqiloblari bundan mustasno, ushbu tajribani asl shaklda doimiy talablar bilan yana ikki marta takrorlang. Disk tezligini ikkinchi holatda o'rtacha tezlikda, uchinchi holatda esa maksimal tezlikda o'rnating.

S_{sk} Sepilish kengligini topishda etkazib beriladigan texnologik material miqdorining ta'siri hisobga olinmaydi, bunga asoslanib, V_{TM} materialni etkazib berish mexanizmining tezligi o'zgarmaydi. Taqdim etilgan texnologik materialning miqdori, asosan, kiyinish ρ zichligini aniqlashga ta'sir qiladi.

Sepilish ρ zichligini aniqlash uchun tajriba o'tkazish uchun asosiy mashina $V_м$ tezligi parametrlarini, materiallarni etkzish tezligi V_{TM} va Yoyib sepish diskining burchak $\omega_д$ tezligini taqqoslash kerak.

Ushbu tajribada barcha olingan parametrlarini uchta qiymat bo'yicha taqqoslash kerak.

Sepish ρ zichligini asosiy mashina $V_м$ tezligiga bog'liqligini topganda, $V_м$=0 da bajaring. Shunday qilib, mashinasi $V_м$=0 tezligida, 60 soniya vaqt ichida yoyib sepish diskining burchak tezligi $\omega_д$ va materialining etkazilish V_{TM} tezligi har xil bo'lganida sepilish ρ zichligini taqqoslanadi.

Birinchi holda, eksperiment 60 soniya vaqt bilan sepish kengligi va materialni etkazib berish mexanizmini kichik qiymatlarda o'rnatish orqali amalga oshiriladi. Belgilangan vaqtni saqlagandan so'ng, to'liq to'xtating va maydonda materiallarni yig'ish va tortish orqali sepilish ρ zichligini aniqlashni boshlang.

Ikkinchi va uchinchi hollarda, eksperimentni bir xil ketma-ketlikda sepish kengligi va materialni etkazib berish mexanizmiga mos ravishda o'rtacha va maksimal qiymatlarda o'zgartirish bilan takrorlang.

Keyinchalik, sepish S_{sk} kengligi qiymatini har bir tezlik bilan, o'rtacha va minimal materiallarni etkazib berish V_{TM} tezligini o'zgartirib tajribani davom ettiring.

To'ldirish zichligi ρ ni topish mashinaning tezlik parametriga ham bog'liq bo'lganligi sababli, mashinaning tezlik $V_м$ qiymati 5 km/soat, 10 km/soat va 15 km/ soat bo'lgan uchta tezlik uchun hisoblanishi kerak. Buning uchun biz quyidagi formulani qo'llaymiz.

$$\rho = \frac{\sum m}{60 \cdot S_{sk}} \cdot V_м; \text{g/m}^2 \qquad (3.1)$$

bu yerda, ∑m - Maydonda jami yig'ilgan materiallarning umumiy massasi, gram, da (3.2.6-rasm);

S_{sk} - sepiladigan texnologik materialning kengligi, m, da;

$V_м$ - asosiy mashinaning tezligi, m/sek.

Yoyib sepish diskining parametrlarini aniqlashda o'lchovlar o'tkazildi, Yoyib sepish diskining balandligi $H_д$, Yoyib sepish diskining diametri $\emptyset_д$ va Yoyib sepish diskining aylanishi $\omega_д$ B ilovadagi (1-jadval) jadvalga kiritilgan va ko'rsatilgan.

1-jadval

№	Parametr nomi	Miqdori	
1	Yoyib sepish diskining balandligi mm.	525	
2	Yoyib sepish diskining diametri mm.	600	
3	Diskning aylanish tezligi ayl/daqiqa (oborot/minut).	Minimal	200
		O'rtacha	300
		Maksimal	400



○-nazariy natijalar;△- eksperimental natijalar;
------- – tajribaning o'rtacha qiymati

3-rasm. Nazariy va eksperimental usulni o'tkazishda Yoyib sepish diski $\omega_д$ tezligining texnologik materialning sepish S_{sk} kengligiga bog'liqligi grafigi

Amalga oshirilgan o'lchovlar ko'rsatilgan texnologik materialning tarqalish S_{sk} kengligiga Yoyib sepish diskining $\omega_д$tezligining bog'liqligini aniqlashga imkon berdi. Barcha o'lchov natijalari jadvalga kiritilgan (2-jadval).

2-jadval

№	Aylanish parametrlari	Sepish kengligining qiymati m.	
		Nazariy natijalar	Tajriba natijalari
1	Minimal	4,84	4,4
2	O'rtacha	7,24	6,7
3	Maksimal	9,66	9,1

Olingan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, hisoblangan nazariy ma'lumotlar sepish diskining uchta tezligi bo'yicha olingan eksperimental ma'lumotlardan o'rtacha 7% xatolik bo'ldi.

Yetkazish mexanizmining parametrlarini aniqlashda qirg'ichning kengligi b_{qk}, qopqoq eshikning ochilish balandligi $h_{q.e_{och}}$ va etkazish mexanizmi V_{TM} tezligi natijalari jadvalga kiritilgan (3-jadval).

3-jadval

№	Parametr nomi	Miqdori	
1	Qirg'ichning kengligi mm.	470	
2	Qopqoq eshikning ochilish balandligi mm.	60	
3	Qirg'ichlar orasidagi masofa mm.	920	
3	Materialni etkazish tezligi m/s	Minimal	0,0126
		O'rtacha	0,0226
		Maksimal	0,0339

Sepilish zichligini ρ aniqlash uchun tajriba o'tkazishda, materiallarni etkazish tezligi parametrlari V_{TM} va Yoyib sepish diskining burchak $\omega_д$tezligi mashina V_M =0 tezligi ko'rsatilgan..

Sepilish zichligi ρ mashinaning tezlik parametriga ham bog'liq bo'lganligi sababli, eksperimentda biz formuladan foydalangan holda, 5 km/soat, 10 km / soat va 15 km / soat uch xil V_M tezlik bilan mashinaning tezlik qiymatini kiritdik.

Materialning sepilish zichligini aniqlash uchun barcha natijalar jadvalga kiritilgan (4-jadval).

4-jadval

№	Mashinaning tezligi m/sek	Materialni yetkazish tezligi	Yoyib sepish diskining burchak tezligi	Sepilgan maydonidagi materialning miqdori g/m².
1	1,388 (5km/soat)	minimal	minimal	98
			o'rtacha	64
			maksimal	47
		o'rtacha	minimal	181
			o'rtacha	118
			maksimal	87
		maksimal	minimal	246
			o'rtacha	161
			maksimal	118
2	2,777 (10km/soat)	minimal	minimal	49
			o'rtacha	32
			maksimal	23
		o'rtacha	minimal	90
			o'rtacha	59
			maksimal	43
		maksimal	minimal	122
			o'rtacha	80
			maksimal	59
3	4,166 (15km/soat)	minimal	minimal	32
			o'rtacha	21
			maksimal	15
		o'rtacha	minimal	60
			o'rtacha	39
			maksimal	28
		maksimal	minimal	81
			o'rtacha	53
			maksimal	39

Olingan natijalarga asoslanib, sepilich zichligi ρ bo'yicha asosiy mashina V_M tezligini, etkzish mexanizmi V_{TM} tezligini va Yoyib sepish diskining burchak tezligini $\omega_д$ ni taqqoslaydigan bog'liqlik grafiklari tuzildi (4-rasm).



a) V_M 5 km/soat tezlikda;



b) V_M 10 km/soat tezlikda;



***s)* V_M 15 km/soat tezlikda**

However, the study also acknowledges certain limitations, including the nascent stage of AI adoption in Uzbekistan and the need for more comprehensive data to refine market forecasts. Future research should focus on longitudinal studies to track the sustained impact of AI integration and explore potential barriers such as data privacy concerns, integration costs, and the need for workforce upskilling.

In conclusion, the integration of AI-powered STT and TTS technologies offers a transformative potential for Uzbekistan's customer service operations. By leveraging these advanced tools, businesses can achieve enhanced efficiency, greater customer satisfaction, and significant cost savings. The promising market forecasts underscore the economic viability of investing in AI-driven solutions, positioning Uzbekistan as a burgeoning hub for AI innovation in the region. As AI technologies continue to evolve, their strategic implementation will be crucial in shaping the future of contact center management and driving sustained economic growth in Uzbekistan.

References

[1] S. Kawamura, K. Machida, K. Matsui, D. Sakamoto, and M. Ishii, "Utilization of artificial intelligence in call centers," 2016. doi: 10.53829/ntr201605fa7.

[2] L. Wang, N. Huang, Y. Hong, L. Liu, X. Guo, and G. Chen, "Voice-based AI in call center customer service: A natural field experiment," Prod Oper Manag, vol. 32, no. 4, 2023, doi: 10.1111/poms.13953.

[3] Z. Zhang, B. Li, and L. Liu, "The impact of AI-based conversational agent on the firms' operational performance: Empirical evidence from a call center," Applied Artificial Intelligence, vol. 37, no. 1, 2023, doi: 10.1080/08839514.2022.2157592.

[4] B. Li and L. Liu, "Does Voice-based AI Improve Call Center Operational Performance? Event Study in a Working Telecommunication Company," PACIS 2021 Proceedings, 2021.

[5] H.-J. Kim, "Continuance Intention to Use AI Voicebot in Call Center," JOURNAL OF THE KOREA CONTENTS ASSOCIATION, vol. 23, no. 12, 2023, doi: 10.5392/jkca.2023.23.12.405.

[6] M. A. M. A. Daqar and A. K. A. Smoudy, "THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON ENHANCING CUSTOMER EXPERIENCE," International Review of Management and Marketing, vol. 9, no. 4, 2019, doi: 10.32479/irmm.8166.

[7] Y. Xu, C. H. Shieh, P. van Esch, and I. L. Ling, "AI customer service: Task complexity, problem-solving ability, and usage intention," Australasian Marketing Journal, vol. 28, no. 4, 2020, doi: 10.1016/j.ausmj.2020.03.005.

Information about the authors

Abduqayumova Ruxsoraxon Atxam qizi	PhD candidate at Westminster international university in Tashkent Email: ruxsoraxon.abduqayumova@wiut.uz Tel: +998997636871 ORCID: https://orcid.org/0009-0002-9096-8666
Uktamov Sarvar Atxam o'g'li	Toshkent davlat transport universiteti magstranti. e-mail: uktamovsa@gmail.com tel:+998998746575 ORCID: https://orcid.org/0009-0006-0298-9475

Improvement of the methods of reliable delivery of cargo flows in the international direction (in the example of the Termiz-Mazari-Sharif route) Systematic analysis of the literature

G.A. Samatov[1][a], I.A. Maxsumov[1][b], D.F. Yo‘ldoshev[1][c]
[1]Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: This article examines the example of the Termiz-Mazari Sharif route in the international transport of goods by road, rail and sea transport, and is devoted to the analysis of the interests of the countries participating in the formation of the trans-Afghan corridor, as well as its development prospects. is counted.

Keywords: International cargo transportation, Analysis of the activity of the Termiz Mazari-Sharif route, literature review, criteria, methods, economic relations

Xalqaro yo‘nalishda yuk oqimlarini ishonchli muddatlarda yetkazib berish usullarni takomillashtirish (Termiz-Mozori-Sharif yo‘nalishi misolida) Adabiyotlar tizimli tahlili

Samatov G.A.[1][a], Maxsumov I.A.[1][b], Yo‘ldoshev D.F.[1][c]
[1]Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqola yuklarni xalqaro tashishda avtomobil, temir yo‘l va dengiz transportlari orqali, transafg‘on koridorini shakiltirishda ishtirok etuvchi mamlakatlar manfaatlari Termiz-Mozori Sharif marshruti misolida ko‘rib chiqilgan bo‘lib uning rivojlantirish istiqbollari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: xalqaro tashuvlar, Termiz Mozori-Sharif marshruti faoliyati tahlili, adabiyatlar tahlili, mezonlar, usullar, iqtisodiy munosabatlar

1. Kirish

So‘nggi yillarda Markaziy Osiyoni yagona mintaqa sifatida rivojlantirishning ahamiyati va dolzarbligini e’tiborga olgan holda, faol mintaqaviy siyosat yuritish, Markaziy Osiyoda qulay siyosiy muhit yaratish, mintaqadagi mamlakatlar bilan birga barcha yo‘nalishlarda, jumladan, O‘zbekiston tashqi siyosatining ustuvor tarmoqlaridan bo‘lgan transport sohasi bo‘yicha konstruktiv va o‘zaro manfaatli munosabatlarni yo‘lga qo‘yish masalalarida belgilab olingan vazifalar bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Transport sohasi bo‘yicha konstruktiv va o‘zaro manfaatli munosabatlarni yo‘lga qo‘yish masalalarida belgilab olingan vazifalarda halqaro yuklarni tashish tizimini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. [3]

Xalqaro yuklarni tashish tushunchasiga turli sohalarning iyerarxik maqsad va vazifalarini inobatga olgan holda turlicha ta’riflar berilgan.

Umuman olganda avtomobillarda xalqaro tashishlarni rejalashtirishning aniqligini oshirish orqali - boshqaruv sifatini oshirish va buning natijasida avtomobillarda xalqaro tashishlar faoliyati samaradorligini mumkin. Ma’lumki, bojxona faoliyati bilan bog‘liq muammolar tufayli avtomobillarda xalqaro tashishlarlarni rejalashtirish va tashkil etish murakkab jarayonlarni qamrab oladi. Halqaro tashuvlarda yuklarni ishonchli muddatlarda (o‘z vaqtida), havfsiz va kamxarajat bilan yetib borishini ta’minlash, transport sohasi bo‘yicha konstruktiv va o‘zaro manfaatli munosabatlarni tashkil etishning ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Xalqaro yo‘nalishda yuk oqimlarini ishonchli muddatlarda yetkazib berish usullarni takomillashtirish maqsadida, bu borada ijobiy natijalarga erishgan va ilmiy yondoshuvlar asosida sohaga yangi usullarni joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqgan olimlar izlanishlari tahlil qilindi.

2. Tadqiqot metodologiyasi

Xalqaro yo‘nalishda yuk oqimlarini ishonchli muddatlarda yetkazib berish usullarini takomillashtirish tadqiqot ishida adabiyotlar tahlilini o‘tkazish uchun tanlangan adabiyotlarni tizimli, miqdoriy va sifat jihatdan tavsiflashga qaratilgan usullardan foydalanildi. Ma’lum bir

[a] https://orcid.org/0000-0001-6479-6173
[b] https://orcid.org/0009-0002-7265-361X
[c] https://orcid.org/0000-0002-6042-2737

mavzu bo‘yicha adabiyotlar tahlilini o‘tkazish bu ushbu mavzu bo‘yicha qaralayotgan davrgacha amalga oshirilgan ilmiy ishlar va natijalar haqida malumotlarni umumlashtirishda juda muhim vosita sanaladi. Ushbu tahlilni amalga oshirishda quyidagi mezonlar e’tiborga olindi:

-adabiyotni ko‘rib chiqish savollarini tuzish;

-adabiyotlarni malum mezonlar asosida chegaralash;

-tadqiqotni amalga oshirish uchun adabiyotlarni qidirish bazalarini belgilab olish;

-adabiyotlarni tanlab olish;

-adabiyotlarda mavzuning o‘rganilganlik darajasini baholash;

-tegishli malumotlarni ajratib olish;

-natijalarni tahlil qilish

-natijalarni sharhlash va tadqiqot yechimini maqolada bayon etish [45].

Yuqorida sanab o‘tilgan mezonlarni etiborga olgan holda tadqiqot ishini amalga oshirishning dastlabki rejalashtirilgan usulini quyidagi 1-ramda ko‘rsatib o‘tilgan.



1-rasm. Adabiyotlar tahlilini amalga oshirish jarayonlarining ketma-ketligi

Tadqiqot ishi mavzusi bo‘yicha adabiyotlar tahlilini o‘tkazishda tizimlilik va ketma-ketlikni taminlash hamda 1-rasmda berilgan tartibda belgilab olingan ishlarni amalga oshirish maqsadida 2-rasmda tasvirlangan bosqichlar va yo‘nalishlar bo‘yicha ishlarni amalga oshirish belgilab olindi.



2-rasm. Adabiyotlar tahlilini amalga oshirish mezonlari asosida tadqiqot ishini bajarishning uch bosqichli sxemasi (mualif ishlanmasi)

3. Muhokama va natijalar

Adabiyotlar va turli ilmiy-tadqiqotlar natijalari yoritilgan nashrlarni tahlil etish asosida yuklarni yetkazishda sifat mezonlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin [8].

- ko‘rsatilayotgan transport xizmatining narx-navosi;
- yuk va yo‘lovchilarni yetkazib berish ishonchliligi;
- yuklarni yetkazib berish texnologiyasi va boshqarilishining turli tashish sharoitlari va iste’molchilar talablariga moslashuvchanligi;
- xizmat ko‘rsatishning har tomonlama to‘laligi va ehtiyojni qamrab olishi;
- axborotlashganligi;
- erishish (olish) osonligi (mushkul emasligi).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yuklarni yetkazib berish ishonchliligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi Tadqiqot ishini amalga oshirishda to‘plangan adabiyotlardan tadqiqot mavzusiga moslarini ajratib olish uchun PRISMA (Preferred Reporting Items of Systematic reviews and Meta-Analyses) Flow Diagram usuli tanlab olindi. Tadqiqot ishi mavzusini ko‘lami va chegaralarini aniqlab olish uchun u bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni ko‘rib chiqish va tahlil qilish judayam muhim sanaladi. Biror bir belgilab olingan mavzu bo‘yicha tadqiqot ishini amalga oshirishni boshlagan tadqiqotchilar albatta tadqiqot ishi mavzusi bo‘yicha adabiyotlar tahlilini o‘tkazadilar.

Adabiyotlar tahlilini amalga oshirishda ilmiylik va ishonchlilikni taminlash maqsadida bir guruh tadqiqotchi olimlar tamonidan xalqaro marshrutlarda yuk oqimlarini

aniq va o‘z muddatida yetkazib berishni rejalashtirishning analitik usullari tanlab olindi.

Xalqaro marshrutlarda yuk oqimlarini aniq va o‘z muddatida yetkazib berishni ta’minlash bo‘yicha ilmiy manbalarda xalqaro marshrutlarda yuk oqimlari tushunchasiga turli tariflar berilgan bo‘lib, quyida (2-jadval) mazkur tushunchaning turli variantdagi talqinlari keltirilgan: (V.A.Dolgov) [10]

Quyidagi .1-jadvalda yuklarni yetkazib berish sifatini baholovchi ko‘rsatkichlar, ularni aniqlanish usullari va axborot manbalari ko‘rsatilgan [8].

1-jadval

Yuklarni yetkazib berish sifatini baholovchi ko‘rsatkichlar

	Turli talqinlar							**Jami**
	Tizim	**Tamoyil**	**Yondashuv**	**Kontsepsiya**	**Usul**	**Strategiya**	**Model**	
1. RF manbalari	11	10	3	5	3	2	2	22
2. Chet el adabiyotlari	10	2	5	3	3	1	-	13
Jami talqinlar	21	12	8	8	6	3	2	35

Yuqorida (1-jadval) yuklarni yetkazib berish sifatini baholovchi ko‘rsatkichlar, ularni aniqlanish usullari va axborot manbalari ko‘rsatilgan bulib ularning turli talkinlari keltirilgan [8].

1-jadvaldan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkinligi Sh.A. Bo‘tayev tomonidan berilgan:

• “aniq o‘z muddatida” tushunchasi adabiyotlarda bir xil talqin etilmagan;

• ko‘pchilik olim va mutaxassislar “aniq o‘z muddatida” tushunchasin kontseptual bayon ko‘rinishida yoki semantik darajada keltirganlar, faqat ikki manbada [26, 28] mazkur talab model darajasiga yetkazilgan. Ba’zi bir ilmiy ishlarda [28, 29] aniq o‘z muddatida yetkazib berishga oid modellar tavsiya etilgan. Ayrim yondashuvlarda [28] yetkazib berishning haqiqiy muddati bilan rejalashtirilgan muddati orasidagi farqdan kelib chiqadigan yo‘qotishlar narxini kamaytirish (minimallashtirish) masalasi qo‘yilgan bo‘lsa, boshqa ishlarda [29] yetkazib berish muddatining rejalashtirilgan qiymatini bajarish ehtimolini belgilangan darajada ta’minlash mezonini bajarish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Ushbu tadqiqotni amalga oshirish uchun adabiyotlarni to‘plashda Science Direct, Scopus, Research Gate va IEYEE Xplore Digital Library ma’lumotlar bazalari va boshqa ochiq manbalardan foydalanildi. Ushbu ma’lumotlar bazalaridan adabiyotlarni qidirishda yahlit tadqiqot mavzusi bo‘yicha qidirilganda tegishli adabiyotlar chiqmaganligi hamda Ilmiy adabiyotlarda “yukni aniq o‘z muddatida yetkazishni rejalashtirish” tushunchasi integrallashgan logistikaning asosiy obyekti – logistik sikl parametriga nisbatan qo‘llaniladi. Turli manbalarda quyidagi operatsiyalar logistik siklning bosqichlari sifatida ko‘rsatiladi [26]:

• buyurtmani tayyorlash va uzatish (t_1);

• buyurtmani olish va uni ishlash (t_2);

• buyurtmani komplektlashtirish va tayyorlash (t_3);

• buyurtmada ko‘rsatilgan yuk partiyasini transport vositalariga ortish (t_4);

• buyurtmani tashish, uni chegaralar, bojxonalar va terminallardan olib o‘tish (t_5);

• buyurtmani oxirgi terminaldan buyurtmachi tashkilotga yetkazib berish va transport vositalaridan tushirib olish (t_6).



3-rasm. Logistik siklning bosqichlari

Logistik sikl va uning alohida bosqichlari bajarilish muddatlari turli olimlar tomonidan tahlil etilgan va ularning asarlarida keltirilgan: masalan, D.Dj. Bauersoks, D.Dj. Kloss, Dj. R. Stok, D.M. Lambert va M. Kristofer va boshqalar. Quyidagi 2-javdalda mazkur mualliflar asarlarida keltirilgan logistik siklning alohida bosqichlarini bajarishga sarflanadigan vaqt muddatlarini [26] manba ma’lumotlariga asoslanib keltiramiz. Mazkur jadvaldan ko‘rinib turibdiki, logistik siklning asosiy tarkib-bog‘lanishlari, tugunlari va shu kabilar moddiy – texnik ta’minot, ishlab chiqarish va ta’minlash jarayonlari uchun bir xildir. Logistik tizim qanday murakkab bo‘lishidan qat’iy nazar muhim bog‘lanishlarni aniqlash uchun alohida logistik siklning bosqichlari va konfiguratsiyasini tahlil etish kerak.

Logistik siklni tashkil etuvchi vaqt intervallari ma’lum taqsimlanish qonuniyati va parametrlariga ega bo‘lgan tasodifiy kattaliklarni yuzaga keltiradi.

Logistik siklning yuqorida bayon etilgan xususiyatlarini hisobga olgan holda “aniq o‘z muddatida yetqazish” modelini shakllantirish uchun birinchi navbatda quyidagi tahlillarni amalga oshirish lozim bo‘ladi [8]:

Yuqorida ko‘rsatilgan malumotlar bazalaridan foydalangan holda mualliflar birinchi bosqichda 1670 dan ortiq ilmiy adabiyotlarni to‘pladilar (Science Direct-103, Scopus-206, ResearchGate-406, IEEE Xplore Digital Library-314 va boshqalar-653).

To‘plangan adabiyotlar 1-jadvalda belgilab olingan mezonlar bo‘yicha va PRISMA Flow Diagram usuli yordamida tekshirilgandan keyin 1645 ta adabiyot chiqarib tashlandi va 31 ta adabiyot tahlil qilish uchun tanlab olindi. (4-rasmga qarang). [35]:



4-rasm. PRISMA Flow Diagram (PRISMA usuli asosida muoliflar tamonidan tuzulgan)

2-jadval

Tadqiqot ishida tahlil qilingan adabiyotlar

Adabiyot turi		**Soni**	**Ulushi**
Maqolalar	Ilmiy jurnal	15	60%
	Ilmiy konferensiya	2	8%
Dissertatsiyalar	Magistrlik	6	24%
	PhD	4	16%
	Doktorlik	4	16%
Umumiy		31	**100%**

Yuqorida takidlangan baholash mezonlari bo‘yicha tahlil qilish uchun tanlab olingan adabiyotlarni 2-jadvalda ko‘rsatilgan tartibda turlarga ajratib chiqdik.

Ushbu adabiyotlar tahlilida 6 ta magistrlik, 1 ta Phd 1 ta doktorlik dissertatsiyasi va 17 ta ilmiy maqolalardan (15 ta ilmiy jurnal va 2 ta konferensiya) iborat 25 ta tadqiqot ishi o‘rganildi. Tadqiqot ishida tahlil qilingan adabiyotlarning nashr yillari adabiyotlar tahlili amalga oshirilgan davrni belgilab olish va qaysi yillarda eng ko‘p adabiyot va eng kam adabiyotlar nashr qilinganligini anqilash maqsadida o‘rganib chiqildi va 5-rasmda tasvirlandi.



5-rasm. Tahlil qilingan adabiyotlarning nashr qilingan yillari

5-rasmdan malum bo‘ladiki tahlil qilish uchun tanlab olingan adabiyotlarningt eng ko‘p qismi ya’ni 16% 2019-yilga to‘g‘ri keladi va tadqiqot ishi 2003-2023 yillarni qamrab olgan. Shuningdek mualliflar adabiyotlar tahlilining ishonchliligini taminlash maqsadida tadqiqot ishida turli davlatlar tadqiqotchilari tomonidan amalga oshirilgan ishlarni ko‘rib chiqishni niyat qilganlar. Turli davlatlar ilmiy tadqiqotchilari tomonidan yozilgan ilmiy ishlarni o‘rganish

tadqiqot mavzusiga ko‘p tomonlama yondoshuvni ta’minlaydi. Quyida 5-rasmda tahlil qilingan adabiyotlarning davlatlar ulushi tasvirlangan. 5-rasmdan ko‘rinib turibdiki ushbu adabiyotlar tahlilini amalga oshirish jarayonida foydalanilgan adabiyotlar ichida dunyoning 12 ta davlati olimlari tamonidan Xalqaro tashuvlar bo‘yicha yuklarni ishonchli vaqtlarda yetkazib berishni ta’minlashga oid ilmiy ishlar o‘rganib chiqilgan, ularning eng ko‘p ulushi 37 % Rossiya va 35% Xitoylik olimlar ishlariga to‘g‘ri keladi.

Tadqiqot ishida muammoning bayon etilishi va uni yechishda qo‘llanilgan usullar erishilgan natijaning ishonchliligini ta’minlovchi jihatlar hisoblanadi.

Mualliflar tahlil qilingan adabiyotlarning tadqiqot muammosi Yuklarni xalqaro tashuvlarda vaqt masalasi bo‘lganligi sababli muammoni yechishda foydalanilgan usullarni o‘rganib chiqdilar.



5-rasm. Tahlil qilingan adabiyotlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi



6-rasm. Adabiyotlarda yuklarni xalqaro tashuvlarda muammosini yechishda qo‘llanilgan usullar

6-rasmda ko‘rsatilgan usullarning aksariyati ko‘p yoki bir mezonli qaror qabul qilish usullari oilasiga mansub bo‘lib, ular ichida eng ko‘p qo‘llanilish ko‘rsatgichi AHP (Analytic Hierarchy Process) analitik ierarxiya jarayoni 50% holatga to‘g‘ri kelgan. Mavzuni nazariy jihatdan tahlil qilishda intervyu/anketa usuli ommaviy tarzda eng ko‘p qo‘llanilar ekan. Yuqorida keltirilgan malumotlar asosida shuni aytishimiz mumkinki, tahlil qilish uchun tanlab olingan adabiyotlarning ishonchlilik darajasi mavzuni yoritib berishda barcha sifat mezonlariga to‘g‘ri keladi.

Adabiyotlar va turli ilmiy-tadqiqotlar natijalari yoritilgan nashrlarni tahlil etish asosida yuk va yo‘lovchilarni yetkazish sifat mezonlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin [8].;

2-yondashuv. Aniq tegishli mezon va parametrlar asosida muayyan hudud uchun XAT masalasini ko‘p mezonli qaror qabul qilish usullaridan foydalanib yoki matematik model hisoblashlar yordamida aniqlash.

Ushbu ilmiy tadqiqot ishida tahlil qilingan adabiyotlarning 7 tasi 1-yondashuv bo‘yicha 28 tasi esa ikkinchi yondoshuv bo‘yicha yozilgan. Dastlab tahlilni 1-yondashuv bo‘yicha yozilgan adabiyotlardan boshlaymiz:

- ko‘rsatilayotgan transport xizmatining narx-navosi;
- yuk va yo‘lovchilarni yetkazib berish ishonchliligi;
- yuklarni yetkazib berish texnologiyasi va boshqarilishining turli
- tashish sharoitlari va iste’molchilar talablariga moslashuvchanligi;
- xizmat ko‘rsatishning har tomonlama to‘laligi va ehtiyojni qamrab olishi;
- axborotlashganligi;
- erishish (olish) osonligi (mushkul emasligi).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yuklarni yetkazib berish ishonchliligini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

2-jadval



Xalqaro avtomobillarda tashuvlarda anketa usulidan Transport xizmati sifatini yuqori darajada ta’minlash uchun birinchi navbatda iste’molchilarning yetkazib berish sifatiga qo‘yayotgan talablari va mezonlarini o‘rganish kerak. Buning uchun esa ulardan mazkur masalaga oid o‘y-fikrlarini so‘rab bilish, anketalashtirish, ularning turli nisbiy baholashlarini, ya’ni boshqacha aytganda, transport xizmati sifatiga bo‘lgan talablarning qanday shakllanishi va o‘zgarishini o‘rganish lozim bo‘ladi. Bunda bozorga oid omillar ta’sirini hisobga olish ham muhim rol o‘ynaydi.

3-jadval

Anketa so‘rovi va ma’lumotlarni tahlil qilish tafsilotlari

No.	Elementlar	Tarkib
1	So‘rov usuli	Anketa so‘rovi
2	Namuna olish usuli	Tasodifiy bo‘lmagan tanlov
3	Baholash usuli	Miqdoriy, sifat jihatidan -Ha/Yoq
4		- Ko‘p tanlov -ochiq-yopiq
5	So‘rov vaqti	iyul, 2019
6	Respondentlar soni	Logistika xizmatlarini bilan shug‘ullanuvchilar: 46
7	Ma’lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish vositalari	SPSS (Statistic Package for Social Science)
8		Cronbach Alpha factor (α): $0.6 \leq \alpha < 0.7$: qoniqarli $0.7 \leq \alpha < 0.8$: yaxshi $0.8 \leq \alpha \leq 1.0$, $\alpha \geq 0.8$: juda yaxshi

• “aniq o‘z muddatida” tushunchasi adabiyotlarda bir xil talqin etilmagan;

• ko‘pchilik olim va mutaxassislar “aniq o‘z muddatida” tushunchasin

kontseptual bayon ko‘rinishida yoki semantik darajada keltirganlar, faqat ikki manbada [26, 28] mazkur talab model darajasiga yetkazilgan. Ba’zi bir ilmiyishlarda [28, 29] aniq o‘z muddatida yetkazib berishga oid modellar tavsiya etilgan. Ayrim yondashuvlarda [28] yetkazib berishning haqiqiy muddati bilan rejalashtirilgan muddati orasidagi farqdan kelib chiqadigan yo‘qotishlar narxini kamaytirish (minimallashtirish) masalasi qo‘yilgan bo‘lsa, boshqa ishlarda [29] yetkazib berish muddatining rejalashtirilgan qiymatini bajarish ehtimolini belgilangan darajada ta’minlash mezonini bajarish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Ilmiy adabiyotlarda “yukni aniq o‘z muddatida yetkazishni rejalashtirish” tushunchasi integrallashgan logistikaning asosiy obyekti – logistik sikl parametriga nisbatan qo‘llaniladi. Turli manbalarda quyidagi operatsiyalar logistik siklning bosqichlari sifatida ko‘rsatiladi [26]:

Logistik sikl va uning alohida bosqichlari bajarilish muddatlari turli olimlar tomonidan tahlil etilgan va ularning asarlarida keltirilgan: masalan, D.Dj. Bauersoks, D.Dj. Kloss, Dj. R. Stok, D.M. Lambert va M. Kristofer va boshqalar. Quyidagi 2.3. javdalda mazkur mualliflar asarlarida keltirilgan logistik siklning alohida bosqichlarini bajarishga sarflanadigan vaqt muddatlarini [26] manba ma’lumotlariga asoslanib keltiramiz. Mazkur jadvaldan ko‘rinib turibdiki, logistik siklning asosiy tarkib-bog‘lanishlari, tugunlari va shu kabilar moddiy – texnik ta’minot, ishlab chiqarish va ta’minlash jarayonlari uchun bir xildir. Logistik tizim qanday murakkab bo‘lishidan qat’i nazar muhim bog‘lanishlarni aniqlash uchun alohida logistik siklning (tts) bosqichlari va konfiguratsiyasini tahlil etish kerak.

Logistik siklni tashkil etuvchi vaqt intervallari ma’lum taqsimlanish qonuniyati va parametrlariga ega bo‘lgan tasodifiy kattaliklarni yuzaga keltiradi.

Logistik siklning yuqorida bayon etilgan xususiyatlarini hisobga olgan holda “aniq o‘z muddatida yetqazish” modelini shakllantirish uchun birinchi navbatda quyidagi tahlillarni amalga oshirish lozim bo‘ladi [8]:

1. Logistik siklning tarkibiy tuzilmasini aniqlash joiz. Bunda siklni tashkil etuvchi barcha operatsiyalar va ularni bajarish sxemasini asoslash kerak. Ayrim hollarda bir necha operatsiyalar (masalan, yuklarni komplektlashtirish va ularni rasmiylashtirish) bir vaqtda paralel kanallarda bajarilishi mumkin va ular muddati tasodifiy kattalik sifatida shakllanadi.

2. Logistik siklni tashkil etuvchi operatsiyalarni bajarish muddatlarining tasodifiy taqsimlanishini aniqlashtirish uchun statistik kuzatuvlar o‘tkazish lozim.

3. O‘tkazilgan statistik kuzatuvlar asosida siklni tashkil etuvchi operatsiyalarga sarflanadigan vaqtning har birini tasodifiy taqsimlanish qonuni va parametrlarini aniqlash zarur.

Quyidagi 2.3. rasmda Sh.O. Butayev ilmiy tadqiqot ishlarida logistik siklni tashkil etuvchi operatsiyalarga sarflanadigan vaqtning tasodifiy kattalik sifatidagi taqsimlanish zichligi keltirilgan [8].

4-javdal

Logistik sikl bosqichlariga sarflanadigan vaqt muddatlari

Logistik tsikl bosqichlari	**Logistik tsikl bosqichlari muddati**				
	[30] manbaa		[32] manbaa		[33] manbaa
	Qiymat intervali	Kutilgan qiymat	Qiymat intervali	Kutilgan qiymat	Qiymat intervali
1. Buyurtmani tayyorlash va uzatish t_1	0,5-3	1	0,5-1,5	1	1-5
2. Buyurtmani olish va uni ishlash t_2	1-4	2	1-3	2	1-3
3. Buyurtmani komplektlashtirish va tayyorlash t_3	1-20	2	1-9	1	1-9
4. Buyurtmani tashish, uni chegaralar, bojxonalar va terminallardan olib o‘tish t_4	2-10	4	1-9	3	1-5
5. Buyurtmani oxirgi terminaldan buyurtmachi tashkilotga yetkazib berish t_5	0,5-3	1	0,5-3	1	1-3
Jami	5-40	10	3,5-20	8	5-25

Logistik sikl elementlarining tasodifiy kattalik sifatida taqsimlanish qonunlari va parametrlari (2.3-jadval va 2.2-rasm) aniqlangandan so‘ng quyidagi statistik ko‘rsatkichlarni hisoblash mumkin:

Logistik siklning statistik parametrlarini hisoblash [8].

Logistik siklning o‘rtacha muddati tts uni tashkil etuvchi alohida operatsiyalar o‘rtacha muddatlari ning yig‘indisiga tengdir, ya’ni

$$t_{u} = \sum_{i=1}^{N} \bar{t}_i \; ; \qquad (1)$$

Quyidagi -jadvalda yuklarni yetkazib berish sifatini baholovchi ko‘rsatkichlar, ularni aniqlanish usullari va axborot manbalari ko‘rsatilgan [8].

5-javdal

Yuklarni yetkazib berish sifatini baholovchi ko‘rsatkichlar

Sifatni baholovchi mezon	Ko‘rsatkich	Aniqlanish usuli	Axborot manbai
1	2	3	4
1. Narx-navosi	Xizmatning narxi	Hisoblash, shartnoma	Preyskurant
2. Ishonchlilik 2.1. O‘z muddatida yetkazish	Yetkazib berish muddati	Istiqbolni belgilash usuli, ekspert usuli	Statistik axborotlar

2.2. Yukning saqlanganligi	Yo‘qotilgan yuklar foizi		
2.3. Tavakkalligi darajasi	Buzilgan yuklar hajmi		
	Yo‘qotish hajmi		
2.4. Muvofiqlashgan hamkorlik	Muvofiqlashgan hamkorlikda ishlash vaqti	Istiqbolni belgilash usuli, ekspert usuli	Statistik axborotlar
	Hamkorlikda muvaffaqiyatli amalga oshirilgan loyihalar foizi		
	Aloqalar tizimining mavjudligi		
	Muvofiqlashgan hujjatlashtirish		
	Texnik jihatdan muvofiqlashganlik (tara turlari, qadoqlash, kuzov xillari va sh.k)		
2.5. Yo‘l harakati xavfsizligi	Yo‘l harakati hodisalari soni (bir yildagi transport ishiga to‘g‘ri keladigan)		
2.6. Ekologik xavfsizligi	Zaharlilik va shovqinlik darajalari		
2.7. Obro‘-e’tibor	Firmaning obro‘yi (yillik shikoyatlar soni)	So‘rovlar o‘tkazish	Statistik axborotlar, ommaviy axborot vositalari, xaridorlar va hamkorlar axborotlari
	Ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifat darajasi		
	Xodimlarning xayrixohligi va to‘g‘riso‘zligi		
	Xodimlarni kasbiy tayyorgarligi		
	Moliyaviy imkoniyatlari		
	Hamkorlikka intilishi		
3. Tizimning moslashuvchanligi		Marketing metodlari, shartnoma	Shartnomalar, preyskurantlar
3.1. Xizmat ko‘rsatishda (XK)	XKning turli darajalari mavjudligi		
	Etkazib berish sharoitini o‘zgartirish imkoniyati		
3.2. To‘lovlarni amalga oshirishda	Kredit, narx-navoni pasaytirish, to‘lov muddatini uzaytirish		
4. Erishish osonligi		Istiqbolni belgilash usullari	Statistik axborotlar
4.1. XK qulayligi	Buyurtmani qayta ishlash qiyinligi		
4.2. Xizmatga tayyorligi	Bajarilgan ishlar foizi		
5. Axborotlashgani		Istiqbolni aniqlash usullari, ekspert usullari, shartnoma	Statistik axborotlar
5.1. Axborotning aniqligi	Noto‘g‘ri axborotlar foizi		
5.2. Axborot berish tezkorligi	Axborot tayyorlashga ketgan vaqt		
	Bir soatda beriladigan axborotlar soni		
5.3. Axborotlarning to‘laqonligi	Axborot beriladigan masalalar doirasi		
6. Kompleks yondashuv		Marketing usullari, shartnoma	Statistik axborotlar, litsenziyalar
6.1. Asosiy xizmatlar ko‘rsata olish	Xizmat ko‘rsatish turlari		
6.2. Xizmat turlari bo‘yicha ish hajmi	Texnik, axborot, moliyaviy va sh.k. xizmatlar		
6.3. Qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatish imkoniyati	Xizmatlar ro‘yxati (maslahatlar, yuridik, tashkiliy va sh.k xizmatlar)		

Yuqorida keltirilganlarni hal etish uchun ekspertlar tomonidan bir necha usullar A.O.Merenkov tomonidan tavsiya etilgan [11]:

-ekstensiv, yo‘l infratuzilmasini qurish;

-intensiv, transport oqimini optimallashtirish va boshqarishda intellektual transport tizimlari (ITT)ni qo‘llash.

Shuning uchun bu muammoni intellektual transport tizimi sifatli hal etishi mumkin, bunda fan va texnikaning yutuqlaridan samarali foydalaniladi. ITT barcha yo‘l harakati ishtirokchilari uchun ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va yetkazishda zarur bo‘lgan jihozlar, dasturiy ta’minot va tarmoqlarning birlashtirilishi yordamida bunday samaradorlikga erishiladi.

Iqtisodiy hudud yoki mintaqada tashish oqimlarini samarali tashkil etish uchun transport kommunikatsiyalarini optimal joylashtirish va rivojlantirish masalalari doimo olimlar va mutaxassislar diqqat markazida bo‘lgan. Ilgarilari bajarilgan ilmiy ishlarda transport tarmog‘ini rivojlantirishning oqilona variantini izlash muammolari umumiy ko‘rinishda berilmagan. Transport tarmog‘ini kelajakdagi rivojlantirish variantlarini belgilashda chuqur nazariy bilim va tajribaga asoslangan hamda muhandislik ishlanmalari talab etiladi.

Yuk va yo‘lovchi tashishning asosiy vositasi bo‘lgan avtomobil yo‘llari tarmog‘ini optimal rejalashtirish va shu asosda kamxarj yo‘l tarmoqlarini loyihalash asoslari V.N.Obraztsov, D.A.Vulis, V.G. Nezabudkin, A.K. Birulya, va boshqalar ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Olib borilgan tahlillardan ma’lum bo‘ldiki dunyoning ko‘pgina xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari xalqaro tashuvlarda yuklarni avtomobil transporti temir yo‘l transporti dengiz transportida yuklarni xalqaro tashishlarda turli parametrlarini tanlash va hisoblash samaradorligini o‘rganishga bag‘ishlangan.

D. Bauersoksning fikricha, an’anaviy usullarga nisbatan yuk tashuvlarini tashkil etishning afzalligi va iqtisodiy samaradorligi masalalarini kiritgan holda multimodal va intermodal yuk tashuvlarini tashkil etish muammolariga alohida e’tibor qaratgan. Shu bilan birga muallif, transport tarmoqlari, transport vositalari va transport

kompaniyalari o‘z ichiga olgan integratsiyalashgan transport tizimini alohida qayd etadi *

S.M. Rezer, o‘z ishida o‘zgarishlar sharoitida mintaqaviy transport tizimlarini boshqarish modeli va muammolari ko‘rib chiqilgan. Mamlakat ishlab chiqarish-transport tizimida transport turlarining o‘zaro ta’sir usullari, transport ishlari bozorini prognozlash metodologiyasi va magistral yo‘l transportida yuklash ishlarini rejalashtirish prinsiplarini to‘liq tahlil etgan [34].

Tashish jarayonini tavsiflovchi umumlashtirilgan mezoni tashishning umumiy xarajatlariga transportning texnologik xarajatlari, ya'ni tashish, yuklash va saqlash vaqtlaridan iborat bo'lgan sarflangan vaqt, shuningdek sug'urta xarajatlari kiradi:

$$Z = \sum C + \sum T \cdot \tau + \sum D, \quad (2)$$

Bu yerda Z – transportning umumiy xarajatlarini bildiradi, sh.p.b.; C – transportning texnologik xarajatlarini bildiradi, sh.p.b.; $T \cdot \tau$ - umumiy vaqt xarajatlarini bildiradi, sh.p.b.; T – tashish, yuklash va saqlash vaqti, soat; τ – vaqt bo'yicha nisbiy xarajatlarni bildiradi, sh.p.b./soat; D – sug'urta xarajatlarini bildiradi, sh.p.b.

A.L. Nosov hozirgi sharoitda xalqaro integratsiyalashgan transport tizimlarining tashkil etilishi va maqbul faoliyat yuritishi muammolari tadqiq etiladi. Xalqaro qatnovlarda aralash tashqi savdo tashuvlarini tashkil etishni takomillashtirish yo‘nalishlarini ko‘rsatgan holda aralash yuk tashuvlarini rivojlantirish istiqbollari alohida ta’kidlaydi

Yuk tashish oqimlarini tarmoqda оптималлаштириш масалаларини ечиш учун **Ye.P. Nesterov, G.N. Kovshov** томонидан мультитармоқ усули taklif etilgan. B.H.Лившитс taklif etgan usulida masala yuk oqimlarini kichik ulushlarda ko‘p marotaba taqsimlash va yoyning differensial tannarxini oraliq qayta hisoblashlar asosida yechilsa, multitarmoq usulida yuk oqimlari taqsimlanishi shartli tarmoqda amalga oshiriladi. Bunda zvenoning har bir yoyi transport tarmog‘i va vositalarining texnik jihozlanishi ko‘zda tutilgan rivojlanish darajasiga mos o‘tkaziladi. Har bir yoyga texnik jihozlanish darajasiga mos o‘tkazish qobiliyati va tannarx xarakteristikasi yoziladi. Bunda differensial xarajat prinsipi qo‘llaniladi, ya’ni oqimning o‘sishiga oid parametrlar keltirilgan xarajat kattaligida o‘z aksini topadi. Yuk oqimlari multitarmoq yoyining o‘tkazish qobiliyatini hisobga olgan holda qisqa yo‘l bo‘yicha taqsimlanadi. O‘tkazish qobiliyati to‘ldirish meyori talabiga javob bergan yoy keyingi hisoblarda qaralmaydi. Keyin esa qolgan yuk oqimlari keyingi qisqa yo‘l bo‘yicha taqsimlanadi. Tashishni kamxarj transport tarmog‘ida amalga oshirish bilan birgalikda uning uzluksizligini ham ta’minlashi uchun avtomobil yo‘lining mahalliy tarmog‘ini rivojlantirishni taqoza etadi. Avtomobil yo‘lining mahalliy tarmog‘i tadqiq etilayotgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashi kerak bo‘ladi. Shuning uchun ilmiy-tadqiqot ishida harakat jadalligi kichik bo‘lgan sharoitlar uchun hudud avtomobil yo‘l tarmog‘ini rivojlantirishning metodikasi asoslangan.

Mamlakatimiz olimlaridan **G.Samatov, A.Zoxidov, A.Gulamov** va **M.Ravshanovlarning** fikricha “transport tizimi – bu yuk va yo‘lovchilarni o‘z manziliga yetkazish jarayonida o‘zaro aloqasi bo‘lgan transport turari va infratuzilmalari majmuasi, ya’ni o‘zaro bog‘liq bo‘lgan transport sektorlari, mehnat resurslari hamda mamlakat iqtisodiyotini samarali bosharish maqsadida transportning barcha turlarini boshqaruv tizimi tushiniladi” [7].

Transport uchastkalarida yuk tashishga kam vaqt sarf etish shartidan kelib chiqib yo‘llarning ayrilish nuqtalarini aniqlashni I.A.Romanenko tavsiya etganligi A.Kuziyev ishlarida keltirib o‘tilgan.

4. Xulosa

Ushbu muammoga bag‘ishlangan maqolalar, konfrensiya ma’ruzalari va magistrlik/PhD/doktorlik dissertatsiyalarida o‘rganilmoqda. Tadqiqot ishida yaxshiroq yechimlarga erishish uchun aniq mezonlarni aniqlash va to‘g‘ri metodologiyani tanlash kerak.

Ushbu tadqiqotda XAT larning muammosi bo‘yicha adabiyotlar quyidagilarga asoslangan holda ko‘rib chiqiladi: nazariy jihatdan qaror qabul qilish texnikasi, qaror mezonlari va amalga oshirish usullari. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi tadqiqotchilar va soha vakillari uchun XAT larning ahamiyati bo‘yicha tushuncha berish, shuningdek muammoning dolzarblik darajasini ochib berishdan iborat. Shu maqsadda adabiyotlardan 6 ta magistrlik dissertatsiyasi, 4 ta Phd, 6 ta doktorlik va 17 ta ilmiy maqola ko‘rib chiqildi. Ushbu tadqiqot ishidagi tahlillar natijalaridan quyidagilarni xulosa qilish mumkin: Bugungi davr sharoitlaridan kelib chiqib ekologik omillarni ham ko‘proq tahlil etish zarur. Ushbu ilmiy maqola muallifning PhD dissertatsiyasi doirasida tadqiqot ishi Dastlabki bajarilgan ilmiy-tadqiqotlarda tashish-transport tarmog‘i uchastkalari qurishning oddiy holatlarida qo‘llaniladigan analitik, grafik va grafoanalitik usullar ishlab chiqilgan va tavsiya etilgan.

Manzillarni eng qisqa yo‘l bilan bog‘laydigan tashish tarmoqlarini optimal shakllantirish borasida ishlab chiqilgan model va usullar tahlil etilgan.

Tahlilar asosida eng qisqa bog‘lovchi tarmoqlarni biriktirish usulida ko‘rilayotgan uchastka tranzit bo‘lib o‘tayotgan qo‘shimcha yuk oqimi hisobga olinmasligi va bunday holat ko‘zda tutilayotgan tashish xarajatlarini, olinadigan yechim optimalligini sezilarli darajada o‘zgartirishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi.

Foydalangan adabiyotlar / References

[1] Бўтаев Ш.А., Сидиқназаров Қ.М., Муродов А.С., Қўзиев А.Ў. Логистика (етказиб бериш занжирида оқимларни бошқариш).-Тошкент: Extremum-Press, 2012.-577 б.

[2] Ковшов Г.Н., Зенкин А.А. Российская транспортная инфроструктура международного значения и возможные пути её развития // БТИ.-М.:1998.-вып. 40-С.56-61.

[3] Кузиев А. Алгоритм распределения грузопотоков на единой транспортной мультисети для рационального развития полигона транспортной сети//Вестник ТГТУ – Ташкент, 2007. №1. –С.112-114.

[4] Kuziev A., Shermukhamedov A. Solution of the problem of optimal distribution of cargo flows in the region and the development of its transport network. International Journal of Mechanical and Production Engineering Research and Development (IJMPERD) ISSN (P): © TJPRC Pvt. Ltd// http://www.tjprc.org/publishpapers/2-67-1599292919-IJMPERDJUN20201083.pdf

[5] Кузиев А. О решении задачи оптимального развития единой транспортной сети//Вестник ТИИЖТ. – Ташкент, 2007, -№3/4.-С.85-88.

[6] Кузиев А. Структура программ алгоритма распределения грузопотоков на транспортной сети//Сбор. науч. трудов ТТИ. – Душанбе, 2007. –С. 46-49

[7] Кузиев А.Ў. Ҳудудда истиқболдаги оқимларни ўзлаштиришда мультимодал ташишни қўллаш// Логистика ва иқтисодиёт илмий электрон журнали №3, 2021.-198-204 б.

[8] Кузиев А.Ў. Ҳудудда мультимодал ташиш ва транспорт тармоғини ривожлантириш// Innovatsion texnologiyalar. №2, 2020.-32-38 б.

[9] Кузиев А.Ў., Азизов Ш.А. Ҳудуддаги оқимларни транспорт тармоғида оптимал тақсимлаш ва уларни ривожлантириш// Инновацион технологиялар/Innovative technologies/32-39 б.

[10] Кузиев А.Ў., Қурбонов Ш.С., Ниёзов М.Қ. Ҳудудда мультимодал транспорт тармоғини ривожлантириш// Фарғона политехника институти Илмий – техника журнали. №5, 2020-65-71 б.

[11] Кузиев А.У., Муратов А.Х. Развитие и эффективное использование региональных сетей мультимодальных перевозок/Транспорт в интеграционных процессах мировой экономики. Материалы Международной научно-практической онлайн-конференции, Гомель, 2020.-с. 116-120.

[12] Лившиц В.Н. Выбор оптимальных решений в технико-экономических расчетах. – М.: Экономика,1991. – 254 с.

[13] Лившиц В.Н. Оптимизация при перспективном планировании и проектировании. – М.: Экономика, 1984. – 224 с.

[14] Лившиц В.Н., Белоусова Н.И., Бушанский С.П. Совершенствование теоретических основ, моделей и методов оптимизации развития сети автомобильных дорог//Сб.науч.тр.ЗАО. Компьютерный аудит, №3. 2004-С.114-120.

[15] Нестеров Е.П. Транспортные задача линейного программирования. –М.: Транспорт, 1971.-234с.

[16] Петров А. В. и др. Вычислительная техника и программирование-М.: Выс. шк.1990.-474 с.

[17] Питерсон Дж. Теория сетей Петри и моделирование систем. – М.: Мир. 1984.

[18] Ульджабоев К.У. Экономическая реформа на железнодорожном транспорте.- Ташкент, Мехнат, 1999. – 262 с.

[19] Шермухамедов А., Кузиев А.Ў., Тоғаев А.Мультитармоқда истиқболли ташишнинг тақсимланиши ва транспорт тармоғи полигонини ривожлантириш масаласини ечишнинг компьютер дастури/ (№DGU 07111).-2019.

[20] Kuziev A.U. Formation of territorial transportation network for optimization of load flows in the region// Academicia an international multidisciplinary research journal, Vol. 10, Issue 8, August 2020 Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13, P.-331-339.

[21] Yan Luo, Yinggui Zhang, Jiaxiao Huang, Huiyu Yang. (2020) Multi-route planning of multimodal transportation for oversize and heavyweight cargo based on reconstruction//Computers and Operations Research. Pp. 1-13.

[22] Бауэрсокс Дональд Дж., Клосс Дейвид Дж. Логистика:

[23] интегрированная цепь поставок.-М.: Олимп-Бизнес, 2001.-640 с.

[24] Бэнсон Д., Уайхед Дж. Траспорт и доставка грузов./ Пер.с англ.-М.: Транспорт, 1990.-279 с.

[25] Сток Дж. Р.,Ламберт Д.М. Стратегической управление логостикой:Пер.с.4-го англ.изд.-М.: ИНФРА-М.,2005.-797 с.

[26] В.А.Топалиди, К.М.Сидикназаров, И.С. Садиков, Н.В.Чубенко, Н.В. Кузнецов. “Международные автомобилбные перевозки грузов” Учебное пособие /под редакцией В.А.Топалиди,-Ташкент.:2005.

[27] Транспортная логистика: Учебново пособие/ Под общей ред. Л.Б.

[28] Миротина -М.: Экзамен, 2002.-512 с.

[29] 27.Уотерс Д. Логистика. Управление цепью поставок / пер. с англ. М.: ЮНИТИ-ДАНА,2003.-503

[30] 28.Чудаков А.Д. Логистика: учеб. М.: РДЛ, 2001.-480 с.

[31] 29. Kuziyev A.U. Makhsumov I., Planning For The Timely Delivery Of Cargo Flows On International Routes, International Journal of Formal Education Volume: 2 Issue: 6 | June – 2023 year Pg.234.-240. ISSN: 2720-6874

[32] 30. Kuziyev A.U. Makhsumov I.,Eurasian Journal of Engineering and Technology. -Volume 12| November, 2022, pg. 40-46, 2022-yil. ISSN: 2795-7640

[33] 31.Umidilla Nazrullaevich Ibragimov. Ro’za Abdurahmonovna Rahmanbaeva. Mahmudjon Murodjon o’g’li Tohirov. CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES (CARJIS) Google Scholar Universal Impact Factor: 7,1 ISSN:2181-2454 www.carjis.org DOI: 10.24412/2181-2454-2022-2-147-153 VOLUME 2 | ISSUE 2 | 202

[34] 32. Штерн, Любовь Олеговна 1998, Санкт-Петербург Разработка методики планирования международных автомобильных перевозок : диссертация кандидата технических наук

[35] 33. Зоҳидов А.А. Марказий осиё транспорт тизимини самарали бошқариш

[36] механизмини таккомиллаштириш. Иқт. фан. док. ... дис. Автореф., Тошкент 2018.

[37] 34 Резер, С. М. Логистика. Словарь терминов *Текст+ / С. М. Резер, А. Н. Родников. – М.: ВИНИТИ РАН, 2007. – 412 с.

[38] 35.Moher D, Liberati A, Tetzlaff J, et al. Preferred Reporting Items for Systematic Reviews and Meta-Analyses: The PRISMA Statement. PLoS Med. 2009 Jul 21;6(7): e1000097.

Mualliflar to‘g‘risida ma’lumot/ Information about the authors

Samatov G‘affor — Toshkent davlat transport universiteti, “Transport logistikasi” kafedrasi mudiri, i.f.d. prof,
E-mail: transportlogistikasi@mail.ru; Tel: +99897 404 90 56 https://orcid.org/0000-0001-6479-6173

Maxsumov Isroiljon
Toshkent davlat transport universiteti, “Transport logistikasi” kafedrasi assistenti,
E-mail maxsumovisroil1995@gmail.com
Tel: +998990910226
https://orcid.org/0009-0002-7265-361X

Yo‘ldoshev Davron
Toshkent davlat transport universiteti, “Transport logistikasi” kafedrasi PhD katta o‘qituvchisi,
E-mail: davron.yoldoshev@bk.ru
Tel: +998974114169
https://orcid.org/0000-0002-6042-2737

Development of a method for assessing the impact of organizing shunting operations with different numbers of locomotives on the quality indicators of the use of rail transport

D.Ya. Nazhenov[1][a], A.T. Baqoyev[2][b], A.Q. Yusupov[2,3][c], Sh.M. Suyunbayev[2][d]
[1]Karakalpak State University name after Berdakh, Nukus, Uzbekistan
[2]Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan
[3]Chirchik branch of the South Kazakhstan Research University named after M. Avezov, Uzbekistan

Abstract: When choosing a rational number of shunting locomotives, one of the main factors is the performance indicators of railway transport. At the same time, the economic efficiency of attracting an additional shunting locomotive is achieved mainly by reducing the working fleet of cars as a result of accelerating technological operations during shunting work. The article develops a method for assessing the impact of organizing shunting operations with different numbers of locomotives on the quality indicators of railway transport operation. Based on the initial data of a conditional junction section station, shunting operations are graphically modeled and economic indicators for using 2 locomotives instead of 1.5 are determined.

Keywords: Junction section station, shunting locomotive, shunting work, sorting of wagons, waiting for technological operations to be performed, quality indicators of railway transport operation

Manyovr ishlarini turli sondagi lokomotivlar bilan tashkil etishning temir yo‘l transportini ishlatish sifat ko‘rsatkichlariga ta’sirini baholash usulini ishlab chiqish

Nazhenov D.Ya.[1][a], Baqoyev A.T.[2][b], Yusupov A.Q.[2,3][c], Suyunbayev Sh.M.[2][d]
[1]Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
[2]Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
[3]M. Auezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston ilmiy-tadqiqot universitetining Chirchiq filiali

Annotatsiya: Manyovr lokomotivlarining ratsional sonini tanlashda temir yo‘l transportini ishlatish ko‘rsatkichlari asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bunda qo‘shimcha manyovr lokomotivini jalb etishning iqtisodiy samaradorligi asosan manyovr ishlaridagi texnologik amallarni tezlashtirish natijasida tejaladigan vagonlarning ishchi parki orqali olinadi. Maqolada manyovr ishlarini turli sondagi lokomotivlar bilan tashkil etishning temir yo‘l transportini ishlatish sifat ko‘rsatkichlariga ta’sirini baholash usuli ishlab chiqilgan. Shartli uzel uchastka stansiyasining boshlang‘ich ma’lumotlari asosida manyovr ishlari grafoanalitik modellashtirilgan va 1,5 ta o‘rniga 2 ta lokomotiv ishlatishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari aniqlangan.

Kalit so‘zlar: Uzel uchastka stansiyasi, manyovr lokomotivi, manyovr ishlari, vagonlarni saralash, texnologik amallar bajarilishini kutib qolish, temir yo‘l transportini ishlatishning sifat ko‘rsatkichlari

1. Kirish

Bugungi kunda vagon aylanmasi ko‘rsatkichini yaxshilash orqali temir yo‘l transportida yuklarni o‘z muddatida iste’molchiga yetkazib berish dolzarb vazifalardan biridir. Buning uchun bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda [1-7]. Biroq, mavjud ilmiy ishlarda manyovr ishlarini yaxshilash hisobiga olinadigan iqtisodiy samaradorlikni baholashda faqat harakatlanuvchi tarkiblarning turib qolishidan va yoqilg‘idan tejaladigan mablag‘larni inobatga olish bilan chegaralangan [8-10]. Amaliyotda vagonlarning turib qolish vaqti qisqarishi natijasida vagon aylanmasi kamayadi va ishchi park tejaladi. Ushbu tadqiqotda vagonlarning ishchi parki tejalishidan olinadigan iqtisodiy samaradorlikni hisobga olgan holda manyovr ishlarini 1,5 va 2 ta lokomotiv yordamida tashkil etishning temir yo‘l transportini ishlatish sifat ko‘rsatkichlariga ta’sirini baholash usulini ko‘rib chiqamiz.

[a] https://orcid.org/0009-0004-4795-1708
[b] https://orcid.org/0009-0003-0655-0448
[c] https://orcid.org/0000-0002-0662-4610
[d] https://orcid.org/0000-0002-4867-8270

2. Tadqiqot metodikasi

Poyezdlar qatnovi jadalligini ta’minlashga poyezdlarning peregondagi harakatlanish vaqti bilan bir qatorda tarkibni saralash va tuzish ishlari ham ta’sir ko‘rsatadi. Saralash stansiyalari poyezdlarni tuzish bilan shug‘ullansa, uchastka stansiyalari yo‘l davomida tarkiblarni ko‘rikdan o‘tishini ta‘minlash uchun xizmat qiladi, shuning uchun uchastka stansiyasida ham saralash ishlari ma’lum miqdorda olib boriladi. Tarkiblarni saralash va poyezdlarni qayta tuzish ishlari uchun manyovr lokomotivlaridan foydalaniladi. Bunda manyovr lokomotivlarining talab etiladigan soni stansiyadagi manyovr ishlarining hajmiga bog‘liq ravishda quyidagicha aniqlanadi:

$$M_{man} = \frac{K_N^M \cdot \Sigma Mt}{L_{vr} \cdot 1440 - (T_{sb} + T_{ek} + T_{tp})}, lok. \quad (1)$$

bunda: K_N^M – hisobot ma’lumotlari bo‘yicha belgilanadigan, manyovr ishlarining sutkalik hajmining nomutanosibligi koeffitsiyenti (1,1 ÷ 1,3);

ΣMt – sutka davomidagi stansiyadagi yoki alohida manyovr rayonlaridagi manyovr ishlarini bajarilishiga sarflanadigan lokomotiv-daqiqalar yig‘indisi, lok.-daq.;

L_{vr} – manyovr ishlaridagi qarama-qarshi marshrutlar tufayli to‘xtalishlarni hisobga oluvchi koeffitsient (0,95 qabul qilindi);

T_{sb} – sutka davomida lokomotiv brigadalarini almashinishiga sarflanadigan vaqt (15 daqiqadan sutkasiga 2 marta, jami 30 daq.);

T_{ek} – sutka davomida manyovr lokomotivini ekipirovkadan o‘tkazilishiga ketgan vaqt sarfi T_{ek} = 60 *daqiqa*

T_{ek} – sutka davomida manyovr lokomotivini ekipirovkadan o‘tkasish uchun sarflanadigan vaqt (60 daq.);

T_{tp} – manyovr lokomotivi ishida texnologik to‘xtalishlarga sarflanadigan umumiy vaqt (50 daq.).

ΣMt parametrni hisoblasning ikki xil usuli mavjud. 1. Manyovr yarim reyslari davomiyligini xronometraj kuzatish orqali hisoblash. 2. Manyovr yarim reyslari davomiyligini yo‘l uzunligi va manyovr tezliklaridan kelib chiqqan holda hisoblash orqali.

Shartli uzel uchastka stansiyasi misolida 2-usul asosida aniqlangani ΣMt miqdori aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Lokomotivlar bilan barcha turdagi manyovr ishlarini bajarilishiga ketgan sutkalik vaqt sarfi

T/r	Bajariladigan texnologik amallar	O‘lchov birligi	Soni	Vaqt me’yori, daqiqa	Lokomotiv-daqiqa sarflari
	1	2	3	4	5
1	Poyezdlarni saralash (tarqatish)	poyezd	14	29	406
2	Bir guruhli poyezdlarning tuzilishini tugallash	poyezd	11	18	198
3	Ko‘p guruhli poyezdlarning tuzilishini tugallash	poyezd	4	46	184
4	Tarkiblarni saralash parkidan qabul qiliqr-jo‘natish parkiga olib o‘tish	poyezd	15	10	150
	Jami				938
5	Vagonlarni yuk hovlisiga uzatish va olib chiqish	uzatish	2	50	100
	Vagonlarni shoxobcha yo‘liga uzatish va olib chiqish	uzatish	2	49	98
	Jami				198
	Umumiy				1126

1-jadval va (1) formula asosida manyovr lokomotivlarining talab etiladigan soni 1,21 ni tashkil etishini ko‘rish mumkin. Amaliyotda ushbu miqdordagi lokomotivlar soni mavjud bo‘lmasligini hisobga olib, manyovr lokomotivlaridan foydalanishning 2 ta variant kelib chiqadi:

I variant: 1-lokomotiv 24 soat davomida stansiyadagi manyovr ishlarini bajarsa, 2-lokomotiv esa 12 soat ishlaydi;

II variant: 2 ta lokomotiv ham 24 soat davomida stansiyadagi manyovr ishlarini bajaradi.

1-jadvalda keltirilgan manyovr yarim reyslarining davomiyligi va 2-4-jadvallardagi qabul qilinadigan poyezdlar haqida ma’lumotlar asosida asosida stansiyaning sutkalik ish reja-grafigini I va II variantlar bo‘yicha ishlab chiqildi. Bunda quyidagilar e‘tiborga olindi:

1. Bir yo‘llik peregondan qabul qilinuvchi va jo‘natiluvchi poyezdlar kesishishiga yo‘l qo‘ymaslik.
2. Har bir parkda bittadan texnik va tijoriy ko‘rik brigadasi ishlashini hisobga olib, bir vaqtda har bir parkda ikki yoki undan ortiq tarkiblarni texnik va tijoriy ko‘rikdan o‘tkazmaslik.
3. Saralash parkida tarkib tayyor bo‘lgach tarkibning tuzilishi tugallab, saralash parkidan qabul qilish-jo‘natish parkiga olib o‘tilayotganda ushbu saralash yo‘liga vagon tushirmaslik.
4. Ishlayotgan ikkala lokomotiv uchun soat 8:00 va 20:00 dan 15 daqiqalik lokomotiv brigadalari almashish vaqtini belgilash.
5. Saralash parkida to‘liq yig‘ilgan tarkiblarni imkon qadar tezroq tuzilishini tugallab, qabul jo‘natish yo‘llariga o‘tkazish.

2-jadval

“D” stansiyasi tomonidan qabul qilinadigan poyezdlar haqida ma’lumot

T/r	Kelish vaqti	Poyezd raqami	Poyezd turi*	Poyezd tarkibdagi keladigan vagonlar										
				I	K	L	M	O	E	J	N-I	N-E	YX	Shy
0 soatga qolgan vagonlar				8	7	6	11	13	6	13				
1	6-27	3003	q.ish.	44	4								5	7
2	7-23	2003	tr					60						
3	8-42	3007	q.ish.	8				19		9	3	13	5	3
4	9-35	2005	tr					60						

5	10-34	2007	tr					60						
6	14-42	3413	q.ish.			14	14	17			15			
7	14-58	2009	tr					60						
8	15-46	2011	tr							60				
9	16-00	2013	tr					60						
10	17-09	3021	q.ish.		16	12		2	7	2	10	11		
11	18-42	3023	q.ish.	7			14		4	18		17		
12	21-00	3025	q.ish.	15	10	6	6	8	8		7			
13	22-38	185	pas	0										
14	23-21	2017	tr					60						
15	23-29	2019	tr							60				

*q.ish. – qayta ishlanadigan tranzit poyezdlar; tr. – qayta ishlanmaydigan tranzit poyezdlar

3-jadval

“I” stansiyasi tomonidan qabul qilinadigan poyezdlar haqida ma’lumot

T/r	Kelish vaqti	Poyezd raqami	Poyezd turi	Poyezd tarkibdagi keladigan vagonlar										
				A	B	V	G	D	E	J	N-D	N-E	YX	Shy
0 soatga qolgan vagonlar				10	6	6	3	10						
1	0-12	3204	q.ish.		22		2			23			4	9
2	3-30	2204	tr	60										
3	3-43	3208	q.ish.	5	7	14		3	2		12	11	4	2
4	5-38	2206	tr	60										
5	11-00	3432	q.ish.	14	2		10	5	9	6	7	7		
6	11-39	3214	q.ish.	13	20	5			6			16		
7	11-47	2208	tr	60										
8	11-58	2210	tr	60										
9	14-41	2212	tr							60				
10	15-24	3222	q.ish.	21		12			15		12			
11	16-12	2214	tr	60										
12	18-03	186	pas	0										
13	20-03	2218	tr	60										
14	20-14	2220	tr						60					
15	21-08	2222	tr	60										
16	21-48	2224	tr	60										
17	22-43	2226	tr	60										
18	22-54	2228	tr						60					

4-jadval

“E” stansiyasi tomonidan qabul qilinadigan poyezdlar haqida ma’lumot

T/r	Kelish vaqti	Poyezd raqami	Poyezd turi	Poyezd tarkibdagi keladigan vagonlar													
				A	B	V	G	D	I	K	L	M	O	N-D	N-I	YX	Shy
0 soatga qolgan vagonlar																	
1	1-10	2103	tr										60				
2	2-31	2105	tr	60													
3	3-50	2107	tr										60				
4	6-30	2109	tr	60													
5	14-07	3111	q.ish.		3			20	11		12				14		
6	16-55	3453	q.ish.	9		16	2	16	17								
7	18-36	3115	q.ish.		18		6	15		15		2	4				
8	20-48	2111	tr										60				
9	23-02	2113	tr	60													

Uchastka stansiyasida manyovr ishlarini 1,5 va 2 ta lokomotiv yordamida tashkil etishning temir yo‘l transportini ishlatish sifat ko‘rsatkichlariga ta’sirini baholash quyidagi ifodalar asosida amalga oshirilishi mumkin:

- qayta ishlanmaydigan tranzit vagonlarning o‘rtacha turish vaqti.

$$t_{tr}^{q-m.ish} = \frac{\Sigma(N_{tr} \cdot t_{tr}^{tr} + t_{kut.tr}) \cdot m_{tr}}{\Sigma N_{tr} \cdot m_{tr}}, soat \quad (2)$$

bunda: N_{tr} – stansiyadan qayta ishlovsiz o‘tuvchi tranzit poyezdlati soni (2-3-4-jadvallarga muvofiq $N_{tr} = 26\ \ ta$)

t_{tr}^{tr} – stansiyadan qayta ishlovsiz o‘tuvchi tranzit poyezdining ishlovdan o‘tkazilishiga sarflangan meyoriy vaqt (36 daqiqa qabul qilindi);

$t_{kut.tr}$ –ishlovdan o‘tish, lokomotivni ulash va poyezdning jo‘natilishini kutib turishiga sarflangan vaqt, daq. (sutkalik ish reja-grafigidan olinadi);

m_{tr} – tranzit poyezdining tarkibidagi vagonlar soni (2-4-jadvallarga muvofiq 60 ta vagon).

$t_{kut.tr}$ ning miqdori asosan texnik va tijoriy ko‘rikdan o‘tkazishga jalb etilgan brigadalar soni va peregonning bandligiga bog‘liq (1-2-rasmlar).



1-rasm. Juft yo‘nalishdan keluvchi 2220, 2222, 2224 va 2228-transit qayta ishlanmaydigan poyezdlarining texnik va tijoriy ko‘rik brigadasi bo‘shashini kutib qolish holatini fragmenti



2-rasm. Toq yo‘nalishdan kelib, juft yo‘nalishga jo‘natiluvchi 2019/2020-transit qayta ishlanmaydigan poyezdining peregonning bo‘shashini kutib qolish holatini fragmenti

- qayta ishlovga tushuvchi tranzit poyezdining stansiyada o‘rtacha turish vaqti elementlarga ajratilgan holda quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$t_{tr}^{q.ish} = t_{qq} + t_{tar} + t_{yig'} + t_{t.t} + t_{jo'n},\ soat \qquad (3)$$

bunda: t_{qq} – texnologik amallarni bajarishda uning o‘rtacha turish vaqti, soat;

t_{tar} – tarkibni saralashga sarflanadigan vaqt (1-jadvalga muvofiq 29 daqiqa yoki 0,48 soat);

$t_{yig'}$ – bitta vagonning saralash parki yo‘lida yig‘ilishda turgan o‘rtacha vaqti, soat;

$t_{t.t}$ – tarkibni tuzilishini tugallanishiga va uni saralash parkidan qabul qilib jo‘natish parkiga olib qo‘yishga sarflanadigangan o‘rtacha vaqt, soat;

$t_{jo'n}$ – vagonlarning jo‘natilishi bo‘yicha o‘rtacha turish vaqti, soat.

t_{qq} ning miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$t_{qq} = \frac{\Sigma(N_{q-ish}\cdot t_{obr}+t_{kut})\cdot m_t}{\Sigma N_{q-ish}\cdot m_t},\ soat \qquad (4)$$

bunda: N_{q-ish} saralashga kelayotgan tarkibning texnik ko‘rigi davomiyligining meyori;

$t_{t.t}$ – saralashga kelayotgan tarkibning texnik ko‘rigi davomiyligining meyori (20 daqiqa qabul qilindi);

$t_{kut.q}$ – tarkibning texnik ko‘rigi va saralanishini kutish vaqti, daq. (sutkalik ish reja-grafigidan olinadi).

$t_{kut.q}$ning miqdori asosan texnik va tijoriy ko‘rikdan o‘tkazishga jalb etilgan brigadalar soni va manyovr lokomotivining bandligiga bog‘liq (3-rasm).



3-rasm. 3413, 3222-tranzit qayta ishlanadigan poezdlarning qabul qilish-jo‘natish parkida texnik va tijoriy ko‘rikdan o‘tkazishga jalb etilgan brigadalar bo‘shashini kutib qolish holatini fragmenti

3-rasmdan ko‘rinib turibdiki, tarkiblarni texnik va tijoriy ko‘rikdan o‘tkazishga jalb etilgan brigadalarini kutib qolish vaqti foydalanilayotgan lokomotivlar soniga bog‘liq emas. Ushbu turdagi kutib qolish vaqtlarini kamaytirish uchun qo‘shimcha brigadalar guruhini shakllantirish talab qilinadi. $t_{kut.q}$miqdorining lokomotivlar soniga bog‘liqligini 4 va 5-rasmlardan ko‘rish mumkin.



4-rasm. 1,5 lokomotivdan foydalanishda 3023 va 3025-tranzit qayta ishlanadigan poezdlarning manyovr lokomotivi tomonidan saralanishini kutib qolish holatini fragmenti



5-rasm. 1,5 ta lokomotiv o‘rniga 2 ta lokomotivdan foydalanishda 3023-poezdning manyovr lokomotivi tomonidan saralanishini kutib qolishining kamayishi va 3025-poezdning kutish qolishi bartaraf etilishi holatini fragmenti

4-5-rasmlardan xulosa qilish mumkinki, manyovr lokomotivlari sonining oshishi nafaqat stansiyadagi texnologik amallarning bajarilishini tezlashtirish, balki qabul qilish-jo‘natish parkida tarkiblarning saralanishini kutish vaqtining kamayishiga ham olib keladi.

$t_{yig'}$ning miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$t_{yig'} = \frac{\Sigma B_{yig'}}{\Sigma n_{yig'}} = \frac{\Sigma n_{yig'}\cdot t_M}{\Sigma n_{yig'}},\ soat \qquad (5)$$

bunda$\Sigma B_{yig'} - \Sigma B_N$ – yig‘ilish vagon – soatlar yig‘indisi;

$\Sigma n_{yig'}$ – yig‘ilish jarayonida qatnashayotgan vagonlarning umumiy soni.

$$\Sigma B_N = \Sigma B_N^{o't.} + \Sigma B_N^{uch.} + \Sigma B_N^{ter.};\ vag-soat \qquad (6)$$

bunda: $\Sigma B_{yig'}^{o'tk.}$ – o‘tkinchi poyezdlarning yig‘ilish vagon-soatlari, vag.soat (sutkalik ish reja-grafigidan olinadi).

$\Sigma B_{yig'}^{uch.}$ – uchastka poyezdlarning yig‘ilish vagon-soatlari, vag.soat (sutkalik ish reja-grafigidan olinadi).

$\Sigma B_{yig'}^{ter.}$ – terma poyezdlarning yig‘ilish vagon-soatlari, vag.soat (sutkalik ish reja-grafigidan olinadi).

$t_{t.t}$ – ning miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$t_{t.t} = \frac{(N_{uch}+N_{o't})\cdot t_{t.t}^{o't,uch}+N_{ter}\cdot t_{t.t}^{ter}+(N_{uch}+N_{o't}+N_{ter})\cdot t_{o-q}+\Sigma t_{kut.q}}{N_{uch}+N_{o't}+N_{ter}},\ soat \qquad (7)$$

bunda: N_{uch} – uchastka poyezdlarning soni. poyezd; (sutkalik ish reja-grafigidan olinadi).

$N_{o't}$ – o‘tkinchi poyezdlarning soni. poyezd; (sutkalik ish reja-grafigidan olinadi).

N_{ter} – terma poyezdlarning soni. poyezd; (sutkalik ish reja-grafigidan olinadi).

$t_{t.t}^{o't,uch}$ – o‘tkinchi va uchastka poyezdlari bilan tuzishni tugallashga sarflanadigan vaqt miqdori. (1-jadvalga muvofiq 18 daqiqa qabul qilindi);

$t_{t.t}^{ter}$ – terma poyezdlari bilan tuzishni tugallashga sarflanadigan vaqt miqdori. (1-jadvalga muvofiq 46 daqiqa qabul qilindi);

t_{o-q} – saralash parkidan qabul qilish-jo‘natish parkiga poyezdlarni o‘tkazishga sarflanadigan vaqt miqdori. (1-jadvalga muvofiq 10 daqiqa qabul qilindi);

$\Sigma t_{kut.q}$ – saralash parkida to‘liq yig‘ilgan tarkibni qabul qilish-jo‘natish parkiga olib o‘tilishini o‘tkazishga sarflanadigan vaqt miqdori. (1-jadvalga muvofiq 10 daqiqa qabul qilindi);

$t_{jo'n}$ –quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$t_{jo'n} = \frac{\Sigma\left(N_{tuz.} \cdot t_{t.t.k}^{jo'n} + t_{kut.}\right) m_t}{N_{tuz} \cdot m_t}, soat \quad (8)$$

bunda: $N_{tuz.}$ – stansiyaning o‘zida tuzilgan poyezdlar soni, poezd (sutkalik ish-reja grafigidan olinadi);

$t_{t.t.k}^{jo'n}$ – stansiyaning o‘zida tuzilgan poyezdlarning jo‘natilishi bo‘yicha ishlovda turgan o‘rtacha vaqti (36 daqiqa qabul qilindi);

$t_{kut.}$ – tarkibga ishlov berish, lokomotivni ulanishi va poyezdning jo‘natilishini kutish vaqti.

Stansiyaning vagonlar ishchi parki quyidagicha aniqlanadi:

$$n_p = \frac{n_{tr}^{q-m.ish} \cdot t_{tr}^{q-m.ish} + n_{tr}^{qish} \cdot t_{tr}^{q-ish} + n_M \cdot t_M}{24}, vag. \quad (9)$$

bunda: n_M – mahalliy vagonlar soni, vagon (2-4-jadvallardan olinadi);

t_M – mahalliy vagonlarning o‘rtacha turish vaqti, soat (sutkalik ish-reja grafigidan olinadi).

Manyovr lokomotivlaridan foydalanish koeffitsienti quyidagicha aniqlanadi:

$$K_{lok} = \frac{\Sigma t_{band}}{M \cdot \left(1440 - \left(T_{sb} + T_{ek} + T_{tp}\right)\right)} \quad (10)$$

bunda: Σt_{band} – manyovr lokomotivining sutka davomida ishlagan vaqt miqdori, daq. (sutkalik ish-reja grafigidan olinadi).

3. Xulosa

Shartli uzel uchastka stansiyasi ishi yuqorida keltirilgan boshlang‘ich ma’lumotlar asosida grafoanalitik modellashtirildi. Natijada 1,5 va 2 ta lokomotiv yordamida manyovr ishlarini tashkil etishdagi temir yo‘l transportini ishlatishning sifat ko‘rsatkichlari aniqlandi (5-jadval).

5-jadval

1,5 va 2 ta lokomotiv yordamida manyovr ishlarini tashkil etishdagi temir yo‘l transportini ishlatishning sifat ko‘rsatkichlari

T/r	Ko‘rsatkishlar nomi	Shartli belgilar	O‘lchov birligi	1-variant (1,5 ta lokomotiv)	2-variant (2 ta lokomotiv	Farqi
1.	Qayta ishlanmaydigan tranzit vagonlarning o‘rtacha turish vaqti	t_{mp}^{bp}	soat	0,75	0,75	0
2.	Qayta ishlanadigan tranzit vagonlarning o‘rtacha turish vaqti	t_{tr}^{sp}	soat	7,85	7,45	0,4
3.	Tranzit vagonining o‘rtacha turish vaqti	t_{tex}	soat	3,35	3,2	0,15
4.	Vagonlar ishchi parki	n_r	vag.	366	351	15
5.	Birinchi manevr lokomotivlaridan foydalanish koeffitsienti	K_{lok}^{I}	-	0,57	0,51	0,06
6.	Ikkinchi manevr lokomotivlaridan foydalanish koeffitsienti	K_{lok}^{II}	-	0,66	0,35	0,31

5-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, qayta ishlanmaydigan tranzit vagonlarning o‘rtacha turish vaqti manyovr lokomotivlari soniga bog‘liq emas hamda qayta ishlanadigan tranzit vagonlarning o‘rtacha turish vaqti 0,4 soatga kamaygan. Bunga asosan 1,5 ta lokomotivning tungi smenada ishlamasligini oldini olish orqali erishilgan (6-7-rasmlar). O‘z navbatida, tranzit vagonlarning o‘rtacha turish vaqti ham 0,15 soatga qisqargan.



6-rasm. 1,5 lokomotivdan foydalanishdagi manyovr lokomotivining ish ko‘rsatkichlari (2-lokomotiv faqat kunduzgi smenada ishlaydi)

Bitta tranzit qayta ishlanadigan vagonning turib qolish vaqti o‘rtacha 0,4 soatga qisqarishi natijasida sutkasiga 878 ta tranzit qayta ishlanadigan vagonlardan 351,2 vagon-soat tejaladi. Bir vagon-soat xarajatlar stavkasi 976 so‘mni tashkil etishini hisobga olsak, bitta tranzit qayta ishlanadigan vagonning turib qolish vaqti qisqarishi natijasida sutkasiga 342771 so‘m, yiliga esa 125,11 mln. so‘m tejalishiga erishiladi.



7-rasm. 2 lokomotivdan foydalanishdagi manyovr lokomotivining ish ko‘rsatkichlari

5-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, 2-lokomotivni sutka davomida ishlatish (1,5 ta lokomotiv o‘rniga 2 ta lokomotivdan foydalanish) natijasida vagonlarning ishchi parki 15 taga tejalishiga erishiladi. Quyuv mexanika zavodi tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra bitta yangi ishlab chiqarilgan vagonning narxi 724 mln. so‘mni tashkil etadi. Shunday qilib, vagonlarning ishchi parkidan 10,86 mlrd. so‘m tejalishiga erishiladi hamda jami iqtisodiy samaradorlik tranzit qayta ishlanadigan vagonning turib

qolish vaqti qisqarishi natijasida olinadigan 125,11 mln. so‘m bilan birgalikda 10,98 mlrd. so‘mni tashkil etadi.

Ma’lumki, 1,5 ta lokomotiv o‘rniga 2 ta lokomotivdan foydalanish lokomotiv brigadalari (mashinist va uning yordamchisi) uchun bir oyda yarim smenalik oylik ish haqi va yoqilg‘i bo‘yicha joriy saqlash xarajatlarini keltirib chiqaradi. Lokomotivlardan foydalanish boshqarmasi tomonidan berilgan ma’lumotlarga ko‘ra hozirgi kunda bitta lokomotiv brigadasining ish haqi o‘rtacha 37,4 mln. so‘mni tashkil etadi. Demak, yarim smena uchun ish haqining miqdori 18,7 mln. so‘m bo‘lganda jami qo‘shimcha yillik ish haqi bo‘yicha xarajatlar 224,4 mln. so‘mga teng bo‘ladi.

Yarim smena davomida manyovr lokomotivlari tomonidan ishlatiladigan yoqilg‘i xarajatlarini “Temiryo‘linfratuzilma” AJ Toshkent mintaqaviy temir yo‘l uzeli filialidan olingan meyorlarga asoslangan holda aniqlaymiz. Ushbu filila tomonidan 2024 yil mart oyi uchun taqdim etilgan meyorlarga muvofiq mayonvr lokomotivlari uchun smenalik o‘rtacha yoqilg‘i miqdori 120 litrni tashkil etgan. Demak, qo‘shimcha smena davomida bitta manyovr lokomotivi bir yilda 43800 litr yoqilg‘i sarflaydi. O‘zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjasining 19 sentabr holatiga berilgan ma’lumotlariga ko‘ra bir litr yoqilg‘i narxi 14453 so‘mni tashkil etadi [11]. Demak, qo‘shimcha smenalik manyovr ishlarini tashkil etish natijasida bir yilda 633,04 mln. so‘m xarajat talab etiladi. Shunday qilib, 1,5 ta lokomotiv o‘rniga 2 ta lokomotivdan foydalanish natijasida joriy saqlash xarajatlari bir yilda 857,44 mln. so‘mni tashkil etadi. Shunday qilib, manyovr lokomotivining qo‘shimcha yarim smenalik ishini tashkil etish natijasida bir yilda 10,12 mlrd. so‘m foyda olinishiga erishiladi.

1,5 ta lokomotiv o‘rniga 2 ta lokomotivdan foydalanish nafaqat joriy saqlash, balki manyovr lokomotivini xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan kapital xarajatlarni ham keltirib chiqaradi. Lokomotivlardan foydalanish boshqarmasi taqdim etgan ma‘lumotlarga ko‘ra bitta manyovr teplovozining narxi 19,12 mlrd. so‘mni tashkil qiladi va bu kapital xarajatlar sifatida qabul qilinishi mumkin. Tadqiqot natijasida manyovr lokomotivining qo‘shimcha yarim smenalik ishini tashkil etish tavsiya etilganligini e’tiborga olib, kapital xarajatlarni ikkiga bo‘lish maqsadga muvofiqdir (ikkinchi yarim smenada boshqa stansiya yoki terminallarda foydalanilishi mumkin). Ko‘rinib turibdiki, manyovr lokomotivining qo‘shimcha yarim smenalik ishini tashkil etishning o‘zini oqlash muddati 0,94 yilni tashkil etadi.

Foydalangan adabiyotlar / References

[1] Christian Meirich, Nils Nießen. Calculating the maximal number of additional freight trains in a railway network / Journal of Rail Transport Planning & Management, Volume 6, Issue 3, 2016. – P. 200-217. https://doi.org/10.1016/j.jrtpm.2016.06.005/

[2] Junhua Ren, Qing Zhang, Feng Liu. Analysis of factors affecting traction energy consumption of electric multiple unit trains based on data mining / Journal of Cleaner Production, Volume 262, 2020. – P. 1-11.

[3] Mykola Barybin, Anatoliy Falendysh, Victoria Hatchenko, Olha Kletska and Elena Kiritseva. Determination of rational locomotive operating modes and resource costs based on information from global positioning systems / IOP Conference Series: Materials Science and Engineering, Volume 1021, International Scientific Conference Energy Efficiency in Transport (EET 2020) 18th-20th November, Kharkiv, Ukraine. DOI 10.1088/1757-899X/1021/1/012011. https://dx.doi.org/10.1088/1757-899X/1021/1/012011

[4] Rahul Vardhan Bhatnagar, Sewa Ram & Rohan Vardhan (2023) A study of influence zone for railway stations of different hierarchy in the Indian Railways: analyzing passenger travel patterns, Urban, Planning and Transport Research, №11, 2212749, DOI: 10.1080/21650020.2023.2212749.

[5] Валеев Н.А. Управление затратами в локомотивном комплексе железнодорожной компании: Дисс. к.э.н. 08.00.05. – М.: МГУПС. – 2016. – 132 с.

[6] Вернигора Р.В., Ельникова Л.О. Анализ простоев поездов в ожидании поездных локомотивов на сортировочных станзиях // Восточно-Европейский журнал передовых технологий, 2012. – №5/3 (59). – С.

[7] Исаков М.П. Экономическое обоснование системы управления тяговыми ресурсами организазий транспорта: Дисс. к.э.н. 08.00.05. – М.: МГУПС. – 2014.

[8] Ковальская М.И. Планирование оптимальной структуры и численности парка грузовых локомотивов // Автореферат диссертант на соискание ученой степени канд. техн. наук. – М.: Типография ИКТП, 1979. – 22 с.

[9] Жумаев Ш.Б. Вагонлар оқимини ташкил этишда ахборот технологиялари асосида транспорт жараёнлари технологиясини такомиллаштириш / Техника фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Тошкент: ТДТрУ. – 2021. – 162 с.

[10] Бутунов Д.Б. Совершенствование методов технико-эксплуатационной оценки организации и управления вагонопотоками сортировочных станций. Дис. док. фил. (PhD). Ташкент: ТашИИТ. – 2019. – 187 с.

[11] https://uzex.uz/ru/news/synthetic-diesel-sold-on-uzex-for-the-first-time.

Mualliflar to‘g‘risida ma’lumot/ Information about the authors

Dautbay Yakubbaevich Nazhenov	Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti “Shahar qurilishi va xo‘jaligi” kafedrasi katta o‘qituvchisi E-mail: dawitnajenov@gmail.com Tel.: +998972201407 https://orcid.org/0009-0004-4795-1708
Baqoyev Alisher Tel‘mon o‘g‘li	Toshkent davlat transport universiteti “Transport tizimlari boshqaruvi” fakulteti talabasi E-mail: Baqoyeva08@gmail.com Tel.: +998940066200 https://orcid.org/0009-0003-0655-0448
Yusupov Azizjon Qaxramonovich	Toshkent davlat transport universiteti “Temir yo‘ldan foydalanish ishlarini boshqarish” kafedrasi katta o‘qituvchisi, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

	E-mail: yusupovaziztosh@gmail.com Tel.: +998990439737 https://orcid.org/0000-0002-0662-4610	
Suyunbaev Shinpolat Mansuraliyevich	Toshkent davlat transport universiteti “Temir yo‘ldan foydalanish ishlarini boshqarish” kafedrasi professori,	texnika fanlari doktori (DSc), professor E-mail: shinbolat_84@mail.ru Tel.: +99893 510 92 82 https://orcid.org/0000-0002-4867-8270

Improving methods to reduce inefficient time losses under speed limit conditions at JSC “Uzbekistan Railways”

N.M. Aripov[1][a], N.S. Tohirov[1][b]
[1]Tashkent state transport university, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: In this article, the conditions under which train speed is limited are examined, including the circumstances and amounts of speed restrictions for issuing warnings. It discusses the delivery of warning forms to train drivers and methods to reduce inefficient time losses of trains. The effectiveness of the proposed schemes for organizing warnings under planned and unplanned circumstances, as well as improving operational safety, is also described. [2].

Keywords: warnings, request, telegraph, station dispetcher, automated system, train movement schedule, warning form, train driver, section (between two stations), route

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJda tezlik cheklangan sharoitlarda unumsiz vaqt yo‘qotishlarini kamaytirish usullarini takomillashtirish

Aripov N.M.[1][a], Toxirov N.S.[1][b]
[1]Toshkent davlat transport universiteti, Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada poyezdlar harakat tezligi cheklangan sharoitlarda ogohlantirishlar qaysi holatlarda va cheklangan tezlikning miqdorlari, poyezd mashinistlariga ogohlantirish blankalarini yetkazishda, poyezdlarning unumsiz vaqt yo‘qotishlarini kamaytirish usullari tadqiq qilingan. Rejadagi va rejadan tashqari ogohlantirishlar berilgan sharoitlarida, taklif etilayotgan sxemalar asosida tashkil etish samaradorligi va harakat xavfsizligini oshirsh haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: ogohlantirishlar, talabnoma, telegraf, stansiya navbatchisi, avtomatlashtirilgan tizim, poyezdlar harakati grafigi, ogohlantirish blankasi, poyezd mashinisti, peregon, yo‘nalish

1. Kirish

Rejalashtirilgan ogohlantirishlar berishga talabnoma bayon etilgan telegrammalar (telefonogrammalar) shunday hisob-kitob bilan jo‘natilishi lozimki, ogohlantirish berish stansiyasining navbatchisi tomonidan ogohlantirish amalga kirishi paytidan kamida 3 soat oldin qabul qilinishi, poyezdlar to‘xtovsiz 3 soatdan ortiq harakatlanadigan yo‘nalishlarda esa AJ boshqaruvi raisi tomonidan belgilangan muddatdan ilgari qabul qilinishi haqida “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘llarida poyezdlar harakati va manyovr ishlari bo‘yicha” yo‘riqnomada belgilab qo‘yilgan. Tahlil natijalarining ishonchliligini va ayrim bo‘linmalar va mutaxassislarning, birinchi navbatda lokomotiv brigadalarining ish sifatini baholashning ob’ektivligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun quyidagilar bo‘lishi kerak, tezlik cheklovlari, poyezdlarning kechikishi va to‘xtashlar ularning harakatlanish vaqti ta’sirini aniqlashning quyidagi usul yordamida aniqlanadi. [15-16].

2. Tadqiqot metodikasi

Belgilangan manzillar bo‘yicha talabnomalar, telegramma va telefonogrammalarni o‘z vaqtida yetkazilishini ta’minlaydigan, ogohlantirishlarni o‘rnatish yoki bekor qilish xaqidagi talabnomalar, telegramma yoki telefonogrammalarni yuborish tartibi AJ boshqaruvi raisi tomonidan belgilanadi.

Talabnoma ijroga qabul qilinganiga quyidagilar tasdiq bo‘ladi:

a) belgilangan manzillarga jo‘natish uchun telegramma qabul qilib olingani xaqida telegraf xodimi (telegraf bo‘lmagan joyda - stansiya navbatchisi) imzo chekkan telegramma (telefonogramma) nusxasi yoki matnida uni belgilangan manzillarga yetkazishning qayd etilgan vaqti, ushbu telefonogrammani qabul qilgan xodimning lavozimi va familiyasi ko‘rsatiladi;

b) ogohlantirishlar berish stansiyasi navbatchisining yozma talabnoma olganligi to‘g‘risida yoki ushbu stansiya navbatchisining ogohlantirishlar kitobida talabnoma bergan xodimning yozuvi ostidagi imzosi. [15-16].

Temir yo‘l transportida poyezdlar harakatini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish va shakllantirish bu intellektual aloqaning to‘liq integratsiyasi foydalanuvchilar va raqamlashtirilgan tizim o‘rtasidagi texnologiyalar transport va infratuzilmani boshqarish va harakat xavfsizligini ta’minlash imkonini beradi.

Poyezdlar harakatini ushbu tizimlar asosida tashkil qilinsa quyidagilarga imkon beradi

temir yo‘l transportining uzluksiz barqaror ishlashini;

[a] https://orcid.org/0000-0002-6209-5063
[b] https://orcid.org/0000-0003-1385-9263

tashish jarayonlarini, harakatlanuvchi tarkiblarning holatini va eng muhimi, poyezdlar harakati xavfsizligini ta’minlash.[10-13].

Xavfsizlikni ta’minlashning asosiy va muhim jihati bu poyezdlar harakatida tezlikni cheklash ogohlantirishlarini o‘z vaqtida berish hisoblanadi. Hozirgi kunda temir yo‘l tarmog‘ida, ogohlantirishlarni berishga telegrammalar sonining ko‘payishi bilan ogohlantirishlar berishda inson omili jarayonni tashkil etishda sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu xavflarning oldini olish uchun temir yo‘l transportida ogohlantirishlarni berish va bekor qilishda avtomatlashtirilgan tizimni ishlab chiqish va joriy etishga talab borligini ko‘rishimiz mumkin. Avtomatlashtirilgan tizimni joriy qilinishi tashish jarayonida harakat xavfsizligini ta’minlashda samarali ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Poyezdlarga beriladigan ogohlantirishlarni avtomatlashtirilgan tizimi ya’ni, “Ogohlantirishlarni berishning avtomatlashtirilgan uzatish tizimi” (OBAUT)1–rasmda keltirilgan. [4-9].



1-rasm. Rejalashtirilgan navbatdagi ogohlantirishlarni uzatish chizmasi

Reja bo‘yicha beriladigan ogohlantirishlarning uzatish sxemasi quyidagi tartibda olib boorish, ma’lumotlarni uzatish vaqt sarfini kamaytirish imkonini beradi. Hozirgi mavjud tizimdagi samarasiz vaqt yo‘qotishlarini tejash ish samardorligiga oshrishga zamin yaratadi. [11-14].



2-rasm. Ish boshlanishidan 3 soat oldin uyatiladigan (navbatdagi) ogohlantirishlarni uzatish tizimining chizmasi

Poyezdlar harakatini tashkil etish bo‘yicha ilmiy ishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bir qator ilmiy ishlar harakat tezliklarini hisoblashda yuk poyezdlari yo‘nalishi bo‘yicha qiyalliklarni hisobga olish, stansiyaning texnik va texnologik jarayonlari, vagon oqimlarini rejalashtirish, texnik me’yorlardan maksimal darajada foydalanish, temir yo‘l infratuzilmasini hisobga olgan holda harakat tezliklarini cheklash, stansiya yo‘llarining rahbar nishabliklariga asosan manyovr yarimreyslari samarali variantini tanlash va yuk tashish tizimida vagonli jo‘natmalarning sutkalik bosib o‘tgan masofasini asoslash usullariga bag‘ishlangan. Bu ishlar tezlik cheklangan sharoitlarda poyezdlar harakatini tashkil etishning ayrim jihatlarini ochib beradi. Biroq, unumsiz vaqt yo‘qotish xususiyatlarini aniqlash va kamaytirishning umumiy yondashuvlari taklif etilmagan. Shundan kelib chiqib, unumsiz (t_{unum}) vaqt yo‘qotishlarni hisobga olish, tahlil qilish va ularni guruhlarga ajratgan holda yangicha yondashuv taklif etilmoqda. Shuningdek, ushbu yondashuv stansiyalarda ogohlantirish blankalarini tayyorlash, poyezd mashinistiga yetkazish, poyezdlar bilan bajariladigan texnologik amallar, PHG, TFQ, PHMIBY bo‘yicha poyezdlar harakatini tashkil etish uchun texnologik me’yorlarga mos kelishi kerak.

PHGning asosiy ko‘rsatkichlarining bajarilishi uchun (p_y) peregonlarda 1-ifoda samarasiz vaqt yo‘qotishlar davomiyligini hisobga oladigan $(t_{per}^{rad}, t_{per}^{nish}, t_{per}^{ogoh}, t_{per}^{\inf}, t_{per}^{xavfli})$ parametrlarni kiritish taklif etiladi:

$$t_{per}^{yur} = t_{per}^{rad} + t_{per}^{nish} + t_{per}^{ogoh} + t_{per}^{inf_{per}^{xavfli}} \quad (1)$$

1-jadval

bu yerda t_{per}^{rad} –	peregonlardagi burilish radiuslaridan o‘tish uchun sarflanadigan vaqt, daqiqa;
t_{per}^{nish} –	peregonlar bo‘yicha rahbar nishabliklarni bosib o‘tish uchun sarflanadigan vaqt, daqiqa;
t_{per}^{ogoh} –	peregonlarda ta’mirlash uchun beriladigan ogohlantirish masofalarini bosib o‘tishga sarflanadigan vaqt, daqiqa;
$t_{per}^{\inf}$ –	temir yo‘l yo‘nalishlari bo‘yicha infratuzilmasining geografik joylashuviga ko‘ra poyezdlar harakatini cheklanishi masofalariga sarflanadigan vaqt, daqiqa;
t_{per}^{xavfli} –	peregonlarda nosozliklar kuzatilganda ogohlantirishlarni poyezd mashinistiga yetkazishda sarflanadigan vaqt, daqiqa.

$$t_{per}^{nish} = \frac{l_{nish}}{\vartheta_{nish}^{o'rt}}, daqiqa, t_{per}^{nish} = \frac{l_{nish}}{\vartheta_{nish}^{o'rt}}, daqiqa$$

$$t_{per}^{ogoh} = \frac{l_{ogoh}}{\vartheta_{ogoh}}, daqiqa, t_{per}^{inf_{\vartheta_{inf}, daqiqa,}^{l_{inf}}} \quad (2)$$

$$t_{per}^{blanka} = \frac{l_{xavfli}}{\vartheta_{yur}^{o'rt}}, daqiqa$$

Peregonlarda ta’mirlash ishlari va doimiy omilarni hisobga olgan holda me’yorlash bo‘yicha burilish radiusining masofasi (l_{rad}) va o‘rnatilgan tezligi (ϑ_{rad}), rahbar nishabliklarning masofasi (l_{nish}) va o‘rtacha tezligi (ϑ_{nish}), ogohlantirishlar masofasi (l_{ogoh}) va o‘rnatilgan tezligi (ϑ_{ogoh}), temir yo‘l infratuzilmasining $(\vartheta_{\inf})$ geografik joylashuvi, (l_{xavfli}) nosozlik aniqlangan joygacha qolgan masofa, $(\vartheta_{xavfli}^{o'rt})$ nosozlik aniqlangan joygacha harakatlanish tezligi PHG asosiy ko‘rsatkichlari asos qilib olindi.

Peregonlarda ta’mirlash ishlari va doimiy omillar xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlanadi [3]

$$t_{yur} = \frac{L - \sum_{i=1}^{\chi} l_i^{ogoh}}{\vartheta_{yur}} + \sum_{i=1}^{\chi}\left[\frac{l_i^{ogoh}}{\vartheta_i^{ogoh}} + t_i^{tez}\left(1 - \frac{\vartheta_i^{ogoh}}{\vartheta_{yur}}\right) + t_i^{sek}\left(1 - \frac{\vartheta_i^{ogoh}}{\vartheta_{yur}}\right)\right], daqiqa. \quad (3)$$

bu yerda: l_i^{ogoh} – temir yo‘l yo‘nalishlaridagi peregonlarda “ogohlantirishlar” berilgan *i*-ta hududlar uzunligi, km;

ϑ_i^{ogoh} – poyezdlarning peregonlarda “ogohlantirishlar” berilgan *i*-ta hududlarda harakatlanish tezliklari, km/soat;

$t_i^{tez/sek}$ – poyezdlarning “ogohlantirishlar” berilgan *i*-ta hududlarda tezlashish va sekinlashish vaqtlari, soat.

Temir yo‘l yo‘nalishlarida PHTni me’yorlashda unumsiz vaqt yo‘qotishlarining peregonlar bo‘yicha xususiyatlari 3-rasmda ko‘rsatilgan. Temir yo‘l uchastkalari va yo‘nalishlari tarkibidagi peregonlarda yuk poyezdlari yurish tezligini me’yorlashda unumsiz vaqt yo‘qotish xususiyatlarini kiritish ko‘rsatilgan 3-rasm. Ushbu peregonlarda yuk poyezdlari yurish tezliklarining unumsiz vaqt yo‘qotishlari xususiyatlarini hisobga olgan holda me’yorlashtirilgan. Yuk poyezdlari yurish tezliklarini me’yorlash uchun kiritilgan parametrlar PHG da yuk poyezdlari harakatini aniq vaqt me’yorlari bo‘yicha tashkil etish imkoniyatini yaratadi.



3-rasm. Peregon va oraliq stansiyalarda yuk poyezdlarining samarsiz vaqt yo‘qotishlari

Temir yo‘l transportida PHTga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar guruhi

oraliq va texnik stansiyalari ishida unumsiz vaqt yo‘qotishlariga olib keladi. Bunda unumsiz vaqt yo‘qotishlari xususiyatlari quyidagicha ifodalandi.

$$t_{sam} = t_{yo'l}^{poy} + t_{man}^{lok} + t_{tayyorlash}^{blanka} + t_{yetkazsih}^{blanka}, daqiqa \quad (4)$$

bu yerda $t_{yo'l}^{poy}$ – yuqori tezlikdagi yo‘lovchi poyezdlarni o‘tkazib yuborish uchun sarflanadigan vaqt, daqiqa;

t_{man}^{lok} – oraliq stansiyada manyovr lokomotivlarining kelishini kutib turish uchun sarflanadigan vaqt, daqiqa;

$t_{tayyorlash}^{blanka}$ – stansiyalarda DU-61 blankasini yozishga sarflanadiga vaqt, daqiqa;

$t_{yetkazsih}^{blanka}$ – poyezd mashinistlari ogohlantirish blankalarini kutib qolishiga sarflanadiga vaqt, daqiqa.

Temir yo‘l yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori tezlikda harakatlanuvchi yo‘lovchi poyezdlar harakati ko‘p bo‘lgan uchastkalar tarkibidagi oraliq stansiyalarda yuk poyezdlarining turib qolish vaqti $(t_{yo'l}^{poy})$ me’yorlari ortib borishiga sabab bo‘ladi. Temir yo‘l uchastkalari va yo‘nalishlarida bajariladigan mahalliy ishlar hajmidan kelib chiqib, oraliq stansiyalarga manyovr lokomotivlari biriktiriladi. Jumladan, muayyan bir nechta oraliq stansiyalariga mahalliy ishlar uchun manyovr lokomotivlari biriktiriladi.

Uchastkalarda vagonlar oqimi o‘zgaruvchanligini hisobga olib, ayrim holatlarda manyovr lokomotivini kutib turishi (t_{man}^{lok}) ga sabab bo‘ladi. Ushbu holatlarda stansiyalarda poyezdlarni belgilangan me’yorlaridan ortiq turib qolishi va unumsiz vaqt yo‘qotishlariga olib keladi.

Temir yo‘l transporti uchastkalarida rejadan tashqari kuzatilgan nosozliklar, ya’ni poyezd harakatni boshlagandan keyin tezlik cheklangan hollarda, poyezd mashinistlariga ogohlantirish blankasini yetkazish uchun poyezdlarni grafikda ko‘zda tutilmagan stansiyalarda to‘xtashiga sabab bo‘ladi. Unumsiz vaqt yo‘qotishlari bu, $t_{tayyorlash}^{blanka}$ ogohlantirish blankasini tayyorlashga sarflanadigan vaqt, $t_{yetkazsih}^{blanka}$ DU-61 blankasini poyezd mashinistiga tekazish uchun sarflanadigan vaqt, bu esa stansiya park va yo‘llarining joylashuviga qarab aniqlanadi.

Poyezdlarning temir yo‘l uchastkalari tarkibidagi oraliq stansiyalarda texnologik amallarga sarflanadigan vaqt me’yorlari va unumsiz vaqt yo‘qotishlariga sabab bo‘luvchi xususiyatlari hisobga olgan holda hisoblash uchun taklif etilayotgan sxematik ko‘rinish 4-rasmda keltirilgan.



4-rasm. Peregon va oraliq stansiyalarda yuk poyezdlarining harakat chizmasi

Oddiy sharoitlarda poyezdlar harakati grafigiga muvofiq tashkil etiladi, ya'ni, grafikda belgilangan me’yoriy yurish tezligiga asosan. Bunday hollarda, energiya xarajatlari o‘rtacha harakat tezligi va tezlikning o‘zgarishi, profil va yo‘l rejasi, poyezd holati, geografik sharoitlar va boshqalar bilan belgilanadi.

Tashish jarayonlarida, ko‘p hollarda poyezdlarning tezligi, kechikishi va to‘xtashida turli xil tezlikni cheklash bo‘yicha ogohlantirishlar mavjud bo‘lib, ular poyezdlarning yo‘lda yurish vaqtiga, harakatlanish tezligiga sezilarli darajada ta’sir qiladi.

Tezlikni cheklash ogohlantirishlari asosan yo‘lning qoniqarsiz holati yoki ta'mirlanishi, grafikda ko‘zda tutilmagan joylarda to‘xtash va kechikishlar poyezdlar harakatining qoniqarsiz tashkil etilishi, texnik vositalarning ishlamay qolishi, kutilmagan vaziyatlarda va joylarda paydo bo‘lishi va boshqalar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Cheklangan tezlik, poyezdlarning kechikishi va to‘xtashlishlarning harakatlanish vaqtiga ta’sirini ilmiy

asoslangan metodologiyasi yo‘qligi sababli, poyezdlar harakati grafigining bajarilishini, ularning yurish sharoitlarini tahlil qilishda odatda vaqt yo‘qotishlarining o‘rtacha me'yorlaridan foydalaniladi. Tezlik cheklovlari, poyezdlarning kechikishi va to‘xtashlariga sabab bo‘luvchi eng katta omil hisoblanadi.

Aslida, bu yo‘qotishlar har bir poyezd uchun har xil bo‘lishi mumkin, chunki ular ko‘plab foydalanish omillarga bog‘liq bo‘ladi: og‘irlik, tezlik va sharoitlar poyezdning harakatlanishi, uni boshqarish tartib qoidalari, profil, yo‘l rejasi va tezligi cheklangan uchastkalarning uzunligi, to‘xtash va kechikish davomiyligi, geografik omillar va boshqalar.

Tezlik cheklanganda vaqt yo‘qotishlar

Umuman olganda, $T_{to'x}$ poyezdining tezligi cheklanishi, kechikishi yoki to‘xtashidan vaqt yo‘qotishlari, T_{chek} cheklangan tezlik sababli, kechikish yoki to‘xtash, ma'lum bir uchastkada kamaytirilgan tezlikda harakatlanish vaqtidagi farqni anglatadi, T_{phg} poyezdning poyezdlar harakati grafigida belgilangan tezlik bilan harakatlanishiga sarflanadigan vaqt.

$$T_{to'x} = T_{chek} - T_{phg} \quad (5)$$

Poyezdning harakatlanish vaqti balansini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, tezlikni cheklashdan vaqtni yo‘qotish, sekinlashuv va tezlashuv yo‘qotishlarini hisobga olmasdan, (6) ifoda bilan tavsiflanadi. [1-2]

$$T_{to'x} = (L_{chek} + L_{poyezd})\left(\frac{1}{V_{chek}} - \frac{1}{V_{phg}}\right) = L_{chek,poyezd}\left(\frac{1}{V_{chek}} - \frac{1}{V_{phg}}\right), \quad (6)$$

Bu yerda,

L_{chek}, L_{poyezd} - tezlik cheklangan joy va poyezd uzunligi;

$L_{chek,poyezd}$ - uchastkadagi tezlik cheklangan joyning va poyezdning umumiy uzunligi;

V_{chek}, V_{phg} - cheklangan va poyezdlar harakati grafigidagi me’yoriy tezlik.

Vaqt yo‘qotilishi sekinlashishda t_{sek} va tezlashish t_{tez} harakat tezligining pasayishi va oshishi bilan bilan belgilanadi:

$$t_{sek} = 2\cdot\left(\frac{V_{phg} - V_{chek}}{2\mu_{sek}}\left(1 - \frac{V_{chek}}{V_{phg}}\right)\right); t_{tez} = \frac{V_{phg} - V_{chek}}{2\mu_{sek}}\left(1 - \frac{V_{chek}}{V_{phg}}\right), \quad (7)$$

Poyezdning tezlanishi sekinlashganda poyezdlar harakatining tezlashishi μ_{sek} va tezlashganda tezlanish μ_{tez} ni hisoblashda (8) ifoda orqali hisoblash mumkin:

$$\mu_{sek} = \frac{V_{phg}^2 - V_{chek}^2}{2\cdot L_{sek}}; \mu_{tez} = \frac{V_{phg}^2 - V_{chek}^2}{2\cdot L_{tez}}, \quad (8)$$

Bu yerda:

L_{sek}, L_{tez} - poyezd tezligini pasaytirish va tezlashtirish uchun yo‘l uzunligi.

Poyezdning tezlanishi sekinlashganda poyezdlar harakatining tezlashishi $\mu_{sek} = 0,25 m/s^2$ va tezlashganda tezlanish $\mu_{tez} = 0,1 m/s^2$ deb qabul qilinadi:

Poyezdning sekinlashishi va tezlashishini hisobga olgan holda, tezlik chegarasidan vaqtni yo‘qotish quyidagi ifoda bilan tavsiflanadi:

$$T_{to'x} = L_{chek,poyezd}\left(\frac{1}{V_{chek}} - \frac{1}{V_{phg}}\right) + \frac{(V_{phg} - V_{chek})^2}{2\cdot V_{phg}}\left(\frac{1}{\mu_{sek}} + \frac{1}{\mu_{tez}}\right), \quad (9)$$

PHG da belgilangan tezlik $V_{phg} = 80$ km/s, cheklangan tezlik esa $V_{ch.t.} = 25$ km/s, ogohlantirish blankasini olish uchun sarflanadigan vaqt sarf esa $t_{to'x} = 5$ daqiqani tashkil etganda, yo‘qotiladigan vaqt sarfi (5) rasmda keltirilgan.



5-rasm. Samarasiz yo‘qotilgan vaqt blankani yetkazish uchun 5 daqiqa qo‘shilganda

PHG da belgilangan tezlik $V_{phg} = 80$ km/s, cheklangan tezlik esa $V_{ch.t.} = 25$ km/s, ogoglantirish blankasini olish uchun sarflanadigan vaqt sarf esa $t_{to'x} = 0$ daqiqani tashkil etganda, yo‘qotiladigan vaqat sarfi (6) rasmda keltirilgan.



6-rasm. Samarasiz yo‘qotilgan vaqt blankani yetkazish uchun vaqt qo‘shilmaganda

Poyezdning kechikishi va grafikda ko‘zda tutilmagan to‘xtashidan, shuningdek tezlikni cheklashdan kelib chiqadigan vaqt yo‘qotishlari sekinlashish va tezlashish, pasaytirilgan tezlikda harakatlanish yoki to‘xtash vaqti uchun vaqt yo‘qotishlaridan iborat bo‘lib, ular past tezlikda harakatlanish qismining uzunligiga, poyezd holatiga va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi. Keyingi harakatlanish imkoniyatlari tezlik chegarasidan keyingi kabi bo‘lishi mumkin.

3. Xulosa

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turibdiki Nazarbek-Dalaguzar peregonini oghlantirishlar berilganida poyezdlar amalda 20 daqiqa vaqt sarflamoqda, lekin PHG da peregonni bosib o‘tish uchun 8 daqiqa qilib belgilangan. Poyezdlar peregonni bosib o‘tishida vaqt sarfining oshishi asosan poyezd mashinistlari ogohlantirish blankalarini kutib qolishi sabab bo‘lmoqda. Agarda ogohlsntirish blankalarini avtomatlashtirilgan tizim orqali uzatiladigan bo‘lsa o‘rtacha

7-8 daqiqa yoki shu vaqt mobaynida peregonda yana bir poyezdni o‘tkazishga imkon beradi.

Foydalangan adabiyotlar / References

[1] Беседин А.И. Метод анализа наличной пропускной способности железнодорожних участков при временних ограничениях скорости движения поездов.: Кандидатский диссертация. – Москва, 2005. -197 с

[2] Суружин К.В. Влияние временних предупреждений об ограничении ходовых скоростей по состоянию пути на пропуск грузовых поездов: Кандидатский диссертация. – Москва, 2009. -193 с

[3] Abduqodirov S.A. Poyezdlar harakati grafigini tezkor o‘zgartirish asosida temir yo‘l yo‘nalishlari transport jarayonlari texnologiyasini tashkil etish. PhD dissertatsiya. Tashkent-2023. – 149.

[4] Aripov N.M., Taxirov N.S. Temir yo‘l transportida poyezdlarga ogohlantirishlarni berishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish// Resursosberegayushiye texnologii na jeleznodorojnom transporte. Tashkent-2020. – Pp. 168-172.

[5] Sh.Sh. Kamaletdinov, N.S. Tokhirov, Qualitative and temporal characteristics of electronic document management processes in cargo and commercial operations// E3S Web of Conferences 264, 05042 (2021) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126405042.

[6] Aripov N.M., Kamaletdinov Sh.Sh., Toxirov N.S. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ da poyezdlarga beriladigan ogohlantirishlarni avtomatlashtirilgan tizimini yaratish asosida poyezdlar harakati havfsizligini oshirish chora tadbirlari // Scientific-technical journal (STJ FerPI, 2021, T.25, №4). – Pp. 168-172.

[7] N. M. Aripov, Sh. Sh. Kamaletdinov, N. S. Toxirov, va M. D. Axmedova, “Poyezdlarga ogohlantirishlar berish jarayonlarini avtomatlashtirish” vol. 2, no. 9, pp. 483–490, 202, DOI: 10.24412/2181-1385-2021-9-474-482

[8] N. M. Aripov, Sh. Sh. Kamaletdinov, N. S. Toxirov, va M. D. Axmedova, “Poyezdlarga beriladigan ogoxlantirishlarni uchastkaning o‘tkazish qobiliyatiga ta’sirini o‘rganish” vol. 2, no. 9, pp. 474–482, DOI: 10.24412/2181-1385-2021-9-483-490

[9] N.M. Aripov, A.A. Svetashev, Sh.Sh. Kamaletdinov, and N.S. Tokhirov. Mathematical Modeling of the Automated Process of Transmission of Applications for Train Warning by Distance of Roads. AIP Conference Proceedings 2432, 030116 (2022); https://doi.org/10.1063/5.0089539

[10] Aripov N.M., Taxirov N.S. Temir yo‘l transportida poyezdlarga ogohlantirishlarni berishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish// Resursosberegayushiye texnologii na jeleznodorojnom transporte. Tashkent-2020. – Pp. 168-172.

[11] Aripov N. M., Kamaletdinov Sh. Sh. Improvement of cargo and commercial work in the conditions of application of electronic document management in railway transport of the Republic of Uzbekistan // VESTNIK, Tashkent: TASHSTU, No. 2, 2018. pp. 39-45.

[12] Nazirjon Aripov, Shokrukh Kamaletdinov, Nosir Tokhirov, Zebo Abduraxmanova. Simulation Modeling of Train Traffic Based on GIS Technologies. EUROPEAN JOURNAL OF LIFE SAFETY AND STABILITY (EJLSS).

[13] N. M. Aripov, Sh. Sh. Kamaletdinov, N. S. Tokhirov. Choosing of wireless technology among the internet of things to improve the organization of the transportation process in railway transport.: Tashkent, 2019. No. 3. pages 181-195. (https://uzjournals.edu.uz/cgi/viewcontent.cgi?article=1074&context=tashiit)

[14] Н.М. Арипов, Ш.Ш. Камалетдинов, Н.С. Тохиров. “Практическое применение технологии LORAWAN для отслеживания подвижного состава на железнодорожном транспорте,” Academic Research in Educational Sciences Volume 3, Issue 8, 2022: https://scholar.google.com/citations?user=Rs_3Up0AAAAJ&hl=en&authuser=2

[15] O‘zbekiston respublikasi temir yo‘llarida poyezdlar harakati va manyovr ishlari bo‘yicha yo‘riqnoma. Toshkent 2014.

[16] N.M. Aripov, Sh.Sh. Kamaletdinov, N.S. Tokhirov, D. Eshmetova and Sh.X. Buriyev. Determination of the influence degree of technologies for issuing train traffic safety warnings. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202453102007.

Mualliflar to‘g‘risida ma’lumot/ Information about the authors

Aripov Nazirjan	Toshkent davlat transport universiteti “Avtomatika va telemexanika” kafedrasi professori. t.f.d.. E-mail: aripov1110@gmail.com Tel.: +998 90 933 10 93 https://orcid.org/0000-0002-6209-5063
Nosirjon Tohirov	Toshkent davlat transport universiteti “Avtomatika va telemexanika” kafedrasi doktaranti. E-mail: nosirtohirov@gmail.com Tel.:+998998708193 https://orcid.org/0000-0003-1385-9263